

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
SAMARQAND VILOYATI XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH HUDUDIY
MARKAZI**

**"PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA TA'LIM TEXNOLOGIYALARI"
KAFEDRASI**

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARI TARBIYACHILARINING
MALAKASINI OSHIRISH TOIFALARI UCHUN "MAKTABGACHA
YOSHDAGI BOLALARNING YOSH VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI"
MODULI BO'YICHA**

O'QUV METODIK MAJMUA

SAMARQAND – 2020

Ushbu o'quv metodik majmua markaz direktori huzuridagi yig'ilishning 2020- yil 4-yanvardagi 1-sonli yig'ilish qarori bilan tasdiqlangan

Tuzuvchi:

N.Daminova – Samarqand VXTXQTMO hududiy markazi Pedagogika, psixologiya va ta'lif texnologiyalari kafedrasini o'qituvchisi

Taqrizchilar:

F.Narzikulova – Samarqand VXTXQTMO hududiy markazi Pedagogika, psixologiya va ta'lif texnologiyalari kafedrasini dotsenti

A.Abdumannotov – JTBMIMTOTMO hududiy markazi Pedagogika va psixologiya kafedrasini dotsenti

Ushbu o'quv metodik majmua "Pedagogika, psixologiya va ta'lif texnologiyalari" kafedrasining 2020- yil 4-yanvardagi 1-sonli yig'ilish qarori bilan tasdiqlangan

Kafedra mudiri:

_____ G.Fayzullayeva

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
SAMARQAND VILOYATI XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH HUDUDIY
MARKAZI**

**“PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA TA'LIM TEXNOLOGIYALARI”
KAFEDRASI**

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlari moduli bo'yicha
(*maktabgacha talim muassasasi tarbiyachilari malaka oshirish kursi uchun*)

ISHCHI O'QUV-MAVZU REJA VA DASTURI

Samarqand – 2020

Ushbu ishchi o‘quv reja va dasturi Ilmiy-metodik kengash yig‘ilishining 2020-yil 4-yanvardagi 1-sonli qaror bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchilar:

N.Abdumannotova – Samarqand VXTXQTMO hududiy markazi Pedagogika,

N.Daminova psixologiya va ta’lim texnologiyalari kafedrasini o‘qituvchisi.

– SamDCHTI Pedagogika, psixologiya kafedrasini o‘qituvchisi

Ishchi o‘quv reja va dasturi “Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari” kafedrasining 2020-yil 4-yanvardagi 1-sonli yig‘ilish qarori bilan tasdiqlangan.

Kafedra mudiri:

_____ G.Fayzullayeva

KIRISH

Ushbu ishchi o'quv reja va dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni, 2017-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli Farmoni, 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-sonli Qarori, 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli Qarori, shuningdek, Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018-yil 18-iyundagi 1-mh sonli "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari hamda "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog-tarbiyachilari malakasini oshirish kurslarini tashkil etish mazmunini hamda amalga oshirish mexanizmlarini nazarda tutadi.

Dastur mazmuni O'zbekiston Respublikasining ta'lim-tarbiya sohasidagi davlat siyosati, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy hujjatlari, pedagogning kasbiy kompetentligi va mahorati, ta'lim-tarbiya jarayoniga psixologik yondashuv, o'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, amaliy xorijiy til, Maktabgacha ta'limda innovatsion yondashuvlar, Maktabgacha ta'limni tashkil etishning zamonaviy usullari va vositalarini o'z ichiga oladi va ular bo'yicha tegishli yangi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular xalq ta'limi va maktabgacha ta'lim tizimi pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan malaka talablari va o'quv rejasi asosida shakllantirilgan bo'lib, Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarini ta'limning zamonaviy va innovatsion texnologiyalaridan xabardor qilish, ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanishga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga keng tatbiq etishga tayyorlash va kasbiy kompetensiyalarini muntazam yuksaltirishni nazarda tutadi.

MODULNING MAQSADI VA VAZIFALARI

Modulning maqsadi: ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni muntazam yangilash, mustaqil amaliy faoliyatda qo'llash, malaka talablari asosida ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirishdan iborat.

Modulning vazifalari:

-tinglovchilarga jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslarini muntazam o'rgatish;

- maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarini o'qitishda ilg'or ta'lim-tarbiya texnologiyalari va xorijiy tajribalarga tayanish;

- maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarini texnik va kreativ fikrlash, intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish;

- mактабгача та'лим ташкilotлари тарбијачilarining xorijiy tilni o'рганишга yo'naltirish;

-мактабгача yoshdagi bolalar psixologik, fiziologik, intellektual, jismoniy rivojlanish qonuniyatlari asosida bolalarni kuzatish, yo'naltirishga tayyorlash;

-мактабгача yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga samarali tayyorlash usul va vositalarini tanlash, amaliyotda qo'llash, takomillashtirish asosida variativ dasturlar ishlab chiqishga amaliy tayyorlash;

- ta'lim-tarbiya jarayonini ishlab chiqarish bilan samarali integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish;

- malaka talablariga mos holda mактабгача ta'lim tashkilotlari tarbiјachilarining kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini innovatsion yondashuvlar asosida uzlusiz rivojlantirish.

KURS YAKUNIDA TINGLOVCHILARNING BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARI VA KOMPETENSIYALARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR:

1. Mazkur kursni muvaffaqiyatli tugatgan tinglovchi quyidagilarni bilishi zarur:

-ta'lim-tarbiya jarayonining mohiyatini bilishi;

- ta'lim-tarbiya jarayonini pedagogik mahorat bilan tashkillashtira olishi;

-ta'limga texnologik yondashuv asosida mashg'ulotlarning o'quv-tarbiyaviy maqsadini qo'ya olishi;

-tarbiyalanuvchilar faoliyati faolligini jadallashtirish asosida pedagogik texnologiyalarni tanlay olishi;

-ta'lim texnologiyalar va ulardan mashg'ulotlarda foydalana olishi;

-zamonaviy pedagog imidji bo'yicha zamonaviy talablarni bilishi;

-shaxsning ma'naviy-axloqiy sifatlarini faol shakllantirish.

2. Quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim:

-ta'lim samaradorligini oshirish uchun o'yin texnologiyalardan foydalanish;

-mashg'ulotlarda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish;

-pedagogik qobiliyatlarini shakllantirish;

-tarbiyachining o'z pedagogik faoliyatiga kreativ yondashishi.

3. Quyidagi malakalarni egallagan bo'lishi shart:

-o'quv mashg'ulot jarayonini texnologiyalashtirishi;

-ta'lim-tarbiya texnologiyalarni o'z faoliyatida qo'llay olishi;

-o'quv mashg'ulot jarayonini tashkil etishi va samarali boshqarish asosida ta'lim texnologiyalarini tanlay olishi.

4. Quyidagi kompetensiyalarni egallagan bo'lishi shart:

O'z-o'zini rivojlantirish, o'z ustida ishlash kompetentligi ko'rsatkichlari:

-o'z kasbiy mahoratini oshirishga doir faoliyat rejasini tuza olishi;

-kasbiy rivojlanishiga oid manbalarni aniqlay olishi, o'zining va mактабгача ta'lim tashkilotining ehtiyojlaridan kelib chiqib kasbiy malakasini oshirish bo'yicha o'quvlarni tanlay olishi va ularda ishtirok etishi;

-innovatsion tarbiya texnologiyalardan xabardor bo'lishi va kasbiy faoliyatda foydalana olishi;

-kasbiy (pedagogik, mutaxassislik) faoliyatini takomillashtirishda turli texnologiyalardan foydalanishi;

Mas'uliyat va moslashuvchanlik kompetensiyasi:

-tarbiya jarayonida yuz berayotgan turli o'zgarishlarga va yangilanish jarayonlariga tez va oson moslasha olish;

-tarbiyatagi yangi yondashuv va strategiyalarni qabul qila olishi, ularni egallashi va o'z kasbiy amaliyotiga joriy eta olish;

-turli xil yangi vazifalar va mas'uliyatlarni qabul qila olish;

-o'ziga, jamoada va hamjamiyat miqyosida mas'uliyatli bo'lish;

-o'ziga va ta'limga muassasa xodimlariga nisbatan yuqori marra va standartlarni belgilash va ularga erishish.

-har bir tarbiyalanuvchining o'zlashtirishi va muvaffaqiyatli tarbiya olishiga mas'uliyatni o'z zimmasiga olish;

-ta'limga jarayonida bolaning faol rolini ta'minlashda mas'uliyatni o'z zimmasiga olish.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: muktabgacha ta'limga muassasalari tarbiyachilarining ta'limga tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni muntazam yangilash, barcha malaka yo'naliishlariga quyilgan malaka talablari asosida ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirishdan iborat.

Modulning vazifalari:

- muktabgacha yoshdagagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini bilish

orgali zamonaviy yondashuvlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan metodologik bilimlarni shakllantirish;

- ta'limga tarbiya jarayonida bolalar psixologiyasining umumiyligi masalalari bo'yicha bilim, ko'nikmalarni rivojlantirish;

- ta'limga tarbiya jarayonida bolalar psixologiyasining umumiyligi masalalari bo'yicha bilim, ko'nikmalarni rivojlantirish;

- muktabgacha yoshdagagi bollarning rivojlanishi, o'yin va mehnat faoliyatlarining bola taraqqiyotidagi o'rni, bolaning muktabga psixologik yetuklik jihatlari kabi masalalari to'g'risidagi tushunchalardan foydalanish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirish;

- o'z kasbiy mahoratini takomillashtirish maqsadida tinglovchilarga shaxsiy ijodiy malaka oshirishning shakl, usul va vositalari haqida tasavvurlar hosil qilish.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

Tinglovchi:

- muktabgacha yoshdagagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlari fanining predmetini;

- muktabgacha yoshdagagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlari fanining metodlarini;

- maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlari fanining nazariy asoslarini;
- bola psixik taraqqiyoti qonuniyatlarini;
- tarbiyachi pedagogik faoliyatida kasbiy refleksiyaning o‘rni;
- ta’lim-tarbiyada differensial yondashuv jarayonida bolalarning biologik va ijtimoiy rivojlanish omillarining roli;
- xarakterdagи individual farqlar;
- bolaning mакtabga yetuklik jihatlarining psixologik hususiyatlarini;
- bolaning bilish jarayonlari, emotsional-motivatsion sohasini rivojlanishida o‘yin faoliyati ahamiyati haqida biliшi;
- ta’lim-tarbiyani tashkillashtirishda bola individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish; pedagogikaning asosiy kategoriylarini;
- bolalarni ta’lim jarayoniga aqliy va ijtimoiy-psixologik tayyorlashning psixologik tomonlarini biliш;
- bilish faoliyati sohasida bolaning mакtabdagi ta’lim jarayoniga tayyorligi darajasini tushunish;
- bolalarning mакtabga tayyorgarligini tekshirishda psixodiagnostika metodlaridan foydalanish;
- malaka oshirish kursida o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalardan kasbiy faoliyatda foydalanish kompetensiylariga ega bo‘lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlari moduli nazariy va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi. Modulni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- nazariy mashg‘ulotlarda zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlari, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa bloklar va modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

- bola taraqqiyotini ta’minlash uchun didaktik o‘yinlarni tashkillashtira olish;
- jamoa a’zolarining shaxs xususiyatlarini va emotsional holatlarini hisobga olgan xolda, ular bilan samarali muloqot qilish;
- bolalar jamoasini boshqara olish;
- pedagogik faoliyatni samaradorligini oshirish uchun o‘z ustida ishlash ko‘nikmalariga;
- bolaning bilish jarayonlarini oshirish uchun o‘quv-tarbiya mashg‘ulotlarini loyihalash;
- bolalar bilan ishlashda differensial yondashish;
- bolaning emotsional - motivatsion sohasini rivojlantiruvchi o‘quv mashg‘ulotlar dasturini yaratish;

- ta'lim samaradorligini oshirish uchun pedagogik ijtimoiy persepsiyanı rivojlantirish malakalariga;

- bolalarni ta'lim jarayoniga aqliy va ijtimoiy-psixologik tayyorlashning psixologik tomonlarini bilish;

- bilish faoliyati sohasida bolaning mактабдаги та'лим jarayoniga tayyorligi darajasini tushunish;

- bolalarning maktabga tayyorgarligini tekshirishda psixodiagnostika metodlaridan foydalanish;

- malaka oshirish kursida o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalardan Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlari moduli mazmuni o'quv rejadagi Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar fiziologiyasi va gigienasi o'quv moduli bilan uzviy bog'langan holda mактабгача та'лим muassasalari tarbiyachilarining kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Modulning mazmuni o'quv rejadagi "O'zbekistonda ta'lim-tarbiya jarayonlarining huquqiy-me'yoriy asoslari", "Ta'lim-tarbiya texnologiyalari va pedagogik maxorat", "Mutaxassislik fanlari" bloklari modullari bilan uzviy bog'langan holda barcha malaka yo'nalishlarining kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar mактабгача та'лим yoshidagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini o'rganish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Mavzular nomi	Umumiy soat	Jami auditoriya	Nazariy	Amaliy	Ko'chmama shg'ulot	Mustaqil ta'lim
1	Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh davrlari klassifikasiysi, o'ziga xosligi	4		2			2
2	Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh davrlari klassifikasiysi, o'ziga xosligi	2			2		
3	Bolaning rivojlanish xususiyatlari	2				2	
4	Maktabgacha yoshdagi bolalarni individual tipologik va psixologik hususiyatlari	2			2		
	Jami:	8		2	6		2

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh davrlari klassifikasiyasi, o’ziga xosligi (2 soat)

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlari fanining predmeti, maqsadi, vazifalari. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlari – bola psixik taraqqiyoti qonuniyatlarini o‘rganuvchi fandir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlari fanining metodlari. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlari fanining boshqa fanlar bilan aloqasi

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg‘ulot: Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh davrlari klassifikasiyasi, o’ziga xosligi (2 soat)

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlari fanining predmeti, maqsadi, vazifalari. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlari – bola psixik taraqqiyoti qonuniyatlarini o‘rganuvchi fandir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlari fanining metodlari. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlari fanining boshqa fanlar bilan aloqasi

2-amaliy mashg‘ulot. Bolaning rivojlanish xususiyatlari (2 soat)

Maktabgacha yoshdagi bola taraqqiyotining umumiy xususiyatlari. Maktabgacha yoshda mehnat va o‘yin faoliyatlarining o’ziga xosligi. Bolalarning shaxsiy va ijtimoiy tayyorgarligi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonlari va rivojlanishi. Maktabgacha yoshdagi bolalar inqirozi.

3-amaliy mashg‘ulot. Maktabgacha yoshdagi bolalarni individual tipologik va psixologik hususiyatlari (2 soat)

Bolalarni ta’lim jarayoniga aqliy va ijtimoiy-psixologik tayyorlashning psixologik tomonlari. Bolalarni mакtabdagi yangi munosabat shakllariga va yangicha bilish faoliyatiga tayyorlash vazifalari.O‘qish ehtiyoji va motivlarining o‘zgarishi. Bolalarning maktabga tayyorgarligini tekshirishda psixodiagnostika metodlaridan foydalanish. Maktabgacha yoshdagi bola rivojlanishi, psixik taraqqiyoti, bilish jarayonlari, psixologik treninglarni tashkil etish.

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalilanildi:

- nazariy, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLI VA MAZMUNI

Tinglovchilarning mustaqil ta'limi yakka tartibda bitiruv malaka ishi bo'yicha turli adabiyotlardan va internet resurslaridan foydalangan holda ma'lumot to'plash, ularni o'rganish va tahlil qilish hamda taqdimotlar tayyorlash asosida tashkil etiladi.

FOYDALANISH TAVSIYA ETILADIGAN O'QUV-USLUBIY ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarları

1. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olижаноб xalqımız bilan birga quramiz" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.: "O'zbekiston", 2016. – 56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagı ma'ruzasi. – T.: "O'zbekiston", 2017– 48 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: "O'zbekiston". – 2017.– 102b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olижаноб xalqımız bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T."O'zbekiston", 2018- 80 b.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch –T.: "Ma'naviyat"2008.–176 b.
7. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida T.: "O'zbekiston", 2011.–440 b.
8. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxti iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. –T.: "O'zbekiston", 2015. – 302 b.

I. Maxsus adabiyotlar

- 1.Nishanova Z.T., Alimova G.K.. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi T.: TDPU 2017.
2. G'oziev E. Ontogenet psixologiyasi. Nazariy- eksperimental tahlil T.: Noshir 2010.
- 3..Do'stmuhamedova Sh.A.,Nishanova Z.T va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya T.: Fan va texnologiyalar 2013.
- 4..Shapovalenko I.V. Vozrastnaya psixologiya (Psixologiya razvitiya i vozrastnaya psixologiya): uchebnik dlya studentov vuzov. – M.: Gardariki, 2007.
5. Asadov Yu., Musurmanov R. —O'smirlar deviant xatti-harakatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (diagnostika, profilaktika, korreksiya)||- T.,2011
6. Sodiqov B. —Tarbiyasi qiyin o'smirlar psixologiyasi||, Termiz 2003 yil
7. Sodiqov B —Deviant xulq bolalar psixologiyasi||, Termiz 2010 yil
8. To'laganova G.K —Tarbiyasi qiyin o'smirlar||. T, —Universitet||, 2005 yil.
9. Hasanboeva O. —Oilada ma'naviy-ahloqiy tarbiya||. T, —Aloqachi||, 1998 yil .
10. Xudoyqulov X.J —Odob-ahloq va tarbiya durdonalari|| T. 2008 yil

11. Yadgarova G.T —Tarbiyasi qiyin guruhga mansub bolalar bilan ishlash||, uslubiy qo'llanma, Toshkent, 2007 yil.

II. Elektron ta'lim resurslari

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi: www.edu.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi: www.uzedu.uz
3. Xalq ta'limi sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi:www.multimedia.uz
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markaz: www.bimm.uz
5. Ijtimoiy axborot ta'lim portalı: www.ziyonet.uz

MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI

Hozirgi vaqtda ta'limgarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'limgarayonida tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'limgarayonida oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'limgarayonida oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'limgarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, babs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'limgarayonida oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. **Interfaol metodlar** deganda ta'limgarayonida oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'limgarayonining markazida ta'limgarayonida oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'limgarayonida oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'limgarayonida oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'limgarayonida oluvchi markazda bo'lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'limgarayonida oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddatini ta'limgarayonida oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta'limgarayonida oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

"Aqliy hujum" metodi - biror muammo bo'yicha ta'limgarayonida oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarini to'plab, ular orqali ma'lum bir echimga kelinadigan metoddir. "Aqliy hujum" metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida ta'limgarayonida berilgan savolga ta'limgarayonida oluvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Ta'limgarayonida oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. YOzma shaklida esa berilgan savolga ta'limgarayonida oluvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. "Aqliy hujum" metodining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilari bo'yicha guruhab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to'g'ri va ijobjiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi.

"Aqliy hujum" metodidan foydalananiga ta'limgarayonida oluvchilarning barchasini jalgan etish imkoniyati bo'ladi, shu jumladan ta'limgarayonida muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta'limgarayonida oluvchilar o'z fikrini faqat

og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli g‘oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta’lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

“Aqliy hujum” metodi ta’lim beruvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.

2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda-yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.


3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda-mavzudan so‘ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

“Aqliy hujum” metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan fikr-g‘oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirilgan har qanday fikr-g‘oyalar, ular hatto to‘g‘ri bo‘lmasa ham inobatga olinadi.

3. Har bir ta’lim oluvchi qatnashishi shart.

Quyida “Aqliy hujum” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Aqliy hujum” metodining tuzilmasi

“Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo‘yicha o‘z javoblarini (fikr, g‘oya va mulohaza) bildirishlarini so‘raladi;
2. Ta’lim oluvchilar savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
3. Ta’lim oluvchilarning fikr-g‘oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog‘ozlarga yoki doskaga) to‘planadi;
4. Fikr-g‘oyalar ma’lum belgilari bo‘yicha guruhlenadi;
5. YUqorida qo‘yilgan savolga aniq va to‘g‘ri javob tanlab olinadi.

“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:

- natijalar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli fikr-g‘oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- ta’lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g‘oyalar vizuallashtirilib boriladi;

- ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud;

- ta’lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg‘otadi.


“Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:

- ta’lim beruvchi tomonidan savolni to‘g‘ri qo‘ya olmaslik;
- ta’lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi - ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo‘llanilganda ta’lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo‘llanilganda ta’lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtini tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. CHunki ta’lim beruvchi bir vaqtning o‘zida barcha ta’lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi
“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta’lim oluvchilar guruhlarga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta’lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:


- o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqt ni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha ta’lim oluvchilar jalb etiladi;
- o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:

- ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz ta’lim oluvchilar bo‘lganligi sababli kuchli ta’lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta’lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;
- guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.

“Davra suhbati” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

“Davra suhbati” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbating og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatica ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta’lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.




Belgilar:

1-ta'lim oluvchilar

2-aylana stol

Davra suhbatining tuzilmasi

YOZMA davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta'lif oluvchiga konvert qog'ozi beriladi. Har bir ta'lif oluvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va "Javob varaqasi"ning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi. SHundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lif oluvchiga uzatadi. Konvertni oлган ta'lif oluvchi o'z javobini "Javoblar varaqasi"ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi ta'lif oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. YAKUNIY qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi. Quyida "Davra suhbatining tuzilmasi" metodining tuzilmasi keltirilgan



“Davra suhbati” metodining tuzilmasi

“Davra suhbati” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Mashg‘ulot mavzusi e’lon qilinadi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni mashg‘ulotni o’tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir ta’lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta’lim oluvchi bo‘lsa, shunchadan “Javoblar varaqlari”ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo‘yiladi. Ta’lim oluvchi konvertga va “Javoblar varaqlari”ga o‘z ismi-sharifini yozadi.
4. Ta’lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo‘yicha o‘z savolini yozadi va “Javoblar varaqasi”ga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi.
5. Konvertga savol yozgan ta’lim oluvchi konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi.
6. Konvertni olgan ta’lim oluvchi konvert ustidagi savolga “Javoblar varaqlari”dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo‘yadi hamda yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi.
7. Konvert davra stoli bo‘ylab aylanib, yana savol yozgan ta’lim oluvchining o‘ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta’lim oluvchi konvertdagi “Javoblar varaqlari”ni baholaydi.
8. Barcha konvertlar yig‘ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali ta’lim oluvchilar berilgan mavzu bo‘yicha o‘zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta’lim oluvchilarni muayyan mavzu bo‘yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta’lim oluvchilar o‘zлari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta’lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta’lim beruvchi ham ta’lim oluvchilarni ob’ektiv baholashi mumkin.

“Davra suhbati” metodining afzalliklari:

- o‘tilgan materialining yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- barcha ta’lim oluvchilar ishtirok etadilar;
- har bir ta’lim oluvchi o‘zining baholanishi mas’uliyatini his etadi;
- o‘z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi.

“Davra suhbati” metodining kamchiliklari:


- ko‘p vaqt talab etiladi;
- ta’lim beruvchining o‘zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishi talab etiladi;
- ta’lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo‘lgan mavzu tanlash talab etiladi.

“Rolli o‘yin” metodi - ta’lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko‘rsatib beruvchi metoddir.

Rolli o‘yinlarning ishbop o‘yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir. SHu bilan birga “Rolli o‘yin” metodida ta’lim oluvchilar ta’lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan ssenariydagi rollarni ijro etish bilan kifoyalanishsa, “Ishbop o‘yin” metodida rol ijro etuvchilar ma’lum vaziyatda qanday vazifalarni bajarish lozimligini mustaqil ravishda o‘zlar hal etadilar.

Rolli o‘yinda ham ishbop o‘yin kabi muammoni echish bo‘yicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo‘lga qo‘yilgan. Rolli o‘yinlar ta’lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

“Rolli o‘yin” metodida ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar haqida oldindan ma’lumotga ega bo‘lishi lozim. CHunki rollarni o‘ynashda har bir ta’lim oluvchining individual xarakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Rolli o‘yinlar o‘quv jarayonida ta’lim oluvchilarda motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi. Quyida “Rolli o‘yin” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Rolli o‘yin” metodining tuzilmasi

“Rolli o‘yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha o‘yining maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o‘yin ssenariysini ishlab chiqadi.
2. O‘yining maqsad va vazifalari tushuntiriladi.
3. O‘yining maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.
4. Ta’lim oluvchilar o‘z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta’lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.
5. O‘yin yakunida ta’lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo‘lgan ta’lim oluvchilar o‘z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o‘yinga xulosa qilinadi.

Ushbu metodni qo‘llash uchun ssenariy t’lim beruvchi tomonidan ishlab chiqiladi. Ba’zi hollarda ta’lim oluvchilarni ham ssenariy ishlab chiqishga jalb etish mumkin. Bu ta’lim oluvchilarning motivatsiyasini va ijodiy izlanuvchanligini oshirishga yordam beradi. Ssenariy maxsus fan bo‘yicha o‘tilayotgan mavzuga mos ravishda, hayotda yuz beradigan ba’zi bir holatlarni yoritishi kerak. Ta’lim oluvchilar

ushbu rolli o‘yin ko‘rinishidan so‘ng o‘z fikr-mulohazalarini bildirib, kerakli xulosa chiqarishlari lozim.

“Rolli o‘yin” metodining afzallik tomonlari:

- o‘quv jarayonida ta’lim oluvchilarda motivatsiya (qiziqish)ni shakllantirishga yordam beradi;
- ta’lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishni o‘rgatadi;
- ta’lim oluvchilarda berilgan vaziyatni tahlil qilish malakasi shakllanadi.

“Rolli o‘yin” metodining kamchilik tomonlari:

- ko‘p vaqt talab etiladi;
- ta’lim beruvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi;
- ta’lim oluvchilarning o‘yinga tayyorgarligi turlicha bo‘lishi mumkin;
- barcha ta’lim oluvchilarga rollar taqsimlanmay qolishi mumkin.

“Bahs-munozara” metodi - biror mavzu bo‘yicha ta’lim oluvchilar bilan o‘zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o‘tkaziladigan o‘qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo‘llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta’lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta’lim beruvchining o‘zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta’lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta’lim oluvchilar orasida paydo bo‘ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o‘tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- barcha ta’lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- “o‘ng qo‘l” qoidasi (qo‘lini ko‘tarib, ruhsat olgandan so‘ng so‘zlash)ga rioya qilish;
- fikr-g‘oyalarni tinglash madaniyati;
- bildirilgan fikr-g‘oyalarning takrorlanmasligi;
- bir-birlariga o‘zaro hurmat.

Quyida “Bahs-munozara” metodini o‘tkazish tuzilmasi berilgan.



“Bahs-munozara” metodining tuzilmasi

“Bahs-munozara” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.

2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammo bo‘yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.

3. Ta’lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya’ni turli g‘oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta’lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga o‘z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.

4. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar bilan birlashtirilgan fikr va g‘oyalarni guruhlarga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.

5. Tahlil natijasida qo‘yilgan muammoning eng maqbul echimi tanlanadi.

“Bahs-munozara” metodining afzallikkleri:


- ta’lim oluvchilarni mustaqil fikrashga undaydi;
- ta’lim oluvchilar o‘z fikrining to‘g‘riligini isbotlashga harakat qilishiga imkoniyat yaratiladi;
- ta’lim oluvchilarda tinglash va tahlil qilish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

“Bahs-munozara” metodining kamchiliklari:

- ta’lim beruvchidan yuksak boshqarish mahoratini talab etadi;
- ta’lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo‘lgan mavzu tanlash talab etiladi.

“Muammoli vaziyat” metodi - ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning echimini topish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo‘yilgan muammoning echimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda echimni topa olmagach, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so‘nishiga, o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarining yo‘qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi qo‘llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning echimini topishni o‘rganadilar. Quyida “Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi

“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammoni bayon qildi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o‘rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to‘g‘risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Muammoni echishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni echish yo‘llarini ishlab chiqadilar.
7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning echimi bo‘yicha taqdimot qiladilar va o‘z variantlarini taklif etadilar.
8. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil echimlar jamlanadi. Guruh ta’lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni echish yo‘llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

“Muammoli vaziyat” metodining afzallikkлari:

- ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi;

- ta’lim oluvchilar muammoning sabab, oqibat va echimlarni topishni o‘rganadilar;
 - ta’lim oluvchilarning bilim va qobiliyatlarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
 - ta’lim oluvchilar fikr va natijalarni tahlil qilishni o‘rganadilar.


“Muammoli vaziyat” metodining kamchiliklari:

- ta’lim oluvchilarda yuqori motivatsiya talab etiladi;
- qo‘yilgan muammo ta’lim oluvchilarning bilim darajasiga mos kelishi kerak;
- ko‘p vaqt talab etiladi.

“Loyiha” metodi - bu ta’lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo‘yicha axborot yig‘ish, tadqiqot o‘tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta’lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruhiy bo‘lishi mumkin, lekin har bir loyiha o‘quv guruhining birlgilidagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir. Bu jarayonda ta’lim oluvchining vazifasi belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning echimini topishdan iborat. Ta’lim oluvchilar nuqtanazaridan topshiriq murakkab bo‘lishi va u ta’lim oluvchilardan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo‘llay olishni talab qiladigan topshiriq bo‘lishi kerak.

Loyiha o‘rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyatga tadbiq etishi, ta’lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo‘lishi kerak.

Quyidagi chizmada “Loyiha” metodining bosqichlari keltirilgan.



“Loyiha” metodining bosqichlari

“Loyiha” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Muhandis-pedagog loyiha ishi bo'yicha topshiriqlarni ishlab chiqadi. Ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallar asosida topshiriqqa oid ma'lumotlar yig'adilar.

2. Ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta'lim oluvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskunalarini rejlashtirishlari lozim.

3. Kichik guruuhlar ish rejalarini taqdimot qiladilar. Ta'lim oluvchilar ish rejasiga asosan topshiriqni bajarish bo'yicha qaror qabul qiladilar. Ta'lim oluvchilar muhandis-pedagog bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo'yicha erishiladigan natijalarini muhokama qilishadi. Bunda har xil qarorlar taqqoslanib, eng maqbul variant tanlab olinadi. Muhandis-pedagog ta'lim oluvchilar bilan birgalikda “Baholash varaqasi”ni ishlab chiqadi.

4. Ta'lim oluvchilar topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ular individual yoki kichik guruhlarda ishlashlari mumkin.

5. Ta'lim oluvchilar ish natijalarini o'zlarini tekshiradilar. Bundan tashqari kichik guruuhlar bir-birlarining ish natijalarini tekshirishga ham jalb etiladilar. Tekshiruv natijalarini “Baholash varaqasi”da qayd etiladi. Ta'lim oluvchi yoki kichik guruuhlar hisobot beradilar. Ish yakuni quyidagi shakllarning birida hisobot qilinadi: og'zaki hisobot; materiallarni namoyish qilish orqali hisobot; loyiha ko'rinishidagi yozma hisobot.

6. Muhandis-pedagog va ta'lim oluvchilar ish jarayonini va natijalarni birgalikda yakuniy suhbat davomida tahlil qilishadi. O'quv amaliyoti mashg'ulotlarida erishilgan ko'rsatkichlarni me'yoriy ko'rsatkichlar bilan

taqqoslaydi. Agarda me'yoriy ko'rsatkichlarga erisha olinmagan bo'lsa, uning sabablari aniqlanadi.

Muhandis-pedagog "Loyiha" metodini qo'llashi uchun topshiriqlarni ishlab chiqishi, loyiha ishini dars rejasiga kiritishi, topshiriqni ta'lim oluvchilarning imkoniyatlariga moslashtirib, ularni loyiha ishi bilan tanishtirishi, loyihalash jarayonini kuzatib turishi va topshiriqni mustaqil bajara olishlarini ta'minlanishi lozim.

"Loyiha" metodini amalga oshirishning uch xil shakli mavjud:

- yakka tartibdagi ish;
- kichik guruhiy ish;
- jamoa ishi.

**NAZARIY
MASHG‘ULOTLAR
MAZMUNI**

1-MAVZU: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING YOSH DAVRLARI KLASSIFIKASIYASI, O'ZIGA XOSLIGI REJA:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlari fanining predmeti, maqsadi, vazifalari.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlari – bola psixik taraqqiyoti qonuniyatlarini o'r ganuvchi fandir.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlari fanining metodlari.
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlari fanining boshqa fanlar bilan aloqasi

Tayanch so'z va iboralar: psixofiziologik taraqqiyot, maktabgacha yosh, ta'sir ko'rsatish mexanizmlari, o'yin faoliyati, motivasion soha, ijtimoiy emosiyalar

Psixologiya-lotincha «psyux» - ruh, jon, «logos» - fan, ta'limot degan so'zlardan olingan bo'lib, ruh, jon haqidagi fan degan ma'noni anglatadi. Psixologiya faniga beriladigan ta'riflar ham juda xilma-xil bo'lib, shulardan ayrimlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak faktlar, ularning qonuniyatlarini va psixika mexanizmlari haqidagi fandir. Ko'r inib turiptiki, barcha ta'riflarda ham psixika haqida so'z bormoqda. Xo'sh, psixika nima?

Psixika lotincha psyux so'zidan kelib chiqqan bo'lib, ruh, jon degan ma'noni bildiradi. Psixika sezgi, idrok, tafakkur, hissiyot, iroda, xotira va boshqa shu kabi tushunchalar bilan guruhlarga ajratilib, hammasi birgalikda kishining psixikasi, kishining ichki dunyosi, uning ruhiy hayoti va hokazolar deb ham ataladigan tushunchalarini hosil qiladi. Bundan tashqari biz amaliyotda psixik hodisalar, ruhiy hodisalar degan iboralarga ham juda ko'p duch kelamiz.

Shaxs psixik jarayonlari:

Bilish sohasi: diqqat, nutq, faoliyat;

Bilish jarayonlari: sezgi, idrok, xotira, tasavvur, tafakkur;

Emosional – irodaviy sohasi: emosiya, iroda;

Individual-psixologik xususiyatlari: temperament, xarakter, qobilyat.

Bilish sohasi

Diqqat — idrokning u yoki bu obyektga ixtiyoriy yo'naltirilishi.

Nutq — bu muayan qoidalar asosida yaratilgan til organi orqali insoniy muloqotni tarixiy shakllangan formasi. Nutq jarayoni bir tomondan fikrlarni lingvistik vositalar bilan shakllantirilishi, ikkinchi tomondan esa tilshunoslik konstruksiyalari va ularning tushunchalarini idrok etishni nazarda tutadi.

Faoliyat — bu subyektning (tirik mavjudotning) obyekt bilan (atrofdagi borliq) faol hamkorlik jarayonidir. Voqyelikka nisbatan faol munosabat bildirishning shunday bir shaqlidirki, u orqali kishi bilan uni qurshab turgan olam o'rtasida real bog'lanish hosil qilinadi.

Bilish jarayonlari:

Sezgi — odamning real yoki abstrakt obyektlarga subyektiv munosabatini ifodalovchi hissiy jarayoni. Sezgi deb sezgi a'zolarimizga bevosita ta'sir etib

turgan narsa yoki hodisalarining ayrim sifat va xossalaring ongimizda aks ettirilishiga aytamiz.

Idrok - Sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etib turgan narsa va hodisalarining kishi ongida butunligicha aks ettirilishi idrok deyiladi.

Idrokning sezgidan farqi, narsalarni umumlashgan holda, uning hamma xususiyatlari bilan birgalikda aks ettirilishidir.

Xotira — Individning o'z tajribasini esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi xotira deb ataladi.

Tasavvur (grek. φαντασία — «tasavvur») — individ yoki guruh jamoasi tomonidan realikka to'g'ri kelmaydigan, lekin ularning orzu istaklarini bildiradigan jarayon.

Tafakkur — Tafakkur voqyelikni umumlashtirilgan holda, qonuniy bog'lanishlarni so'z va tajriba vositasida aks ettirishdir. Narsa va hodisalar rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash bilan odam, tabiat va kishilik jamiyati taraqqiyotini boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shaxsning hissiy irodaviy sohasi:

Hissiyot (lot. emoveo — hayajonlantiraman) —obyektiv dunyodagi mavjud yoki noma'lum bo'lgan vaziyatlarga subyektiv baholovchi munosabatni ifoda etadi .

Iroda —insonning fikrlash jarayonlari orqali qaror qabul qilishi, hamda qabul qilingan qaror asosida o'z xarakatlarini yo'naltirish.

Shaxsning individual xususiyatlari deganda shaxsning bir biridan farq qilishiga imkon beradigan quyidagi xususiyatlari tushuniladi: temperament, xarakter, qobiliyat.

Temperament lotincha temperamentum - narsalarning tegishli nisbati degan so'zdan olingan. Temperament haqida dastlab eramizdan oldingi V asrda yashagan vrach Gippokrat, eramizdan oldingi II asrda yashagan Galen, X asrda yashagan Ibn Sino va boshqalar o'z qarashlarini bildirganlar. Galen birinchi bo'lib temperamentning kengaytirilgan tasnifini berib, uning turini sanab o'tgan. Keyinroq vatandoshimiz Ibn Sino temperamentni mizoj deb atab, uning issiq va sovuq turini, bu odamning rangi, qonining miqdori, quyuq yoki suyuqligiga bog'liqligini aytgan. Hozirgi kunda temperament oliv nerv tizimi va uning xillari bilan bog'liqligi asos qilib olinib, 4 tipi borligi qabul qilingan. Bu holda temperamentning antik davr klassifikasiyasiga nomi bilan o'xshash bo'lishi qabul qilingan.

Sangvinik - qon so'zi bilan bog'liq bo'lib, serharakat, kuchli ta'sirlanish, muvozanatsiz bo'lish nazarda tutiladi. harakatchan, muvozanatli tip. Yangi shart sharoitga tez moslashadi, tez ishga kirishib tez soviydi, o'z o'rmini, rolini tez almashtiradi,beg'araz, kek saqlamaydigan tip. («Bir qop yong'oq»).

Xolerik - sariq o't organizmda ustun miqdorda bo'lishi asos qilib olinib, ta'surotni tez qabul qilib olish, kuchli qo'zg'olish, terisiga sig'maydigan shoshkaloy odam xususiyati hisoblanadi. «Jangovar, jo'shqin, oson va tez ta'sirlanadigan tip». (I. P. Pavlov). Chaqqon, tez harakat qiladi, qattiq va tez gapiradi, o'zini tutib turishi qiyin, bazan xato javob qaytaradi.

Flegmatik - organizmda shilimshiq modda flegma miqdori ko'pligi bilan ifodalanadi. Bu tipdagi odam ta'surotni bir muncha sekin qabul qiladi, ishga shoshilmay kirishadi, lekin ishni puxta, oxiriga yetkazib bajarishga layoqatli tip. Hissiyotlari sekin paydo bo'ladi, ammo barqaror va davomli bo'ladi. U vazmin va yuvosh, uning jahlini chiqarish qiyin, lekin jahli chiqsa to'xtatish ham qiyin, qasoskor, ginachi.

Melanxolik - qora o't miqdori bilan bog'liq deb hisoblanadi. Bu tipdagi odam «og'ir karvon», «tepsa tebranmas», atrofida sodir bo'layotgan hodisalarga va odamlarga loqayd, «dunyoni suv bossa, tupig'iga chiqmaydigan» tip. Antik davr psixologiyasidagi bu turlar keyin yana ko'p marta tadbiq qilinib, yana shu to'rt tip nomi saqlanib qolgan. Reaksiyalari ko'pincha qo'zg'ovchining kuchiga to'g'ri kelmaydi, loqayd, lanj, o'zini tez yo'qotib qo'yadi, biror ishda tashabbuskorlik ko'rsatmaydi. Hissiyotlari juda sekin paydo bo'ladi.

Xarakter va uning xillari. Xarakter - zARB qilish, belgi, tamg'a ma'nolarini anglatadi. Shaxsning individualligi psixik jarayonning o'tish xususiyatlarida (yaxshi xotira, xayol, zehni o'tkirlik va h.k.) va temperament xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Xarakter – shaxsning muomalada tarkib topadigan va namoyon bo'ladigan barqaror individual xususiyatlari bo'lib, individ uchun tipik xulq-atvor usullarini yuzaga keltiradi.

Xarakter xususiyatlari – e'tiqod, hayotga qarash va shaxs yo'nalishi bilan bir emas. Xarakter tarkib topishida tevarak atrof - muhitga, o'ziga, boshqalarga munosabatda bo'lishi katta ahamiyatga ega. Kishining xarakteri, birinchidan, u boshqa odamlarga qanday munosabat bildirayotganida namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, kishining o'ziga munosabatida - obro'talablik va o'z qadrini xis qilish yoki kamtarlik.Uchinchidan - xarakter kishining ishga munosabatida namoyon bo'ladi (vijdonlilik, ma'suliyat, ishchanlik, jiddiylik). To'rtinchidan - xarakter kishining narsalarga munosabatida namoyon bo'ladi. (Narsalariga, kiyimiga va hokazo).

Xarakter xislatlari ichida eng ustun ko'zga tashlanadigan xususiyatlar majmui xarakter aksentuasiyasini deyiladi. (Surbetlik, molparastlik, vijdonsizlik rostgo'ylik, yolg'onchilik, saxiylik, ochko'zlik, dilkashlik va hokazolar).

Xarakter aksentuasiyasiga qarab odamlarni quyidagicha farqlash mumkin:

introvert tip - odamovi, ichimdagini top, boshqalar bilan til topishga qiyonaladigan tip, ekstrovert tip - his xaya jonga berilganlik, ko'p gapiradigan, maqtanchoq, ko'p narsaga beqaror qiziqadigan tip. Boshqarib bo'lmaydigan tip – oraliq tip (ambovert), gayritabiyy, sun'iy qiliklar, e'tirozlarga murosasizlik, ba'zan o'rinsiz shubhalanish bilan qarash. o'z salbiy qiliklarini bila turib davom ettirish - xudbinlikning oliy shaqli.

Xarakterning ekstrovert va introvert tiplarini fanda Karl Gustav Yung ajratgan.

Qobiliyat va uning xillari. Qobiliyatlar kishining shunday psixologik xususiyatlaridirki, bilim, ko'nikma, malakalar orttirish shu xususiyatlarga bog'liq bo'ladi. Shu xususiyatlar mazkur bilim, ko'nikma va malakalarga taalluqli bo'ladi. Malakalar, ko'nikma va bilimlarga nisbatan qobiliyatları qandaydir imkoniyat sifatida namoyon bo'ladi. Qobiliyatlar bilim, malaka va ko'nikmalarning o'zida ko'rinxaydi, balki ularni egallash dinamikasida namoyon bo'ldi. Qobiliyat

strukturasi konkret faoliyat turi bilan belgilanadi. Bir faoliyatga bir necha qobiliyat kirishi mumkin. Masalan, pedagogik faoliyatga pedagog odobi, kuzatuvchanlik, bolani sevish, talabchanlik va hokazolar kiradi. Shulardan biri yetakchi, qolganlari yordamchi fazilatlar bo'lishi mumkin. Kishi qobiliyati uning yordamchi, qo'shimcha fazilatlariga bog'liq yoki shunday deb qaralishi mumkin. Masalan, bir odam o'z ishini puxta, mazmunli uddalaydi, lekin artistlik, notiqlik, san'atini yaxshi egallamagani (ya'ni, yordamchi fazilatga ega emasligi) uchun o'zini ko'rsata olmaydi, ikkinchi bir odam ishni shunchaki uddalasa ham uni ko'z-ko'z qila oladi, o'zini iste'dod egasi qilib ko'rsata oladi.

Odamlarni qobiliyatiga qarab tiplarga ajratish muammosi juda murakkab. Birida maxsus, birida umumiy sifat ustunlik qilishi mumkin. I. P. Pavlov qobiliyatga qarab odamlarni 3 tipga bo'ladi: «Fikrlovchi tip», «Badiiy tip», «O'rtacha tip». Bunda odamdagи ikki signal tizimi nisbatini hisobga oladi. Badiiy tip uchun bevosita ta'surot, jonli tasavvur, emosiya ta'sirida paydo bo'ladigan obrazlar yorqinligi xosdir. Fikrlovchi tip uchun mavhumlik, mantiqiy tuzilmalar, nazariy mulohazalar ustunligi xosdir. Qobiliyatlar taraqqiyotining yuksak bosqichi iste'dod deb ataladi. Iste'dod bu kishiga qandaydir murakkab mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli, mustaqil va original tarzda bajarish imkonini beradigan qobiliyatlar majmuasidir. Iste'dodlarning uyg'onishi ijtimoiy shart-sharoitlarga bog'liqdir. Masalan, bozor iqtisodiyoti «hammani tijoratchi qilib yubormoqda».

Alovida olingan, yakka qobiliyatni garchi u taraqqiyotning juda yuksak darajasiga erishgan va yorqin ifodalangan bo'lsa ham iste'dod bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Xotira, aqlning epchilligi, qo'llash ko'laming kengligi iste'dodga yo'l ochadi. Bu singari sifatlarni mashhur odamlar faoliyati misolida ko'ramiz.

Yosh davrlari klassifikasiyasi va yosh inqirozlari

Yosh davrlari muammosini o'rganish ko'pgina oimlarni qiziqtirib kelgan muammolardandir. L.S.Vigotskiy birinchilardan bo'lib shaxs ontogenetikrivojlanishini davrlashtirishda tarixiylik tamoyiliga amal qilishlozimligini ta'kidlagan. Uning fikricha, bolalik – bu murakkab ijtimoiy madaniy hodisa bo'lib, tabiatan tarixiy kelib chiqish xarakteriga ega.

L.S.Vigotskiy inson umrini davrlashtirishda yosh inqirozlarini asos qilib olgan va quyidagi bosqichlarga bo'lgan:

- tug'ilgandagi inqiroz
- bir yosh inqirozi
- uch yosh inqirozi
- 7 yosh inqirozi
- 13 yosh inqirozi
- 17 yosh inqirozi.

E.Eriksonning psixosotsial davrlashtirish bosqichlarida ma'lum bir xislarga asoslanilgan va ular quyidagilar:

1. Go'daklik davri (tug'ilgandan 1 yoshgacha): ishonch/ishonchsizlik. Bu xislardan ona mehri va g'amxo'rligining qay darajadaligi bilan bog'liq. Agar oilada emosional diskommfort kuzatilsa bolada ishonchsizlik hissi ustunlik qila boshlaydi.

2. Ilk bolalik (1-3 yosh): avtonomiya/uyat va shubha. Bola jamiyatda qabul qilingan normalarga duch kela boshlashi natijasida unda “Men qila olaman”, “Men o’zim” yoki uning aksi bo’lgan kechinmalar yuzaga kela boshlaydi.

3.O’yin davri (3-6 yosh): tashabbuskorlik/aybdorlik. Bola rolli o’yinlar orqali ijtimoiy tajribani o’zlashtira boshlaydilar. O’yin jarayonini tashkil etishda bolaning tashabbusini kattalar tomonidan qo’llab-quvvatlanishi yoxud qattiq tanqid qilinishi mazkur xislarni shakllanishiga olib keladi.

4. Maktab yoshi (7-12 yosh): mehnatsevarlik/noto’liqlik. Ta’lim va o’z ustida ishslash yetakchilik qiladi. Tengdoshlari orasidagi mavqyei va shaxslararo munosabatlari uning shaklanishiga o’z ta’sirini o’tkazadi.

5. O’spirinlik (12-13 yoshdan 19-20 yoshgacha): ego-identifikatsiya / rollar almashinushi. Bu davr “Men kimman?”, “Men qayerga ketyapman?”, “Kim bo’lishni istayman?” kabi savollarga birin-ketin javob izlashni boshlaydi va qadriyatlar tizimi shakllanadi.

6. Yoshlik (20-25 yosh): yaqinlikka intilish / izolyasiya. Bu davr kasbiyfaoliyat va oilaviy hayotning boshlanishi bilan xarakterlanadi.

7. Yetuklik (26-64 yosh): samaradorlik / inertlik. Ijtimoiy hayot tarzi, kattalarga g’amxo’rlik, oilaviy turmush, kasbiy muvaffaqiyat kabilar bilan belgilanadi.

8. Keksalik (65 yoshdan yuqori): yaxlit ego / ko’ngil qolishi. Nafaqaga chiqish inqirozi va yaqin kishisini yo’qotish kabilar bilan belgilanadi.

Chaqaloqning yangi sharoitda yashashini ta’minlovchi asosiy omil tug’ilishda unda vujudga kelgan tabiiy mexanizmlardir. U tashqi sharoit va muhitga moslashish imkonini beradigan, nisbatan yetilgan nerv sistemasi bilan tug’iladi. Tug’ilganidan boshlab mazkur reflekslar organizmda qon aylanishi, nafas olish hamda nafas chiqarishni ta’minlaydi.

Birinchi kundanoq kuchli qo’zg’atuvchilarga nisbatan ko’zni qisish, pirpiratish, uning qorachig’ini kengaytirish yoki toraytirish mexanizmlari ishlay boshlaydi. Bu reflekslarni himoya reflekslari deyiladi.

Chaqaloqda himoya reflekslaridan tashqari, qo’zg’atuvchilar bilan aloqa o’rnatishga xizmat qiladigan reflekslar ham bo’ladi. Bularni oriyentir reflekslari deb ataladi. Chaqaloqlarni kuzatishlarda ikki uch kunlik bola xonaga quyosh nuri tushishi bilan boshin yorug’lik tomonga burishi, chaqaloq xonaga asta kirib kelayotgan nur manbaini ham sezishi yaqqol ko’rindi.

Yuqorida aytilgan reflekslardan tashqari, bolada bolada bir necha tug’ma tabiiy reflekslar ham uchraydi; emish refleksi og’ziga tushgan narsani so’rishga o’z ifodasini topsa qo’l kaftiga biror narsaning tegishi ushslash, chang solish reaktsiyasini vujudga keltiradi. o’zidan narsani itarish, uzoqlashtirish refleksi mavjudligini kursatadi va bu hol tovonga qandaydir jism tegishi bilan uni o’zidan uzoqlashtirishda namoyon bo’ladi.

Psixolog V.S.Muxinaning fikricha, chaqaloqda tug’ilshiga qadar ham shartsiz reflekslar bo’lishi, unga homilalik paytidayoq o’z qo’lini so’rish imkonini yaratadi.

Tug’ilgan chaqaloqning vazni tez kamaya boradi. Buning sababi undan suyuqlik moddasining chiqib ketishi, vaznsizlik holatian atmosfera bosimiga, quyosh

nuriga, turli xususiyatli moddalar ta'siriga, o'zgaruvchan havo haroratiga moslashish davrida ko'p kuch-quvvat sarflanishidir. Bu davrning kechishida chaqaloqlarning ham individual, sham jismoniy tafovutlari ko'zga tashlanadi. Oradan ko'p vaqt o'tmay chaqaloq vaznnining kamayishi tabiiy ravishda to'xtaydi va uning yangi muhitga moslashishi boshlanadi. Kindik tushish davri organizmda keskin o'zgarishlar yuz berish pallasi hisoblanib, murg'ak organning mustaqil yashayotganidan dalolat beradi. Chaqaloqning oldingi vazniga yetish davri hayotining birinchi o'n kunligiga to'g'ri keladi.

Chaqaloq organizmining anatomik- fiziologik, morfologik tuzilish bo'yicha, boshqa yoshdagi odamlarnikidan farqi ham rivojlangani, zaifligi, ish qobiliyatining kuchsizligidir. Uning suyak sistemasi Ye, pay-muskullari va tog'ay to'qimalarining o'sishi katta yoshdagi kishilarnikidan ham sur'at, ham sifat jihatidan farqlanadi. Chaqaloqdagi muskullarning takomillashishi harakat negizini vujudga keltiradi; shu birga har bir biologik organning mutaqil harakati va faoliyatini ta'minlashga xizmat qiladi. Bolada bo'yin muskullarining o'sishi bo'ynini tutishga olib kelsa, tana muskullarining rivojlanishi kattalar yordamida ag'anash imkonini, qo'l va oyoq muskullarining yetilishi esa jismoniy harakat qilish, jismlarga qo'l cho'zish uchun sharoit yaratadi.

Chaqaloqning anotamik-fiziologik tuzilishini tahlil qilsak, uning suyak sisitemasida ohak moddasi va har xil tuzlar yetishmasligining guvohi bo'lamiz. Shu sababli suyak funktsiyasini ko'proq tog'ay to'qimalari bajaradi. Bosh suyaklari bolalarning ikki oyligida o'zaro qo'shilib ketadi. Bosh suyakning peshona va tepe qismlari o'rtasida liqildoq deb ataladigan qalin parda va teri bilan qoplangan oraliq mavjud bo'ladi. U bola bir yoshdan oshganidan keyin suyak bilan qoplanib boradi, lekin u haqiqiy suyak bo'lmaydi.

Chaqaloq nerv sistemasining yuksak darajada rivojlangan qismi, ya'ni bosh miya katta yarim sharlari tashqi ko'rinishi bilan katta odamnikiga aynan o'xshasa ham, aslida undan ko'p farq qiladi. Odamlarni o'zaro qiyoslasak, ajoyib manzarani ko'ramiz: miyaning og'irligi chaqaloq tanasining sakkimzdan bir va katta odamlarda esa qirqdan bir qismini tashkil etadi. Chaqaloqlarda bosh gavdaga nisbatan kattaroq ko'rinsada, u hali juda bo'sh, mukammallashmagan bo'ladi. Ularning organizmi jadal sur'at bilan o'sish davridan o'tadi. Bu davrda chaqaloqning og'irligi 3-5 kg bo'lishiga qaramay, miyasining og'irligi 300-350 grammni tashkil qiladi, xolos. Chaqaloqning miyasi xujayralarining miqdori, "ariq"chalarning yaqqol ko'zga tashlanmasligi, nerv xujayralri tarmog'i jihatidan katta odamlarning miyasidan farq qiladi.

Yuqorida fikrlarni isbotlashda harakat qilgan psixolog Ye.A.Arkinning ta'kidlashicha, -bola tug'ilishga harakat qilayotgan paytida uning miyasini bir xil kulrang massa tashkil etadi, uning nerv tolalarida mislin qobig'i bo'lmaydi.

Chaqaloq boshqa yosh davridagi odamlarga qaraganda kuchsiz, zaif, ojiz ko'rinsa-da, ba'zi jihatlari bilan kattalardan ustunlik qiladi. Ye.A.Arkinning fikricha, chaqaloqlik davrining kuchli jihatlari ko'pincha uning o'sish quvvatida o'z ifodasini topadi. U har oyda ikki sm dan o'sadi, uning og'irlig har kuni 1,6-2 grammdan ortib boradi. Uning shiddatli sur'at bilan o'sishi ko'proq individning vegetativ nerv sistemasi, ichki sekretsiya (buqoq, qalqon osti va usti) bezlarining faoliyatiga bevosita bog'liqidir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ichki sekretsiya bezlari ishlab

chiqargan maxsus gormonlar qonga so'rilib, organizmning jismoniy o'sishini belgilaydi. Chaqaloqning g'oyat jadal sur'atlar bilan o'sishi shu davrning o'ziga xos xususiyati bo'lib, uning o'ishiga ta'sir etuvchi omillar ovqat, sof havo, quyosh nuri, nafas olish, parvarish va hokazolar.

Odatda chaqaloqning nerv faoliyati shartsiz va shartli reflekslar ta'sirida vujudga keladi. Shartsiz tug'ma reflekslar bolaning tug'ilishi arafasida yetarli darajada yetilishi sababli unda qon aylanish, nafas olish, ovqat hazm qilish, siyidik chiqarish singari eng muhim vegetativ funktsiyalar amalga oshadi. Masalan qorni och chaqaloqlar labiga biror narsa tegishi bilan unda emish harakati vujudga kelib, so'laklari oqa boshlaydi. Bu ovqatlanishning shartsiz refleksi deyiladi.

Bolada taassurot olish ehtiqli paydo bo'lishi bilanoq, oriyentir refleksi bilan aloqa o'rnatadi, hissiy ilish organlarining tayyorlik darajasiga muvofiq mavjud ma'lumotlarni qabul qiladi va shu jarayonda o'zini ham rivojlantiradi. Chaqaloqning ko'rvuva eshituv apparati dastlabki kundanoq ishga tushsa ham, ular hali yetilmagan bo'ladi. Shu sababli ko'rish sezgisini yorug'lik, eshitish sezgisini esa qattiq tovush vujudga keltiradi. Bola harakatdagi jismlarni kuzatishga intilsa ham, aslida qimirlamay turgan narsalarga ko'proq diqqatini to'playdi. Uning ruhiy dunyosida ko'rvuva eshituv apparatlariga mos ravishda diqqatning muayyan obyektga to'planishi jarayoni asta-sekin vujudga keladi.

Chaqaloqning sezgi organlari uning harakatiga qaraganda durustroq rivojlangan bo'ladi. Masalan, chaqaloq achchiqni shirindan, issiqni sovuqdan, ho'lni quruqdan farqlay oladi. Uning hid bilish organlari juda zaif bo'lishiga qaramay, burniga yoqimsiz hidli modda yaqinlashtirilsa, bezovtalanadi. Bola teri tuyush, haroratni his qilish, sezish, og'irlilikni faxmlash, ta'm bilish sezgilari ham yetarli darajada rivojlangan bo'ladi.

Chaqaloqda jismlarni, odamlarni, atrof-muhitni kattalar kabi yaxlit va aniq idrok qilish imkoniyati bo'lmaydi. Chunki idrok qilish insonning boshqa psixik jarayonlari (xotira, tasavvur, tafakkur), ruhiy holatlari (his-tuyg'u, o'ng'aysizlanish) va o'ziga xos tipologik xususiyatlari bilan uzviy bog'liqlikda amalga oshadi. Shuning uchun chaqaloqda mazkur imkoniyat o'ta cheklangan bo'lib, sezgi organlari oddiy aks ettirish imkoniyatiga ega.

Yangi tug'ilgan bolada kuchli yorug'likni aks ettirish imkonni bo'ladi va u yorug'likdan turli darajada va shaklda ta'sirlanadi, hatto, ko'zlarini yumib oladi. Ko'rish mexanizmlari hali o'sib ulgurmagani sababli tinch holatdagi yoki harakatdagi jismni idrok qila olmaydi. Goho o'n kunlik chaqaloq harakatdagi jismga nigoh tashlagandek ko'rinsa-da, aslida unga bir necha sekund termilishdan nari o'tmaydi.

Chaqaloqda eshitish sezgisi zaif rivojlangan bo'lsa ham, u hali o'zi eshitishga moslashmagan kuchli qo'zg'atuvchilarni (tovush, qichqiriqni) aks ettira oladi, biroq tovush kelayotgan obyektni aniq topa olmaydi.

Ko'rish va eshitish organlarining muayyan obyektga yo'nalishi oyoq-qo'l va boshning harakatida, bolaning yig'lashdan to'xtashiga ko'rindi.

N.L.Figurin va M.P.Denisovning ia'kidlashicha, bolaning bir oylikkacha davridagi tetiklik holati (uyg'oqligi) ko'rish va eshitishga yo'nalgan shartsiz reflekslar tufayli faollashib boradi; tovush ta'siriga berilish 2-3 haftalikda vujudga keladi. Shuning uchun bola surnay sadosiga qulq soladi va yig'idan yoki harakatdan

to'xtaydi. Bir oylik bo'lgach unda oriyentir refleksi namoyon bo'ladi. (I.P.Pavlov). Shu sababdan chaqaloq gaplashayotgan odamga tikiladi va ixtiyorsiz hatti harakatdan o'zini tiyib turadi.

Bola obyektni ko'rish va tovushni eshitish uchun diqqatini to'playdigan bo'lgach harakatining faollashuvida ancha o'zgarishlar ro'y beradi. Odatda uning harakati ixtiyorsiz va tartibsiz ravishda amalga oshib, jismlarga ko'z yugurtirish, boshini burish bilan tugasa ham, harakat hodisasi vazifasini bajaradi: o'zida hulqining sodda ko'rinishini ifodalab, bolani voqyelik, tashqi olam bilan uzviy bog'laydi.

D.B.Elkonin fikricha, chaqaloq hayotininng uchinchi haftasida onaning emizishdagi holatiga moslashish bilan bog'liq birinchi tabiiy shartli refleks vujudga keladi va keyinchalik esa ba'zi qo'zg'atuvchilarga javob tariqasida alohida shartli reflekslar ham paydo bo'ladi.

His-tuyg'uning o'sishi (jonlanish).

Chaqaloqning hayoti qichqiriq sadosi bilan boshlanadi va bu ko'pincha shartsiz reflektor xususiyatidan kelib chiqadi. Dastlabki qichqiriq tovush orlag'i qisilishining bevosita mahsuli sifatida, organizmning tabiiy ehtiyoji natijasida vujudga keladi. Qisilish avval nafas olish refleksini ham boshqaradi. Shunga qaramay, mutaxxassis olimlarning fikricha, birinchi qichqiriq noxush his-tuyg'uning namoyon bo'lishidir. Qisilish tanglik (zo'riqish) tuyg'usining vujudga kelishidir. Shuning uchun chaqaloqdagi muskul reaktsiyasi bilan emotsiyal munosabatni farqlash ancha qiyin. Qichqiriq noxush kechinma va sezgilarga javob tariqasida vujudga kelib, issiqqa, ochlikka va namlikka qarshilik vazifasini bajaradi. Chaqaloqni to'g'ri tarbiyalash jarayonida qichqiriq emotsiyal kechinmalarning yana bir turi yig'lashga aylanadi. Yig'lash bola jismniy og'riqni, ruhiy qayg'uni, iztirobni tabiiy aks ettirishining manbai bo'ladi, tashqi olam bilan aloqa o'rnatishning eng zarur vositasi sifatida chaqaloqning hayot faoliyatida alohida ahamiyat kasb etadi. U noxush tuyg'ularnigina aks ettirib qolmay, tabiiy ehtiyojzlarni qondirish mexanizmi sifatida xizmat qilishi mumkin.

Bola bir oyga to'lgach o'zini parvarish qilayotgan odamga initiladigan, talpinadigan bo'ladi va buning misoli tariqasida uning kishilar orasida "o'z" kishisini tanishi va ajratishin aytish mumkin.

Mazkur psixolog holatni N.L.Figurin va M.P. Denisovalar "jonlanish" deb ataganlar. Bu davrda, bolaning psixik dunyosida tetiklik, his-tuyg'usida esa atrof-muhitdan ta'sirlanisho'z aksini topadi. Ularning fikricha, bolaning katta yoshdag'i odamlarga o'z munosabatini bildirishi uning bundan keyingi o'sishini belgilovchi bosqich vazifasini o'taydi.

Psixolog Ye.K.Kaverina bolaning tashqi ta'siriga javob bildirishini tadqiq qilib, unda odamning va jismlarga munosabat bir xilligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, insonning aft-angoriga qarab ijobjiy his-tuyg'ular uyg'onishi keyinchalik vujudga keladi. Ta'sirga berilish va ta'sirlanishning mazkur shakli bola bilan kattalar o'rtasidagi aloqaning boshlang'ich ko'rinishi hisoblanadi. Shaxslararo aloqaning bu shakli chaqaloqlik davrining tugashi va ilk bolalikning boshlanishidan dalolat beradi.

Psixolog D.B.Elkonin nazariyasiga ko'ra chaqaloqlik davridan ilk bolalik, go'daklik davriga o'tishning o'ziga xos xususiyatlari mavjuddir. Bular:

Ko'z va quloq yordamida diqqatni muayyan obyektga qaratish (to'plash)ning paydo bo'lishi, bola harakat faoliyatining qayta qurilishi boshlangani, alohida namoyon bo'luvchi harakatning xulq hodisasiga aylanishi.

Sirdan idrok qilinuvchi barcha obyektlarga (subyektlarga) yo'nalgan alohida qo'zg'atuvchiga nisbatan shartli reflekslar hosil bo'lishi.

Katta yoshdagi odamlarga (onasiga va yaqin kishilarga) nisbatan emotsiyal reaktsiyalar (his-tuyg'ular, kechinmalar) yangi ehtiyoj paydo bo'lishining ko'rsatkichi ekanligi.

Bolaning (chaqaloqning) kattalar bilan muloqatda bo'lish ehtiyoji uning keyingi psixik o'sishi negizini tashkil etish va hokazolar.

Go'daklik davrining psixologik xususiyatlari. Go'dak va muloqot.

Go'dakning bir yoshgacha davridagi psixologik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha qator tadqiqotlar mavjud. Shular orasida N.L.Figurin, M.P.Denisova, M.Yu.Kistyakovskaya, A.Vallon, D.B.Elkonin, Ye.A.Arkin, S.Fayans, Sh.Byuler, F.I.Fradkinalarning asarlari alohida ahamiyatga molikdir.

S.Fayans tajribasida go'dakka chiroyli va jozibador o'yinchoqlar 9 sm masofadan ko'rsatilganda u butn vujudi bilan ularga intilgan keyinchalik oraliq 60 sm bo'lganida bolaning intilish, qo'l cho'zishi, sustlashgan va nihoyat ular 100 sm dan ko'rsatilganda bolada intilishi, cho'zilishi, ixtiyorsiz harakati mutlaqo so'ngan. U o'yinchoq bilan bir qatorda turgan katta kishiga ham ana shunday befarq qaragan. Masofa qanchalik qisqarsa, bolaning unga intilishi, qiziqishi shunchalik kuchayib borishini kuzatib borish mumkin.

Yuqoridagi tajriba materiallari asosida, shunday xulosa chiqarish mumkin: kattalr go'dak qatnashayotgan faoliyatni jonlantiradilar. Go'dakni qurshab turgan jismlar borgan sari uning nigohini o'ziga tortib, maftun qilib, qo'zg'atuvchi vazifasini bajarib, bolaning qidirish, mo'ljal olish, chamalash faoliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotchi A.V.Yarmolenko yarim yoshlik go'daklarda jozibali narsalarning o'zaro qiyosiy tasnifini tadqiq qilgan. Mkallif olgan ma'lumotlarga qaraganda, go'dak bexisob jismlar orasida insonni (katta yoshli odamlarni) tobora aniqroq, ravshanroq ajrata boshlagan. Shu bilan birga harakatsiz ko'rvu qo'zg'atuvchisiga diqqatni to'plash 26 sekunddan 37 sekundgacha, harakat qilmayotgan odamga bolaning tikilishi 34 sekunddan 111 sekundgacha, harakatdagi ko'rvu qo'zg'atuvchisiga qarashi, 41 sekunddan 78 sekundgacha, harakatdagi insonga e'tibor berishi 49 sekunddan 186 sekundgacha ortgan. Tajribada go'dakning harakatlanayotgan odamga diqqatni to'plab turishi to'rt marotaba ortgani aniqlangan.

Bizningcha, go'dak jonsiz narsalarga qaraganda odamga diqqatini barqarorroq qaratishi uning kattalarga munosabati o'zgarganidan emas, balki ular bilan aloqaga kirishganda sust ritseptor o'rnini faolroq retseptor egallaganidandir. Go'dakda fazoviy tassavurning boyishida jismlarni idrok qilishdagi farqlashning takomillashuvi muhim vosita hisoblanadi. hayot tajribasi ortib borishi, mashqlar natijasida jismlarning alomat va belgilarni farqlash uquvi paydo bo'ladi.

Frantsuz psixologi Anri Vallon go'dakda ijtimoiy ta'sirlanish ortib borishini atroficha tadqiq qilgan olimdir. Uning tag'kidlashicha, yarim yoshli bolada boshqa odamlardan farqli ravshda javob reaktsiyasi (ta'siri) o'zining yuqori bosqichiga

ko'tariladi. Bola olti oyligida boshqa kishilarning imo-ishorasiz ta'siriga javob berishi (ta'sirlanishi) 50 foizgi tashkil qiladi, yetti oyligida esa aynan shu reaktsiya 20 foizga kamayadi, ammo imo-ishora orqali muloqot 41 foizga ortadi; yetti-sakkiz oylikda boshqa kishilarga talpinishi, tabassum qilish birinchi yarim yillikdagidan to'rt marta ko'pdir.

Yuqoridagi tadqiqotlarning fikr-mulohazalarini umumlashtirsak, qimmatli umumpsixologik fikrlarni muayyan tartibda, izchil joylashtirish mumkin bo'ladi. Birinchidan, mazkur yosh davrida bola bilan uni parvarish qilayotgan kattalar o'rtasida yaqin va nisbatan barqaror aloqa o'rnatiladi. Ikkinchidan, go'dak qatnashadigan har qanday favquloddiy holat va muammoli vaziyatda kattalar markaziy siymoga aylanadilar. Uchinchidan, go'daklik davrining oxirida hamkorlikdagi o'yin faoliyati individual o'yin faoliyatiga aylanadi.

Shunday qilib, go'daklik davrida kattalar bilan faol aloqaga kirishish ehtiyoji tug'iladi va bu aloqa nutq davrigacha muloqotning o'ziga xos yangi shakli sifatida bolaning o'sishida muhim rol o'yynaydi. Bir yoshgacha davrda raydo bo'lgan ehtiyojning tobora chuqurlashuvi bilan nutq davrigacha muloqot cheklanganligining nomutanosibligi bir yoshdagи inqirozi keltirib chiqaradi. Vujudga kelgan qaramaqarshilik o'z yechimini nutq orqali muloqot davrida topadi va bola o'sishning bir bosqichidan ikkinchi bosqichiga o'tayotganinin ifodalaydi. Go'dakning nutq faoliyati takomillashgani sayin muloqotning mazmuni boyib, ko'lami kengayib boradi. Natijada haqiqiy ma'nodagi shaxslararo munosabat vujudga keladi, go'dakning shaxsga aylanishi va ijtimoiylashuviga keng imkoniyatlar yaratadi. Mazkur davrda go'dakning o'sishini ta'minlovchi obyektiv va subyektiv sharoitlar yaratilishi – bolaning faolligi ortishi uchun psixologik negiz bo'ladi.

Harakatning psixologik xususiyatlari va mexanizmlarini qator tajribalar asosida o'rgangan olimlardan D.B.Elkoninning ishonch bilan ta'kidlashicha 2-3 haftalik go'dakda ko'z konvergentsiyasi vujudga kelsa ham, o'z nigohini turli jismlarga qaratib turish jarayoni qiyin kechadi, hayotining 3-5 haftalarida esa uning nigohi oz fursat bo'lsada, muayyan obyektga to'plana boshlaydi. 4-5 haftalik go'dakda 1-1,5 metr naridagi jismlarni kuzatish ko'nikmasi hosil bo'ladi. Ikki oylik bola 2-4 metr uzoqlikdagi narsani kuzatishni o'rganadi, u uch oyligida 4-7 metr oraliqdagi jismlarni ham payqay oladi, nihoyat, 6-10 haftalik go'dak hatto, aylanayotgan predmetning harakatini idrok qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Keyinchalik hissiy organlarining ko'z bilan funksional aloqalar o'rnatish qaror topadi. Go'dak to'rt oyligida uning jismga tikilish va uni tomosha qilishi nisbatan barqaror bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlarga qaramay, mazkur yoshdagи bolalarda qo'l harakati hali beixtiyor xususiyatga ega bo'lib, jismlarna maqsadga muvofiq harakatlantirishdan ancha uzoqdir. Go'dak 4 oyligidan boshlab narsaga qo'lini yo'naltiradi, asta-sekin unda payraslash uquvi namoyon bo'la boshlaydi. 5-6 oyligida predmetni ushslash va uni o'ziga tortib olish (qo'ldan yulib olish) ko'nikmalari shakllanadi. harakat va teri tuyush organlari sifatida qo'sh vazifani o'tovchi ko'rish qobiliyati bir maromda rivojlanishdan bir muncha kechikadi. Bola 6 oyligida unda o'tirish, turish, emaklash, yurish, gapirish ko'nikmalari shakllanadi.

Qo'l ushslash harakatining vujudga kelishi ham go'daklik davrining muhim rivojlanish pallasi hisoblanadi. Chunki qo'l bilan ushslash harakati, birinchidan ko'rish

harakatini muvofiqlashtirsa, ikkinchidan, mazkur psixologik holat birinchi yo'naltirilgan harakatni ifodalaydi, uchinchidan, jismlarni ishslashga intilishning o'zi predmet bilan turli harakatlarni bajarish (manipulyatsiya)ning eng qulay shartidir.

Tadqiqotchilaricha, "yangilik" alomati bola uchun muhim ahamiyat kasb etgani sababli unda oriyentir refleksi borgan sari faollashib borgan. Shuning uchun "yangi" lik alomatining qo'zg'atuvchilik xususiyati bolaning faoliyatida uchraydigan takroriy va uzlucksiz harakat mexanizmlarini tushinishga, idrok qilinayotgan narsalarga faol ko'z yogurtirish va predmet bilan turli harakatlarni bajarishning psixolgik mohiyatini ochishga xizmat qiladi.

R.Ya.Abramovich – Lextman go'dakning bir yoshgacha davrida predmetlar bilan harakat qilishini o'rganib, ularning oltita rivojlanish bosqichidan iborat ekanligini aytadi. Bular: a) faol sergaklik (tetiklik)-2 haftalikdan 4-5 haftalikkacha; b) sensor faollik-1,5 oylikdan 2,5-3 oylikkacha; v) harakatoldi-2,5-3 oylikdan 4-4,5 oylikkacha; g) sodda "sermahsul" harakat –4 oylikdan 7 oygacha; d) o'zaro bog'langan (uyg'un) harakat-7 oylikdan 10 oylikkacha; ye) funetsional harakat –10-11 oylikdan 12-13 oylikkacha davom etadi. Muallif har bir bosqichining o'ziga xos xususiyatlarini ham sxematik, ham tekstual tarzda ifodalagan.

Bir yoshgacha bolalarda ta'sirlanishning eng muhim jihatlari paydo bo'lishi va shakllanishi jarayonining rivojlanishi sxemasini N.L.Figurin va M.P.Denisova tuzdilar. Buning uchun ular ta'sirlanishning 34 ta ko'rinishini tanlab: ta'sirlanish mavjud emasligi, ta'sirlanish namoyon bo'lishi, uzil-kesil ta'sirlanish shakllanishi bosqichlarida psixologik tavsif bergenlar.

Predmetning xususiyatiga qarab bola harakatidagi o'zgarishlarni M.Yu.Kistyakovskaya, D.B.Elkonin, Ye.A.Arkin, V.S.Muxina, N.A.Menchinskaya va boshqalar, reptseptor faoliyat mexanizmlarni I.P.Pavlov va uning shogirdlari F.R.Dunayevskiy va boshqalar o'rganishgan. Ularning talqinicha, emaklashgo'dakning fazoda mustaqil holda o'rinni almashdirishi, harakat qilishning dastlabki ko'rinishidir. Mustaqil yurish – go'dakning insonlarga xos yo'sinda fazoda siljish, joyidan qo'zg'alishni amalga oshirish uchun muayyan darajada tayyorgarlikni taqozo qiluvchi harakatlarining yangi ko'rinishidir.

Shunday qilib, go'dakning jismlar bilan bevosa amaliy aloqaga kirishuvi va ular yordamida harakatlanishi narsalarning yangi xossa va xususiyatlarini bilib borishi, ular bilan munosabatini yanada kengaytirishi uchun imkon yaratadi.

Go'dakda muloqot ko'laming kengayishi va nutqning vujudga kelishi.

Oldingi sahifalarda bayon qilinganidek, go'dakning kattalar bilan uzviy bog'liqligi majburiy muloqotga kirishishni taqozo qiladi. Shaxslararo aloqa o'rnatish zarurati bolada noverbal, nutqsiz muloqotning maxsus shakli paydo bo'lishiga olib keladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, organizmning tashqi va ichki qo'zg'atuvchilariga javobi "jonlanish"ni keltirib chiqaradi. Muloqotning eng oddiy ko'rinishlari keyinchalik boshqa murakkabroq ko'rinishlarining vujudga kelishiga puxta zamin yaratadi.

Katta yoshli kishilar tovushiga taqlid qilib, go'dakni qurshab turgan odamlar nutqini idrok qilinishi tom ma'nodagi nutq faoliyatini tarkib toptiradi. Muloqotning so'nggi turlari go'dak hayotining ikkinchi yarim yilda ko'zga tashlanadi. Uning o'zini parvarishlayotgan, odamlarga ilk tabassum, quvonch va shodlik tuyg'usi bilan

boqishi faqat xush kechinmalaridan emas, balki ichki mexanizmlarini ifodalovchi, muayyan darajada tashkil topgan ijobiylari ta'sirlanishni aks ettiruvchi muloqotdan ham iboratdir. Katta yoshli odamlardan ta'sirlanish his-tuyg'usi go'dakning hayoti va faoliyatida bir necha yo'nalishda qaror topib boradi. Ulardan bittasi quvonch yoki tabassum tuyg'usida: kattalarga butun vujudi bilan talpinishi, tikilib turishi, harakatlarini kuzatishi, qo'lini uzatishi, boshini qo'zg'atuvchi kelgan tomonga burishi, o'ziga xos tovushlar chiqarishi yoki gugulashida yaqqol ko'rindi. Ta'sirlanish his-tuyg'usi "jonlanish majmuasi" bilangina emas, balki uning alohida tarkibiy qismlari (tovush, chehra va hokazolar) ta'sirida ham vujudga keladi. Ta'sirlanish tuyg'usi keyinchalik tanlovchanlik xususiyatini kasb etib, faqat ayrim (yaqin, tug'ishgan) kishilarga nisbatangina hosi bo'ladi.

Bolaning hamkorlikdagi (ota-on, enaga, murabbiya yoki tug'ishganlari ishtrokidagi) o'yin faoliyati ham, his-tuyg'uga berilishi ham nutq va nutq faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Olima G.L.Rozengart-Pupko bolaning nutqni tushinishi (idrok qilishi) jarayonini o'rganib, ko'ruv idroki va predmetlarga ko'z yugurtirish, ularning nomlarini tushinish rivojlanishiga yordam beradi, deya xulosa chiqaradi. Tadqiqotchilardan Z.I.Barabanova go'dakning nutqni idrok qilishini tekshirib, undagi turli analizatorlarning roliga baho beradi. Uning ma'lumotlariga qaraganda, g'o'zqatuvchi 10 marta namoyon bo'lishida ko'ruv analizatorlarining yo'nalishi 86 foiz bolaga saqlangan, eshituv analizatorining esa 60 foiz sinaluvchilarga yo'qola boshlagan. Qo'zg'atuvchining 20 marta ta'sir ko'rsatishi natijasida ko'ruv analizatorini ta'sirlanish oriyentirovkasi 18 foiz bolada so'ngan, eshituv analizatori xuddi shu paytda umuman batamom so'nib bo'lgan.

D.B.Elkonin xulosasiga ko'ra, nutqni tushinish vujudga kelishining asosiy shartalri quyidagilardan iborat: a) umumiyligi holatdagi predmetni ajrata olish; b) predmet diqqat e'tiborini to'plash; v) favqulodda holatga qarab anglanadigan his-tuyg'uning mavjudligi va boshqalar.

O'zgalar nutqini tushinish ko'ruv idrokining zamirida vujudga keladi. Bolani o'zgalar nutqini tushinishga o'rgatishda katta odamlar biror o'yinchoqdan ta'sirlanishi hosil qiladigan qo'zg'atuvchini uyg'otadi.

Nutqni idrok qilish va tushunishning oxirgi bosqichi go'dakning 9-10 oyligidan boshlanadi va uni o'zgalarnutqini tushunishning ilk shakli va ko'rinishi deb ataladi.

Tadqiqotchi F.I.Fradkina kattalarning go'dakka qaratilgan nutqidan quyidagi ta'sirlanish holatlarini ko'rish mumkinligin aniqlagan: 1) nomi aytilgan prkdmegta javob tariqasida burilib qarash (7-8 oylikdan); 2) turmush tajribasiga egallangan harakatlarni kattalar eslatishi bilanoq bajarishga intilish (7-8 oylikda); 3) kattalarning nutq orqali ko'rsatmasi bo'yicha oddiy topshiriqlarni bajarish (9-10 oylikda); 4) nutq orqali ko'rsatma bo'yicha zarur predmetni tanlab olish. (10-11 oylikda); 5) "Mumkin emas" degan taqiqlovchi so'z ta'sirida harakatini to'xtatish (12 oylikda) va hokazo.

Go'dakda o'zgalar nutqini idrok qilish va unga javob berishga intilish, xususan qo'zg'atuvchiga javoban u yoki bu harakatni amalga oshirish murakkablashib boraveradi. Bular uning aqliy imkoniyatlari darajasiga (tiyrakligiga, topqirligiga) bevosita bog'liq bo'lib, bola ulardan ta'sirlanish natijasida narsalarga nigoh tashlaydi, uni ushlab olish uchun qo'l cho'zadi, unga emaklab boradi. Tushunish vujudga

kelayotgan jarayonda favqulodda holatga qarab ta'sirlanishning o'zi ham murakkablashib boradi. Dastlab ta'sirlanish biror jismga nisbatan paydo bo'ladi, keyinchalik biror jismni boshqa obyektlar bilan yonma-yon turgan joyidan tanlab olish birmuncha qiyinchilik bilan ko'chadi. Tushunishning rivojlanish bosqichlari ko'ruv idroki bilan nutq o'rtasidagi o'ziga xos munosabat tariqasida namoyon bo'ladi. Shuning uchun tushunish, ya'ni nutqni idrok qilish go'dakni oriyentirlash faoliyati negizida vujudga kelib, ko'ruv oriyentiri shaklida ifodalanadi. Tushunishning o'zi ham ko'ruv oriyentirning o'sishidan yangi bosqich hisoblanib, harakatning so'z bilan boshqaruv bosqichiga ko'chganligini bildiradi.

D.B.Elkonin fikricha, bir yoshgacha bola psixikasi o'sishining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: 1) kattalar nutqini tushunish hamda, dastlabki so'zlarni mutaqil talaffuz qilish; 2) predmetlar bilan xilma-xil harakatlarni uyg'unlashtirib, ish-harakatini bajarish; 3) yurishga urinishning ro'y berishi; 4) xatti-harakatni so'z bilan boshqara olish; 5) so'z bilan go'dakning idrok qilish faoliyatini boshqarish va hokazolar.

Shunday qilib, bir yoshgacha go'dak egallagan eng qimmatli xususiyat paydo bo'ladi va u boladagi ijtimoiy ehtiyojning vujudga kelishida va uning shu ehtiyoj orqali katta yoshdagi odamlar bilan bevosita muloqotga kirishida o'z ifodasini topadi. Shuning uchun jismlar bilan maqsadga muvofiq xatti-harakatlarni birgalikda amalga oshirishda, bilish jarayonlari va shakllari zamirida muloqotga ehtiyoj tug'iladi. Go'dakning o'sishi kattalar bilan muloqotga kirishish natijasida ro'y beradi.

Ilk bolalik davridagi psixik o'sish

Inson ontogenezida uning 1 yoshdan 3 yoshgacha o'sish davri alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu davrda inson zotiga xos eng muhim sifatlar, xarakter hislati, atrof-muhitga, o'zgalarga munosabat, xulq-atvor, tafakkur va ong kabi psixik aks ettirishning turli ko'rinishlari shakllanadi. Bularning barchasi qarama-qarshiliklar kurashi ostida tarkib topadi.

Bolaning yurishga urinishi, turli narsalar bilan ovunishi va mashg'ul bo'lish imkoniyatlari kengayishi, uning kattalarga bevosita tobelligi, ularga bog'liqligi nisbatan kamayishiga olib keladi. Binobarin, uning mustaqil harakat qilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

R.Ya.Abramovich-Lextmanning tadqiqotlarida ifodalanishicha, bir yoshli va bir yoshu ikki oylik bolada turli narsalr bilan harakat qilishning oddiy turi jadal rivojlanadi. Boshqacha aytganda, unda jismlar bilan muayyan harakatni amalga oshirishning nisbatan barqaror usullari shakllana boradi. Shunday harakatlar tobora ortadi va murakkablashadi, ularning mohiyati borgan sari chuqurlashadi.

D.B.Elkonin fikricha, bolalarda keng ko'lamli va ko'p miqdordagi predmetlarni tanish, idrok qilish, ularning xususiyatlarini o'zgartirish ehtiyojining ortishi katta yoshdagi odamlar bilan muloqotga kirishishi mayli, tuyg'usi va istagini kuchaytiradi. Shunday bo'lsada, bu muammo bola shaxsiy o'yin faoliyatini tashkil qilishda hali kattalarning madadiga va yordamiga muhtojligini ko'rsatadi.

Bir yoshli va undan sal oshgan bolaning har xil harakatli o'yinlarda muvaffaqiyatsizlikka uchrashi, ko'zlagan ishni bajarishdagi noxush kechinmalar uning ruhiy dunyosida dastlabki jazava (affektiv) tuyg'u va hisni vujudga keltiradi. Shuningdek, o'z faoliyatida uchraydigan ko'ngilsiz voqyealarga shaxsiy

munosabatini bildirish-aks ettirishning yangi shakli ta'sirlanish (reaktsiyaga kirishish) ni tarkib toptiradi.

Achchiqlanish, jahl qo'zg'alishi, qahru g'azab tuyg'ularining xususiyatini taqiq qilgan T. Ye. Konnikova ma'lumotlariga binoan, bir yoshli bolada ko'pincha bezovtalanish, xatti-harakatdagi "portlash", qahri qattiqlik yuzaga keladi. Olimaning fikricha, uning psixikasida paydo bo'layotgan hulq hosilasi tirishqoqlikning o'ziga xos ko'rinishidan iborat bo'lib, u o'zi yoqtirgan narsani tezroq qo'liga olish hoxishi bilan uzviy bog'liqdir.

Odatda, affektiv holatga berilishni yoki affektiv ta'sirlanishni bola kattalar bilan muloqotda psixik jihatdan qoniqmasligi shosil qiladi. Psixologik ma'lkmotlarga ko'ra, "portlash", "lov etish" xususiyatiga ega bo'lgan affektiv quyidagi sabablar bilan vujudga keladi: 1) katta bolani hoxish istaklarini tushunmasligi, imo-ishorasi va yuz-chehra harakatlariga, pantomimikasiga (yuz bilan tana harakatlari qo'shilishi) e'tiborsizligi; 2) bolaning ixtiyorsiz xatti-harakatiga batamom qarshilik ko'rsatishi, shuningdek, uning talabini bajarmasligi; 3) boladagi o'zgarishlarga oid bilimlardan bexabarligi, bu o'zgarishlarni oldindan sezalmasligi va boshqalar.

Jazavaga tushishning xususiyati va darajasi bolaning yashash sharoiti hamda unga kattalarning munosabatida o'z ifodasini topadi va mahalliy mezonlar yormasi bilan aniqlanadi. N. A. Menchinskaya o'z kundaliklarida bir yarim yoshli o'g'lining o'jarligini shunday ta'riflaydi: "Mumkin emas!" taqiqlashga javoban Sasha o'jarlik qilar, sho'xligini yana zo'r berib davom ettirishga urinar edi; uning o'jarona hohishini boshqa boshqa obyektga tortish bilangina bartaraf qilsa bo'lar edi; ko'pincha taqiqlashga qarshi yig'lab injiqlik qilar, hatto, o'zini polga otar, qo'l va oyoqlarini tapillatar, ammo bunday "jazava" uning xulqida juda kam sodir bo'lib, uni bunday sho'xliklaridan tez va oson chalg'itish mumkin edi. . .".

Psixologlardan V.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy va ularning shogirdlari olib borgan ishlardan ko'rindan, bolada paydo bo'lgan dastlabki so'z-ibora go'daklik davridan ilk bolalik davriga o'tishning eng muhim jihatni va sharti hisoblanadi. harakat bilan so'zning bog'lanshi bolaning mustaqillgi va mustaqil faoliyatga amalga oshirish uchun zarur sharoit yaratadi.

Yirik psixologlar V.Shtern, K.Byuler va boshqalarning tadqiqotlarida bayon qilinishicha, bola qo'llaydigan dastlabki so'zlar ikita muhim xususiyatga egadir: birinchi xususiyati ular kattalar nutqidagi so'zlardan fonetik jihatidan keskin farqlanishidir; ikkinchi xususiyati esa o'zining qamrovi bilan ko'p ma'noli egadir. Boshqacha aytganda, mazkur so'zlar, iboralar ma'lum predmetni emas, balki qator narsalarning nomini, hatto, guruhlarini anglatadi.

Yuqoridagi mulohazalarning dalili sifatida T. Ye. Konnikova tajribasidan namuna keltiramiz: Olimaning nuqtai nazaricha, kattalar bilan bolalar muloqotida ishlatiladigan so'zlarning farqlari turli manbaga va asosga bog'liqdir: a) bolalar nutqidagi so'zlar qo'llaniladiki, ular hyech qachon katta odamlarga shunday ma'noni bildirmaydi (adiga-baliq moyi, ika-sharf, gili-giliga-qalam); b) ko'pincha bola nutqidagi so'zlar kattalar so'zlashuvining ma'lum bo'lagini emas, balki uning o'zagini tashkil qiladi, xolos ("is"-issiq", "di"-keldi); v) bolalar kattalar qo'llaydigan so'zlarni buzib talaffuz qilsalarda, lekin predmetning timsoliga asoslanib, ularning umumiy fonetik va ritmik jihatlarini saqlaydilar ("ti-ti"-soat, "pa-pa"-mashina, "ling-

ling” radio, televizor); g) taqlidiy so’zlar (“vov-vov”-it, “mu-mu”-sigir, “ba-ba”-qo’y kabilar).

D.B.Elkonin tajribasida bir yoshu uch oylik Galya uchun “aka” degan tushuncha (sun’iy bo’lsada) ho’l mevalar, konfet, qand, zoldir singari narsalarni anglatadi. T.Ye.Konnikova tajribasida esa xuddi shu yoshdagi Nonna “kx-kx” deganda mushuk, soch, mo’ynani atagan. Bu misollarni psixologik nuqtai nazardan tahlil qilsak, ularda umumpsixologik qonuniyatlari zamirida ona tilining grammatik tuzilishini faol egallash uchun keng imkoniyatlar yotadi. Umuman, dialogik nutq bolaning kattalar bilan hamkorlikdagi faoliyatini ajralmas tarkbiy qismi hisoblanadi.

A.N.Gvozdev ilk bolalik yosh davrida rus tilining grammatik qurilishin o’rganib, uni ikki bosqichga ajratidi. Birinchi bosqich-1yoshu 3 oylikdan 1yoshu 10 oylikkacha. Bu bosqich ham muayyan davrlarni o’z ichiga: a) bir so’zdan tuzilgan gaplar bosqichi(1,3-1,8); b) ikki va undan ortiq so’zdan tuzilgan gaplar. Ikkinsi bosqich-1yoshu 10 oylikdan 3 yoshgacha. Bu bosqich ham bir necha davrlarga ajratiladi: a) sodda va murakkab gaplarning shakllanishi (1,10-2); b) sintaksistik aloqalarni ifodalovchi gaplardan foydalanish (2,1-2,3); v) yordamchi so’zlarni o’zlashtirish bosqichi kabilar.

Psixologik adabiyotlarda ilk bolalik davrida tilning grammatik shakllarini jadal sur’at bilan o’zlashtirish omillari bo’yicha qator muammolar ifodalangan. Masalan, K. Byuller bolani tilni flektiv (turlanish, tuslanish) tabiatini bilan tanishish muammolariga alohida ahamiyat bergen. Uning fikricha, bola mazkur holatni intuitiv ravishda kashf qiladi, bu narsa grammatik aloqalarda, morfologik o’zgarishlarda namoyon bo’ladi.

Bolada tilning grammatik qurilishini o’rganishda bag’ishlangan anchagina tadqiqotlar mavjud. Ularning mualliflari F.A.Soxin, L.S.Slavina, D.B.**Elkonin**, K.I.Chukovskiy, M.I.Popova, G.L.Rozengart-Pupko, A.R.Luriya, F.Ya.Yuduvich, P.Ya.Galperin va boshqalardir.

D.B.Elkonin fikricha, ona tili (rus tili) grammatikasini o’zlashtirish quyidagicha amalga oshadi: a) yaqqol idrok qilinayotgan vaziyat tilning leksik vositasi bilan ifodalanib, obyektiv munosabatni aks ettiradi; b) predmetli vaziyatning grammatik shakli ajratiladi; v) grammatik munosabatlar shaklini bildiruvchilarni umumlashtirish va mavhumlashtirish yuzaga keladi.

Tadqiqotchi N.X.Shvachikin mulohazasiga ko’ra, bolada avval unli harflarni, keyin undosh harflarni farqlash ko’nikmasi vujudga keladi. Go’daklik davrida bola qarashi, eshitishni (quloq solishni) va o’z qul xarakatlarini boshqarishni o’rganadi. U juda aktiv xarakatga kattalar bilan muloqotga kirishish va boshqalar eng katta yutuG’i. Emaklash endi bolaning 1 yoshdan 3 yoshgacha bo’lgan (ilk bolalik) davri boshlanadi. Bu yoshdagi xarakatdagi eng katta yutug’i to’gri va tik yura boshlashi psixikasining rivojlanishini taminlovchi predmetli faoliyatning yo’lga qo’yishi va gaplarni tushunib nutq rivojlanishidir. Yurish vaqtida to’G’ri yurish ularni qoniqtirmaydi. Orqaga ko’zlarini yumib baland pastqam joylardan yurib o’zlar o’zlariga qiyinchilik tuG’diradi va uni yengishga xarakat qiladi. Uyqu vaqt kamaya boradi. 1,5 yoshdan 13,5 soat kechasi va 2 maxal, kunduzi 3 yoshga yetganda 12 soat kechasi va 1 maxal kunduzi uxbaydi. Jismoniy jihatda o’sishi quyidagi ko’rsatkichlar atrofida bo’ladi.

- 1 yashar bo'yi 75 (yiliga 25) vazni 9 (yiliga 6)
- 2 yashar bo'yi 85 (yiliga 10) vazni 12,5 (yiliga 3,5)
- 3 yashar bo'yi 92 (yiliga 7) vazni 14 (yiliga 1,5)

Suyaklar qotishi va o'sishi protsessi davom etadi. 3 yoshga yetganda sut tishlari chiqib bo'ladi. Umurtqasi rivojlanib bola gavdasini ko'taradigan bo'ladi. Ichki organlarda xam o'sadi. O'pka va yurak xarakatlarining aktivligi xisobiga vazn ortib faolligi ortadi. Leykotsit kam bo'lganligi uchun yuqumli kasalliklarga tez beriluvchan bo'ladi.

Nerv sistemasi xam tez taraqqiy etadi. Bu davrda bolalarda qo'zG'alish tormozlanishda ustunlik qiladi. Bolada shartsiz reflektor faoliyatiga endi bosh miya po'sti nazorati ostida yuzaga keladigan xilma-xil xarakatlar bo'ladi. Masalan, issiq choynak. Bu 1 signal sistemasini faoliyati bo'lib, endi 2 signal sistemasi yani nutq so'z orqali xatti xarakatlarni boshqarishda katta rol o'ynaydi. Bu davrda sezgi organlari yaxshi takomillashadi. (yeshitish, tuyg'u, og'riqni sezish) bular psixik taraqqiyot uchun zamin yaratadi.

Idrok va tasavvurni o'sishi. Bolada shartsiz orenterovka refleksi asosida xar narsaga qiziqish va dunyoni bilish ishtiyobi uchun ularda idrok va tasavvur xisobiga bo'ladi. Bu analizator (sezgi organlari) takomilashishi sababli go'dak tevarak atrof haqidagi tarqoq tasavvurlar butun-butun obrazlardan idrokka aylanadi. Yana xarakat ko'paygan sari uning bilish imkoniyati kengayadi. Faqat emaklab yurib qolmasdan zinalardan tushish to'siqlarni aylanib o'tish, stulga chiqish, o'yinchoqlarni mustaqil o'ynash va boshqalar. Tortmalarni sumkalarni titkilab, qiziqib, tekshirib yangiliklarni bilib oladi. Bu bola idroki rivojlanishini ko'rsatadi.

Differentsiallashish (rang katta kich.) idrokda nusxa ko'chirish shakllangan. (rasmda kuchuk kallasi) Soyasini kuzatadi. Bola narsalarning katta kichikligini idrok etishda qiynaladi. Fazani tusmallab idrok qiladi. Vaqtini idrok qilishga juda ko'p tirishadi. Erta-bugun kecha tushunchalarini ishlatischda qiynaladi. Maktab yoshida xam qiynaladi. (ba'zida). Nutq idrok uchun boy materiallari bo'lib, u yordamida tasavur xam shakllana boradi.

Diqqat Bu yoshda bolalarga ixtiyorsiz diqqat xosdir. Rang-barang narsalarga ko'proq e'tibor beradi. Beqaror diqqat (bir o'yinchoqdan ikkinchi o'yinchoqga o'tib ketishi) fiziologik asosi bosh miyada qo'zG'alish tormozlanishiga nisbatan kuchli. Shuning uchun miyada muvozanatga kelish qiyin bo'ladi. BoG'chagacha davr oxirlarida diqqatni barqarorligi 2barobar o'sadi. Bu davrda ixtiyoriy diqqat xali bo'lmaydi.

Xotira. Bu davrda ixtiyorsiz xotira bo'ladi. Bola materiallarni ongli ravishda esda saqlab qololmaydi. Lekin tanish protsesslar esga tushirishga sabab bo'ladi. 2 yoshga yakin uylarni, o'z buyumlarini tanib oladi. Rasmlardan ismlarini aytib beradi. Dastlabki xotiralar paydo bo'ladi. Bolada kuchli kechinma va juda yorqin obraz tug'dirgan narsa uzoq vaqt esda qolishi va esga tushishi mumkin. Bola idrok qilgan narsasini konkret obraz tasavvurlar shaklida esda saqlab qoladi.

Taqlid qilish. Kattalardan nusxa ko'chirish orqali ularning imo ishoralarini o'rganib, shu xarakatlarni takrorlashga intiladi. (Telefonda, chaqaloqqa qarash, kir yuvish supurish sigaret chakish) Ularda mexanik xotira yaxshi o'sgan bo'ladi. 3 yoshga yaqin bolada ertak mazmunlarini xam 4 satrlik she'rlarni xam ordan bir oy

vaqt o'tkazib ayttirilganda yaxshi eslagan. Savol berib uning manosini xam bilishga xarakat qiladi.

Nutq va tafakkur. Sekin so'zlarni tushuna boshlaydi. 1 davr. 1-1,5 yosh 20-30ta so'zni biladi. "oyi" so'zini imo ishoralar bilan aytadi. Bu "situativ nutq vaziyat nutqi" deyiladi. Birga bo'lgan kishisi tushunadi. Bolada lug'atpassiv ravishda rivojlanadi, yani 1 tomonlama faqat tushunib, o'ziga singdirib beradi.

2 davr. Aktiv lug'at rivojlanadi. Nutq egallash protsessi sifati o'zgaradi. Yangi so'zlarni osonlikcha o'rgana boshlaydi.

- 1 yoshda o'rgangan so'z 3ta
- 1,3 yoshda o'rgangan so'z 19-20
- 1,6 yoshda o'rgangan so'z 25-30
- 1,9 yoshda o'rgangan so'z 120
- 2 yoshda o'rgangan so'z 280
- 2,6 yoshda o'rgangan so'z 450
- 3 yoshda o'rgangan so'z 800-900

Bu ko'rsatkichlar turlicha bo'lishi xam mumkin. Ko'proq muloqotda bo'lishning xam tasiri ko'p. Faoliyatni so'raydi. Avval faqat nutqda extiyojlari ifodalangan bo'lsa, endi nutqning kam berish funktsiyasi oshadi. Mano kira boshlaydi. Bu nima? Nima qiladi?. Nutqning rivojlanishi tevarak atrofni bilish uchun vosita bo'lib ifodalanadi. Imo ishora qilib

Tafakkur bolada idrok va ish xarakatlar bilan bevosita boG'langan bo'ladi. Fikarlarni so'zlar bilan tushuntira olmaydilar. Yaqqol konkret tafakkur bo'ladi. 3 yoshga qarab ketganda nutq orqali tafakkurni shakllana boshlaydi. Asosiy fikrlash operatsiyalari oddiy ko'rinishda paydo bo'ladi. Analiz taqqoslash sintez umumlashtirish, sodir bo'la boshlaydi. Tom manoda fikrlash operatsiyalari emas, grammatika rivojlangan sari fikrlarni aniq ayta boshlaydi. Kattalar nutqidagi noto'g'rilikni anglab tez takrorlashga xarakat qiladilar. Bolada tafakkur rivojlanishi undagi qiziquvchanlik va sinchkovlik xususiyatidan kelib chiqadi. Titkilash, bu nima? Savollar berish kattalar ishiga tiqilish va x.k. bola atrofdagi informatsiyalarni kattalarning tushuntiriglari bilan o'zlashtirig yaxshiroq tushunadi. Yuqorida aytilgan operatsiyalarni miyalari ayniqsa solishtirish analiz sintez rivojlanadi. Bolada "qo'l tafakkuri" davri 2 yoshda bo'ladi. Masalan vazani ichidan biror buyumni olish. Endi savollar bu nima? Shaklidan buni nima qiladi? Ko'rinishga yani predmetning funktsiyasini bilishga qaratilgan. Nutq o'sishi tafakkur o'sishi uchun zamin deyilgan edi. Tafakkur rivojlanishi ham o'z navbatida so'z zapaslarini oshishiga olib keladi.

Shunday qilib, yuqorida mulohazalar asosida umumiylar xulosaga kelish maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, ikki yoshga to'lgan bola tilninig barcha tovushlarini fonetik jihatdan idrok qilish asosida nutqni tushinish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ilk bolalik davrida harakatlarning shakllanishi oriyentirovka faoliyati xususiyati o'zgarishi bilan uzviy bog'liqdir. Bola u yoki bu harkatni amalga oshirish uchun avval predmet bilan tanishadi: unga ko'z yugurtiradi, qo'liga oladi va hokazo. Bolaning predmetlarning shakli, rangi, vazni bilan tanishtirshda kattalar amalga oshrish mo'ljallangan harakatning mohiyatini tushuntiradilar va harakatni qay yo'sinda bajarishni o'rgatadilar: Bolani "Olib kel", "Joyiga qo'y", "Rasm chiz",

“Ushlab tur” kabi so’z birikmalaridan iborat topshiriqning mohiyati bilan tanishtirib, keyin unga harakatni bajarish yo’llari (“Qalamni mana bunday ushla”, “Avval qo’lingga ol”, “Oldin o’ng qo’ling bilan tut”, “Qoshiqni bunday ushlab og’zinga olib bor” deb) ko’rsatiladi. Shuning uchun ham bolada predmetli harakatni o’stirish murakkab jarayondir.

Ilk bolalik amaliy harakat tafakkuri vujudga keladigan davr hisoblanib, qo’l qo’l operatsiyalari turli narsalar va qurilmalar bilan almashinadi. Bola ijtimoiy qurollardan foydalanish usullarini o’zlashtirish natijasida unda predmetli harakat ko’nikmasi shakllanadi. Jismlar bilan turli harakatlarni o’zlashtirishda ulardagi muhim va o’zgarmas alomatlarni ajratish ko’nikmasi hosil bo’ladi, natijada umumlashtirish va umumiylar tushunchalarni o’zlashtirish jarayoni ro’y beradi. Yangi sharoitda predmetli harakatdan foydalanish bolaning aqliy o’sishiga ijobiy ta’sir qiladi. o’z xatti-harakatini kattalarning harakati bilan solishtirish va uning o’xshash jihatlarini topish bolaning aqliy o’sishi uchun muhim ahamiyatga ega. Aqliy o’sishi to’g’ri yo’naltirish uchun bola bilan maxsus reja asosida mashg’ulotlar o’tkazish zarur.

Bu davrda bolada “Men o’zim” kontseptsiyasining vujudga kelishi shaxsiy fazilatlar shakllanishiga olib keladi va xuddi paytlarda bola shaxs sifatida tarkib topa boshlaydi. Bolada shaxsiy harakatlar paydo bo’lishi o’sishning yangi davri boshlanganini bildiradi.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarda psixik jarayonlarni rivojlantirish.

Inqiroz davrida bolaning kattalarga qarshilik ko’rsatishi ham turli ko’rinishlarga ega bo’lib, ular o’tkinchi psixologik holat va hodisaga o’xshaydi. Lekin oila va bog’chada qiyinchiliklarni yengish jarayonida bolaning shaxsiga uning o’ziga xos xususiyatlarin hisobga olgan holda to’g’ri va oqilona yondashish uni inqirozdan ruhan mutlaqo sog’lom olib chiqish imkonini yaratadi. Quyida ana shu qarshiliklarning ayrim ko’rinishlari haqida qisqacha to’xtalamiz.

Ko’pchilik psixologlarning taqiqotlaridan va o’zimizning kuzatishlarimizdan ma’lumki, bolalar mazkur inqiroz davrida bir necha ko’rinishdagi qaysarlik yoshini bosib o’tadilar.

Ana shu ko’rinishlarning bittasi biz nazarda tutgan davrga, ya’ni bolaning 3 yoshiga to’g’ri keladi. Ayni shu 3 yoshda bolada o’z irodasiga ishonch xissi tug’iladi, u o’zligini anglay boshlaydi. o’zligini anglash qarama-qarshiliklarni, ziddiyatlarni yengish bilan amalgalashadi.

Mazkur yoshdagagi bola ba’zan o’ziga aytilgan so’zlarning mohiyatini tushunmasligi, anglab yetmasligi, goho o’yinga haddan tashqari berilib ketib, kattalarning ovozini eshitmay qolishi mumkin. Bunday paytda bolada tashqi ta’siriga yoki qo’zg’atuvchiga e’tibor berish qobiliyati yetishmasligi, bunda uning ko’tarinki yoki qoyat tushkin kayfiyati halaqit berishi mumkin. Ba’zan bola o’z o’ylari va ichki kechinmalari bilan bandligi sababli uning tashqi ta’siriga javob qaytarishi biroz kechishi ham mumkin.

Ana shu jarayonnga o’zgalarning psixologiu qonuniyatga rioya qilmay qo’pollik bilan aralashuvi yoqimtoy, odobli bolalarni ham darrov jahli qo’zg’aydigan, gap ko’tara olmaydigan, nozik tabiatli shaxslarga aylantirib qo’yishi mumkin. Bunda kattalarning muloqotdagi qo’polligi bolada qaysarlikning belgilarni yaqqol namoyon

eta boshlaydi. U har qanday taklifni, buyruqni, hatto, iltimosni ham rad qiladi, o'ziga berilgan barcha savollarga bir maromda "yo'q", "kerakmas", "bermayman", "bilmayman" deb javob qaytaveradi. Kattalar bilan bola o'rtasidagi munosabatning buzilishi tufayli uning xatti-harakatida o'jarlik illati payd bo'ladi. Buning asosiy sababi bolada o'zining ichki kechinmalari, his-tuyg'ulariga bog'liq harakatlarni mustaqil bajarish istagi tug'ilishi, "men" bilan bog'liq butunlay yangi nuqtai nazarning vujudga kelishidir.

Mazkur davrni inson shaxsini shakllantirishda eng murakkab davr desak, xato qilmagan bo'lamiz. Shunga ko'ra katta yoshdagi odamlar, ota-onalar, bog'cha tarbiyachilar shu davrda bolaga undagi o'zgarishlarni, murakkab ichki kechinmalarlarning mohiyatini psixologik inqirozini inobatga olagn holda munosabatda bo'lsalar, nur ustiga nur bo'ladi. Yuqorida aytganimizdek, bu davrda bolaning irodasi, irodaviy sifati takomillasha bolaydi, shaxsning murakkab fazilatlari, xarakter xislatlari barkamollahadi. Bola o'zligini anglashining tashqi va ichki belgilari yaqqol ko'zga tashlanadi. "o'zim" bilan bog'liq ezgu niyat mutaqillikka intilish tuyg'usini vujudga keltiradi, binobarin, ularning ta'siri tufayli unda o'z xulqatvori, "yurish-turishi" bilan kattalarning maqtovi va olqishini eshitish ishtiyoqi tug'iladi. Shaxsning xulqini baholash keyinchalik o'zini o'zi baholash darajasiga yetadi.

Rolli o'yin – maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati. Rolli o'yin mazkur yosh davridagi bolalarning eng muhim faoliyati bo'lib, ular bunday o'yinda go'yo katta yoshdagi odamlarning barcha vazifalari va ishlarini amalga bevosita "bajaradilar". Shu boisdan o'yin faoliyati uchun maxsus yaratiladigan sharoitlarda ijtimoiy muhit voqyealari, oilaviy turmush hodisalari, shaxslararo munosabatlarni umumlashtirgan holda aks ettirishga harakat qiladilar. Bolalar kattalarning turmush tarzi, his-tuyg'usi. o'zaro muomala va muloqtlarning xususiyatlarini, o'ziga va o'zgalarga, atrof-muhit munosabatini yaqqol voqyelik tarzida ijro etish uchun turli o'ynichoqlardan shuningdek, ularning vazifasini o'tovchi narsalardan ham, foydalanadilar. Amma shuni alohida ta'kidlash lozimki, ijtimoiy va maishiy voqyelikning barcha jabhalarini qamrab oladigan rolli o'yin ularda birdaniga emas, balki turmush tajribasining ortishi, tasavvur obrozlarining kengayishi natijasida vujudgakeladi va mohisti va mazmuni jihatdan oddiydan murakkabga qarab takomillashib boradi.

Yirik psixologlar A.Vallon, J.Piaje, L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, B.G.Ananev, D.B.Elkonin va boshqalarning fikricha, go'daklik davrida bolaning predmetli faoliyati negizida rolli vyin uchun eng zarur sharoitlar asta-sekin vujudga kela boshlaydi. Mazkur olimlar va ularning shogirdlari to'plagan ma'lumotlarga asoslanib rolli o'yinni vujudga keltiruvchi muhim omillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: 1) go'daklik davridagi predmet bilan uni harakatlantirish orasidagi bog'liqlik o'z ahamiyatini yo'qota boradi, natijada predmet bilan harakat alohida hukm surish imkoniyati tug'iladi va bola ularni alohida umumlashgan tarzda aks ettira boshlaydi; 2) bola haqiqiy o'ynichoqlar o'rniga ularning asl mohiyatini to'la aks ettirolmaydigan yasama va beo'xshov nuxsalaridan keng foydalanadi (fabrikada tayyorlangan qo'g'irchoq yoki avtomobil o'rniga uyda yasab berilgan shunday narsalar bilan qanoatlantirish); 3) bolaning o'z xatti-

harakatlari kattalarning ishlaridan farqlanishiga intilishi, unda o'ziga xos shaxsiy harakat ko'nikmasining paydo bo'lisi; 4) bolada o'z xatti-harakatini kattalar faoliyati bilan qiyoslash, harakatlarining mohiyatini muvofiqlashtirish va aynan tuzilishi jihatidan bir-biriga yaqinlashtirish istagining tug'ilishi; 5) bola kattalarning hayoti va faoliyatida uchrab turadigan, odatdagи turmush muammolarini o'zida aks ettiruvchi, ma'naviy va maishiy ko'rinishga ega bo'lgan hayot jabhasini o'z xatti-harakatida izchil ravishda tiklashga (ularning rolini bajarishga) urinishadi

o'yin faoliyatini takomillashtiradigan sharoitlarni tadqiq qilgan N.M.aksarinaning ta'kidlashicha, o'yin o'zidan-o'zi vujudga kelmaydi, buning uchun kamida uchta sharoit mavjud bo'lisi kerak a) bolaning ongida uni qurshab turgan voqyelik to'g'risidagi xilma-xil taasuotlar tarkib topishi; b) har xil ko'rinishdagi o'yinchoqlar va tarbiyaviy ta'sir vositalarining muxayyoligi; v) bolaning kattalar bilan tez-tez muomala va muloqotga kirishuvi. Bunda kattalarning bolaga bevosita ta'sir ko'rsatish uslubi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Shunday qilib, psixolog adabiyotlar tahliliga tayanib maktabgacha yoshdagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: 1) bola odamlarning faoliyati, ularning predmetlarga munosabati va o'zaro muomalasiga qiziqadi; 2) bolalar rolli o'yinda atrofdagi voqyelikning eng tashqi ifodali, jo'shqin xis-tuyg'uli jihatlarini aks ettiradilar; 3) rolli o'yinda bola kattalar bilan bir xil sharoitda, yagona zaminda yashayotganini his etgan holda o'z istagini amaliyotga tadbiq qiladi; 4) kattalar hayoti va faoliyatiga kirish bolaning tasavvuri timsollari tariqasida namoyon bo'lsa ham, umuman uning chinakam shaxsiy hayotida o'chmas iz qoldiradi.

Maktabgacha yosh davrida o'yinning takomillashuvi. Psixologiya qabul qilinganidek, rolli o'yin faoliyati syujet va mazmundan tashkil topadi. Odatda syujet deganda, o'yin faoliyatida bolalar aks ettiradigan voqyelikning doirasi tushuniladi. o'yin syujeti turli davrga, sinfiy xususiyatga, oilaviy turmush tarziga, geografik va ishlab chiqarish sharoitlariga bog'liq holda yaratiladi. Bola munosabatga kirishadigan voqyelik doirasi qanchalik tor, cheklangan bo'lsa, o'yinnig syujeti shunchalik xira va bir xil ekanligini aks ettiradi.

o'yinlarning syujeti xilma-xilligiga qaramay, ularin maxsus guruhlarga biriktirish imkoniyati mavjuddir. Masalan, yirik psixolog Ye.A.Arkin o'yinlarning quyidagi tasnifini tavsiya qiladi: 1) ishlab chiqarishga (texnikaga); sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, kasb-hunarga oid o'yinlar; 2) maishiy va ijtimoiy siyosatga ro'zg'or: bog'chaga, maktabga, kundalik turmushga oid o'yinlar; 3) harbiy : urush-urush o'yinlari; 4) drammalashtirilgan: kino, spektakl va boshqalarga oid o'yinlar. Biz shu tasnif haqida L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, D.B.Elkonin singari psixologlarning tanqidiy mulohazalariga to'la qo'shilamiz, chunki harbiy va drammalashtirilgan o'yinlarni ham ijtimoiy-siyosiy guruhga kiritish mumkin. Bizningcha, D.B.Elkoninning tasnifi ma'quldir. U maktabgacha yoshdagi bolalarga xos rolli o'yinlarning syujetiga ko'ra uchta guruhg'a ajratishni tavsiya qiladi: 1) maishiy mavzu syujetiga oid o'yinlar; 2) ishlab chiqarish syujetiga maaluqli o'yinlar; 3) ijtimoiy-siyosiy syujetli o'yinlar. Muallif ayrim o'yin turlari maktabgacha yoshdagi bolalarning barcha bo'g'inlariga mosligini, syujetlar maishiydan ishlab chiqarishag qarab va undan ijtimoiy-siyosiy voqyealarni aks ettirishga qarab

rivojlanishini alohida uqtiradi. Uning fikricha, o'yin syujetidagi bunday izchillik bolaning bilim saviyasi, turmush tajribasi kengayishi, uning katta yoshdagi odamlar turmushiga chuqurroq kirib borishi bilan bog'liqdir. Darxaqiqat, o'yin syujetining o'sishi turmushning tobora yangi qirralarini aks ettirish bilan cheklanib qolmay, muayyan syujetning o'ziga xos boshqa ko'rinishlari bilan boyishi sababli ham amalga oshadi.

Katta yoshdagi bolalarda o'yin faoliyati mutlaqo boshqacha o'tadi, chunonchi bir harakat ikkinchi harakat bilan uzlusiz bog'lanib ketadi, ba'zi bir harakatlar esa so'z yordamida qisqartiriladi ("keling, xush ko'rdik" harakat bilan emas, balki so'z orqali ifodalanadi) va umumlashtiriladi. Rolli o'yin bolalarning hamkorlikdagi faoliyati mahsuli tariqasida vujudga keladi. Bu yoshda rol tanlashda ishtrokkchilar o'rtasidagi nizolar, tortishuvlarkamayadi, rolga o'zini loyiq deb bilish o'zidagi mavjud buyumlardan kelib chiqmaydi (masalan, qalam-o'qituvchi, qaychi-tikuvchi rolini olish uchun asos bo'la olmaydi), balki o'yinning mazmunidan, hamkorlikdagi faoliyat nuqtai nazaridan kelib chiqadi. Natijada ular kichik mакtabgacha yoshdagilarga o'xshab rolni almashtirish, bir buyumdan boshqaiga bir obrozdan ikkinchisiga o'tishdek beqaror harakatlar qilmaydilar.

D.B.Elkonin harakatli o'yinning qoidalari mazmuni o'zaro bog'liqligidan kelib chiqib ularni besh guruhga ajratadi: 1) harakatga taqlid qilish; 2) muayyan syujetni drammalashtirilgan o'yinlar; 3) syujeti oddiy o'yinlar; 4) syujetsiz qoidalari o'yinlar; 5) aniq maqsadga qaratilgan mashqlardan iborat sport o'yinlari.

Bolani o'yinga undamagan omil uning katta yoshdagi odamlarning borliq to'g'risidagi va shaxslararo munosabati haqidagi tasavvuri va ularni o'z shaxsiy faoliyatida sinab ko'rish istagidir, shuningdek, jamoa bo'lib o'ynayotgan tengqurlari bilan bevosita muloqotga kirishish ishtiyoqidir. Bolalar psixologiyasi fanida to'plangan ma'lumotlar tahliliga asoslanib, mazkur yosh davri bo'yicha quyidagi xulosani chiqarish mumkin: 1) o'yin faoliyatida bola turli harakatlarni to'laligicha namoyish etishga, ularni bajarish usullarini ko'rsatishga ishtiyoqmand bo'ladi; 2) keyinchalik esa barcha xatti-harakatlarni umumlashtirib aks ettirishga urinadi.

Bola o'sib borgan sayin narsalar va o'yinchoqlarning nomini o'zgartirish, yangi nom bilan atash yengillashadi. Shuningdek faqat yangi vaziyatda jismlar nomini o'zgartirish bilan kifoyalanib qolmay, ularni yangi nomga muvofiq qo'llash imkoniyati ham vujudga keladi. o'yin faoliyatida foydalilaniladigan narsalarni yangicha nomlash qator muammoli vaziyatlarni vujudga keltiradi.

o'yin faoliyatida narsalar nomini o'zgartirish o'zining psixologik mlhiyati bilan murakkab holat hisoblanadi. Ayniqsa, so'z bilan predmetning o'zaro munosabatida ularga uзвиy bog'liq harakatlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi mulohazalar asosida aytish mumkinki, katta kishilar hayoti va faoliyatining o'nini bosuvchi ashyolar ularning harakatini umumlashgan holda ifodalashning moddiy tayanchi hisoblanadi. Shunday ekan, o'yin faoliyatida bola harakatining rivojlanishi o'yin mazmuniga ko'proq bog'liqdir. Chunki bolaning xatti-harkati qanchalik ihcham va umumlashgan bo'lsa, u kattalarning faoliyati mazmunini aks ettirishdan shunchalik yiroqlashadi. Binobarin, u odamlarning narsalarga va bir-biriga munosabatini amalda bajarishga o'tadi va shuning uchun narsalar bilan harakat qilishda kattalarning ijtimoiy munosabatlarini to'g'ri ifodalashga intiladi.

Har qanday o'yinning va o'yin faoliyatining markazida bola katta kishilarning faoliyati va o'zaro munosabatini, muomalasini o'ziga xos tarzda aks ettirishi, takrorlashi imkoniyati turadi. Shunga ko'ra o'yin ijtimoiy ahamiyat kasb etib, bola insoniyat tomonidan asrlar davomida yarailgan qimmatli bilimlar, amaliy ko'nikmalar, malakalar va odatlarni o'rganishga imkon yaratadi, oqibatda uni shaxslararo muloqotning mohiyatiga olib kiradi.

Bolaning psixik o'sishida o'yinning ahamiyati.

Ko'pchilik psixologlar hamda pedagoglar o'yinning psixologik masalalari bilan bevosita shug'ullanib, o'yinlarning bolani psixik kamol toptirishdagi ahamiyatiga alohida to'xtalib o'tganlar. Ma'lumki, o'yin bola uchun voqyelikni aks ettirishdir. Bu voqyelik bolani qurshab turgan voqyelikdan ancha qiziqarlidir. o'ymnning qiziqarliligi uni anglab yetishning osonligidadir. Kattalar hayotida faoliyat, xizmat, yumush qanday ahamiyatga ega bo'lsa, bola hayotida o'yin ham xuddi shunday ahamiyat kab etishi mumkin.

Jahon psixologiyasi fanida to'plangan boy ma'lumotlarga asoslanib, quyidagicha mulohaza yuritish mumkin. Masalan, eng sodda psixik jarayondan eng murakkab psixik jarayongacha hammasining eng muhim jihatlarini shakllantirishda o'yinlar katta rol o'ynaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda harakatning o'sishiga o'yinning ta'siri haqida gap borganda avvalo shuni aytish kerakki, birinchidan, o'yinni tashkil qilishning o'ziyoq mazkur yoshdagi bolaning harakatini o'stirish va takomillashtirish uchun eng qulay shart-sharoit yaratadi. Ikkinchidan, o'yinning bola harakatiga ta'sir etishining sababi va xususiyati shuki, harakatning murakkab ko'nikmalarini subyekt aynan o'yin paytida emas, balki bevosita mashg'ulot orqali o'zlashtiradi. Uchinchidan, o'yinning keyinchalik takomillashuvi barcha jarayonlar uchun eng qulay shart-sharoitlarni vujudga keltiradi. Shu boisdan o'yin faoliyati xatti-harakatni amalga oshirish vositasidan bolaning faolligini ta'minlovchi mutaqil maqsadga aylanadi. Negaki, u (o'yin) subyekt (jonzot) ongingin dastlabki obyekti darajasiga o'sib o'tadi. Maktabgacha yoshdagi bola muayyan xususiyatga ega bo'lgan rolni tanlaydi, shu bilan birga u yoki bu personajga xos qat'iy yurish-turishni ongli ravishda ijro etishga intiladi. Shunday ekan, o'yin mazkur bola uchun eng zarur faoliyatga aylana boradi va yangi shakldagi harakatlarni, takomillashtirish, ularni anglagan holda esga tushirish ehtimoli yaqqol voqyelikka aylana boshlaydi. Mazkur harakatlarni egallah bolada jismoniy mashqlarni ongli ravishda bajarish imkoniyatini vujudga keltiradi (A.V.Zaporojets).

Bolaning o'yinlar shart-sharoitidan kelib chiquvchi ongil maqsadi harakatlarni bajarish kezida o'z ifodasini topadi va uning o'z oldiga qo'ygan maqsadi esda olib qolish va esga tushirish jarayonlariga aylanadi.

Bolaning laboratoriya sharoitiga nisbatan o'yinlarda ko'proq so'zlarni eslab qolish va esga tushirish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa ixtiyoriy xotira xususiyatini chuqurroq ochishga yordam beradi. Tajribada yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilish quyidagicha xulosa chiqarish imkonini beradi: a) o'yinda bola tomonidan ma'lum rol tanlash va uni ijro etish jarayoni bir talay axborotlarni eslab qolishni talab qiladi; b) shu boisdan personajning nutq boyligini egallah, xatti-harakatini

takrorlashdan iborat ongli maqsad bolada olinroq paydo bo'ladi va oson amalga oshadi.

O'yin faqat bilish jarayonlarini takomillashtirib qolmay, bolaning xulq-atvoriga ham jobiy ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'z xulqini boshqarish ko'nikmalarini tarkib toptirishga bog'liq psixologik muammoni o'rgangan Z.V.Manuylenkoning fikricha, biror maqsadga yo'naltirilgan mashg'ulotga nisbatan o'yinda xulq ko'nikmalarini oldindan vva osonroq egallashmumkin. Ayniqsa, bu omil maktabgacha yoshdagi bolalarda yosh davrining xususiyati sifatida o'zining ifodasini topadi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda o'z xulqini o'zi boshqarish ko'nikmasi o'yin faoliyatida ham, boshqa sharoitlarda qariyb baravarlashadi. Ba'zan ular ayrim vaziyatlarda, masalan, musobaqa paytida o'yindagiga qaraganda yuqoriqoq ko'rsatkichga ham erishishlari ham mumkin. Yuqoridagi mulohazalar asosida umuman aytganda, o'yin va o'yin faoliyati bolada o'z xulqini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolaning aqliy o'sishi to'g'risida fikr yuritilganda, oldingi bobda qayd qilinganidek, shuni aytish ham kerakki, narsalarni yangi nom bilan atashda yoki yangicha nomlash holatidan kelib chiqib, subyekt o'yin paytida faol harakat qilishga urinadi. Chuniki u moddiy narsalarga asoslangan harakat rejasidan tasavvur qilinayotgan, fikr yuritilayotgan jismlar mohitini aks ettiruvchi harakat rejasiga o'tadi. Bola jismlarning moddiy shaklidan birdaniga hayoliy ko'rinishiga o'tishida unga tayanch nuqtasi bo'lishi kerak, vaholanki shunday tayanch nuqtasi vazifasini o'tuvchi narsalarning aksariyatidan o'yinga bevosita obyekt sifatida foydalilanildi. o'yin faoliyatida mazkur jismlar qandaydir alomatlarni aks ettiruvchi sifatida emas, balki ana shu tayanch narsalar to'g'risida fikrlash uchun xizmat qiladi, shuningdek, tayanch nuqtasi harakatning yaqqol narsa bilan bog'liq jihatini aks ettiradi. Yuqorida aytiganidek, narsa bilan o'yin harakatlarining takomillashuvi harakat shakli, xususiyati bosqichi kabilarni qisqartirish va umumlashtirish hisobiga amalga oshiriladi. o'yin harakatlarining qisqarishi va umumlashuvi ularning aqliy ko'rinishdagi mantiqan izchil, yig'iq shaklga o'tishning asosini tashkil qiladi.

Psixolog J.Piaje o'yinda jismlarga yangi nom berish omiliga jiddiy e'tibor bilan qarab, bu ish ramziy ma'noli tafakkur shakllanishining tayanchi, degan xulosaga keladi. Lekin bu xulosa vaziyatni aks ettirishning birdan-bir to'g'ri yo'li ekanligini bildirmaydi. Shuning uchun narsaning nomini o'zgartirish bilan bolada tafakkur va aql-zakovat o'sishini kutish ham mantiqqa mutloqa ziddir. Aslida narsalarni qayta nomlash emas, balki o'yin harakatlarining xususiyatini o'zgartirish bolaning aqliy o'sishiga sezilarli ta'sir o'tkaza oladi. Darhaqiqat, o'yin faoliyatida bolalarda harakatning yangi ko'rinski, ya'ni uning fikriy, aqliy jihatni namoyon bo'ladi va shuning uchun o'yin harakatlarini shakllantirish jarayonida bolada fikrlash faoliyatining dastlabki ko'rinishi vujudga keladi. Bolaning aqliy kamol topishida yoki uning umumiyl kamolotida o'yinning muhim ahamiyat kasb etishi xuddi mana shu dalil orqali o'z ifodasini topadi.

Bola o'yin faoliyatida maktab ta'limiga tayyorlanib boradi, shu boisdan, unda aqliy harakatlarning yaqqol shakllari tarkib topa boshlaydi. Lekin o'yin faoliyatida bolaning aqliy o'sishini chuqurroq izohlab berish hali yetarli tajriba ma'lumotlari mavjud emas. Rolli o'yin faqat alohida olingan psixik jarayon uchun ahamiyatlidir.

emas, bolada shaxsiy xususiyat va fazilatlarni shakllantirishda sham zarurdir. Binobarin, katta yoshdagi odamlar rolini tanlab, uni bajarish bolaning his-tuyg'usini qo'zg'atuvchilar bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Chunki o'yin davomida bolada har xil xohish va istaklar tug'ilal boradi, bular boshqa narsalarning tashqi alomatlari, o'ziga rom etishi sababli hamda bolaning ixtiyoridan tashqari, tengdoshlarining ta'siri ostida tug'iladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayonlarini rivojlanishi.

Maktabgacha davrdagi bolalarda sezgi. Sezgi bu borliqdagi (real) narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlarini bizga tasiri natijasida ongimizda aks etishidir. Uning fiziologik asosini Segenov I.M. va Pavlov N.P. lar o'rganishgan va ularni analizatorlar deb atab, 3 ta qismini ko'rsatishgan: 1. Rikatorlar. 2. Afferent, efferent, nerv tolalari. 3.Bosh miyadagi yoki orqa miyadagi markaziy qism.

Ko'rish sezgilari. Ranglarni ajrata olish, masofalarni chamalashi va boshqalar tasavurlari va tafakkurning rivojlanishi uchun zamin hisoblanadi. eshitish uchun tovushlar va qo'llarni his qilishi orqali informatsiyalarni olishadi. Agar eshitish zaif bo'lsa, nutq ham yaxshi rivojlanmaydi va tafakkur orqada bo'ladi.

Tam va hid bilish teri sezgisi go'daklik davridanoq rivojlanadi. Bu analizatorlar, axborotlarni o'zlashtirishda muhim axamiyat kasb etadi.

Maktabgacha davrdagi bolalarda idrok. Idrok qilishda narsa va hodisalar yaxshi tarzda aks ettiriladi. Idrok qilish turmush tajribasiga bog'liq. Shuning uchun bolalarga narsaning nomini va yana uning belgilarini xususiyatlarini ham aytib berish axamiyatlidir. Ekskursiyalar, xayvonot va o'simliklar dunyosi Bilan tanishtirishda bolalar idrokida -- sistemasining rolini oshirish kerak. Bu ularda tasavvurni shakllantiradi. Shakllarni idrok qilish rivojlanadi. Makon va zamonni idrok etish qiyinchilik bilan kechadi. Ularga narsa qanchalik uzoqlashsa u shuncha kichik tuyuladi. Maktabga chiqkanda makon o'lchovlari metr, santimetr, kilometr kabi tushunchalarni o'zlashtiradi. Kecha, bugun, ertaga, indinga, avval, keyin oy, yil, ertalab, kun, tun, kechasi peshin kabi tushunchalarni idrok qilishda, tushunishda va aytishda qiynalishadi. Turmush tajribalari ortishi bilan, bog'chada mashg'ulotlar o'tishi orqali makon va zamonni idrok qilish shakllanadi.

Maktabgacha davrdagi bolalarda diqqat. Inson ongingin butun kuchini bir yerga to'plab, muayyan bir narsa yoki hodisaga aktiv yo'naltirilishi tushuniladi. Bog'cha davrida bolalarda ixtiyoriy turli rivojlanish boshlanadi. Tartiblarga bo'ysunish, vazifalarni bajarish, hikoyalarni tinglash va b.q. O'yin faoliyatida tashabbus bilan malum maqsad ilgari suriladi va buning natijasida diqkat bir joyga to'planadi. Ixtiyoriy diqqat irodaviy protsess bilan bog'liq bo'lagni uchun bu turni o'zlari mustaqtil ravishda tashkil eta olmaydilar. Tarbiyachi yoki kata odam yordam beradi va bu diqqat juda uzoq vaqt davom etmaydi. Diqqat xususiyatlari: barqarorligi, ayniqsa kata gruppaga tarbiyalanuvchilarida ko'rinadi. Mashg'ulotlarda soatlab o'ynashadi. Xajmi nisbatan kichik bo'ladi. Kattalarda 5-6 narsani o'z ko'oamiga sig'dirsa bolalarda 1-2 narsani t.q. bo'linuvchanlik ham rivojlanmagan, xar ikkalasi bir biriga bog'liq.

Maktabgacha davrdagi bolalarda xotira. Idrok qilingan narsa va hodisalarni, kechirilish tuyg'u, o'ylagan fikr, qilingan xarakatlarni esda qoldirish, esda saqlash va keyin esga tushirishda iborat bo'lgan psixik protsessdir. Xotira jarayoni O.N.F. bilan

bog'liq. Nerv sistemalari juda egiluvchan va tassurotlaoga beriluvchandir. Shuning uchun bolalarda vaqtli bog'linishlar xosil bo'ladi. Ashula ritmli she'r, qiziqarli xolatlar chuqur tasir etadigan narsalar beixtiyor esda qolaveradi. Nerv sistemasini yangi qo'zg'aluvchan bo'lgani uchun vaqtli bog'lanishlar beqaror bo'ladi, yani mustaxkam bo'lmaydi. Shuning uchun tez unutadilar. Bolalar katta bo'lishgan sari, nutqlari rivojlangan sari ular o'zlariga kerakli narsalarnigina esda olib qoladigan bo'ladi.

Ularda mexanik esda saqlab qolish, manitqiy esda saqlab qolish mактаб davri yakinlashgan sari ko'rindi.

Maktabgacha davrdagi bolalarda obrazli xotira. Yani eshitganlardan ko'ra ko'rganlarini yaxshi eslab qoladi. Emotsional xotira ham rivojiana boshlaydi.

Maktabgacha davrdagi bolalarda tafakkur. Tashqi muxitdagi narsa va hodisalar o'rtasida ko'z bilan ko'rib qulqoq Bilan eshitib bo'lmaydigan ichki munosabatlar hamda qonuniyatlar bor. Anna shularni biz tafakkur yani fikr yuritish orqali aks ettiramiz. Bog'cha yoshida tafakkur tez rivojlanadi. Birinchidan, turmush tajribalari oshadi, ikkinchidan nutq rivojlanadi, uchinchidan, mustaqil, erkin xarakatlarqila olish imkoniyatlari va x.k. Tafakkur realligi nutqda ko'rindi. Bu nima? Qanaqa? savollarga javob oladi.

Konkret obrazli tafakkur, yani ular ko'rgan va idrok qilgan real narsalarni ustida fikr yurgizadilar. Abstraklashtirish jarayoni ham kerak bo'lishi shunga bog'liq. Taqqoslash, analiz va sintez qilish yaxshi kechadi. Ekskursiyalar roli g'oyat kata. Didaktik va ijodiy o'yinlarda turli topshiriqlar berish orqali tafakkur rivojlanadi.

Bolani maktabga psixologik tayyorgarligi.

Maktabga borish bolalarning hayotida juda katta voqyeadir. Maktab hayoti bolalarga yangi bir dunyoni ochib beradi, maktab davrida bolalarning asosiy faoliyatları o'zgaradi. Endi bolalarning asosiy faoliyatları, asosiy vazifasi va ijtimoiy burchi o'qish bo'lib qoladi.

6-7 yoshli bolalar uchun yangi faoliyat bo'lgan o'qish ulardan yangi sifat, Yangi xususiyatlarga ega bo'lishlarini talab etadi. O'qish faoliyati uchun bolalarda barqaror diqqat, o'tkir zehn, mustaqillik, ishchanlik va batartiblik xislatlari bo'lishi kerak. Bog'chadan maktabga o'tishlari natijasida kattalar bilan bo'lgan munosabatlarida ham birmuncha o'zgarishlar yuz beradi. Bolalarning maktabga o'tishlari, ularning yaslidan bog'chaga o'tishlariga qaragnada murakkab bosqichdir. Shuni ham nazarda tutish kerakki, bola maktabga o'tishi bilan uning ijtimoiy holatida ham o'zgarish ro'y beradi. chunonchi maktab yoshiga yaqinlashgan bolalar bog'chada «katta» deb hisoblanar edilar. Maktabga o'tgach, ular yana «yeng kichkinlar» qatoriga tushib qoladilar.

Bolalarning maktaga o'tishlari bilan yuzaga keladigan anna shunday jiddiy o'zgarishlarni nazarda tutib, ularni maktabdagi yangi xar tomonlama tayyorlash kerak.

Bolalar bog'chasining asosiy vazifalaridan biri bolalarga xar tomonlama tarbiya berib, ularning taraqqiyot darajalarini maktabda o'qiy oladigan qilishdan iboratdir. Bu esa, o'z navbatida maktabdagi o'qitish ishlari bilan bog'chadagi talim-tarbiya ishlari o'rtasida malum izchillik bo'lishini talab qiladi.

Bog'chadagi bolalarning jismoniy jihatdan o'sishlariga qanchalik e'tibor berilsa, ularning aqliy va axloqiy o'sishlariga ham shunchalik e'tibor beriladi. Ularning mактабга чиқишлиари доимо назарда тutilib, o'tkaziladigan turli didaktik mashg'ulotlarda bolalarning idroklari, tasavvur va xotiralari, hayol hamda tafakkurlari, irodalari sistemali tarzda taraqqiy ettirib boriladi.

Bolalarni maktabdagи o'qish protsessiga tayyorlashda ularning nutqini o'stirish, juda zarur shartlardan biridir. Shuning uchun katta gurux bolalarini maktabdagи o'qishga tayyorlashda o'z ona tillarini yaxshi o'rganishlariga, yani so'z boyligini orttirishga, to'g'ri talaffuz va to'la hamda to'g'ri jumla tuza olishlariga axamiyat berish kerak. Bolalarning tashqi olam haqida tasavvurlarni kengaytirish, boyitish ishlari ular nutqini o'stirish asosida olib borilishi kerak.

Shu yoshda bolalarga birmuncha makon tushunchalari (uzoq, yaqin, o'ng, chap, katta, kichik), dumaloq va doira haqidagi tushunchalar, vaqt haqida tasavvur va shuningek axloq tushunchalari (yaxshi, yomon, rost, yolg'on, uyalish) paydo bo'ladi. Bundan tashqari, bola jismoniy jihatdan ham o'sadi. Uning nerv sistemasi, miyasi, muskullari, qo'lari yanada yetiladi. Bu davrda bolaning xarakteriga va o'ziga xos individual xususiyatlari ko'zga tashlana boshlaydi.

Shu narsa diqqatga sazovorki, hamma og'chalardagi maktab yoshiga to'lgan bolalar maktabdagи o'qishga bab-baravar tayyor bo'lavermaydilar. Ayrim bolalar maktabga kelgach, yangi sharoitga tez kirishib keta olmaydilar. Ularda o'qish uchun qandaydir bir xususiyat yetishmayotgandek ko'rindi. Bu o'rinda shunday bir savol tug'iladi. Bolalarni qay paytda psixologik jihatdan mактадаги o'qishga tayyor deb hisoblash mumkin. Ayrim psixologlarning fikricha, bola maktabda o'qishi uchun atrofdagi narsa va hodisalarga doir anchagina tasavvurlarga ega bo'lishi hamda malum darajada aqliy jihatdan o'sgan bo'lishi lozim. Biroq hayotda shunday voqyealar uchraydiki, anchadagina tasavvur boyligiga ega bo'lgan va xattoki yozish xamda o'qishni biladigan bolalar ham maktabdagи o'qishga tayyor bo'lmaydilar. Ular maktab va o'qituvchining talablarini bajara olmaydilar. Aksincha, ayrim bolalar yetarli tasavvur boyligiga ega bo'lmasalar ham, maktabda o'qib keta oladilar. Lekin, bundan maktabdagи o'qish protsessi uchun malum darajada aqliy jixatdan o'sgan bo'lishi maktabda dastlab o'qib ketish uchun eng zarur shartlardan biridir. Lekin bu bolaning o'qishga tayyor ekanligini aniqlashdagi xal qiluvchi faktor emas, chunki bu yerda yosh masalasi ham bor. Boshqa bir olimlar, bolaning o'qishga tayyor ekanini aniqlashdagi asosiy narsa iroda sifatlarining yetilganligidir, deydilar. Bu fikr bir yoqlamalikka yo'l quyishdan boshqa narsa emas.

Yetti yoshga to'lish davri go'daklikning tugalishi davriga to'g'ri keladi. Xuddi anna shu davrdan boshlab bolalarda o'z-o'zini anglash tarikb topa boshlaydi. Shuning uchun bolalarning yetti yoshga to'lgan davridan boshlab sistemali suratda o'qishga o'tish maqsadga muvofiqdir. K.D.Ushinskiyning fikricha, bolaning maktabdagи o'qish faoliyatiga tayyorligi ayrim psixik protsesslarning taraqqiyot darajasi bilan emas, balki bola shaxsining umumiylara taraqqiyot darajasi bilan aniqlanadi.

Bolalarda 5-6 yoshdan boshlab shaxsiy ong tarkib topa boshlaydi. Bu shunday hollarda ko'rindiki, bolalar o'zlarini yashab turgan ijtimoiy muxitdan o'z o'rinalarini belgilashga, kattalar bilan yanada yaqinroq, yanada to'laroq munosabatlar sistemasini o'rgatishga intiladilar. Katta gurux bolalari maktabga o'tishdan ancha ilgariyoq

maktab xaqida orzu ila boshlaydilar. Maktabning qanday ekanini kattalardan tez-tez surishtirib turadilar. Maktabga borish vaqtlarini aniq bilishga harakat qiladilar. Agar biror o'rtoqlari maktabga o'tib ketsa, juda xavaslari kelib, o'zлari bog'chada qolganlaridan o'ksinib ketadilar. Katta yoshdagи bog'cha bolalarining maktabga intilishlari ijtimoiy munosabatlar sistemasidan yangini egallashga bo'lган intilishlarining konkret ifodasidir.

Shunday qilib, bolaning maktabdagи o'qishga tayyorligi shaxsning ijtimoiy yetuklik bosqichlaridan biridir. Lekin ijtimoiy taraqqiyotning bunday yetuklik bosqichiga bola o'z-o'zidan ko'tarilmaydi. uni bu bosqichga bog'chadagi va oiladagi butun talim-tarbiya ishi ko'taradi.

Bola yetti yoshga to'lganda jismoniy jixatdan ancha o'sadi, o'zini idora qilishga, nojo'ya xatti-xarakatlardan o'zini tiyishga, xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirishga harakat qiladi. U o'zini eplay boshlaydi, o'z kuchiga yarasha mehnat qila oladi, masalan, bolalar bog'chasida navbatchilik vazifasini bemalol uddalaydi, jamoada yashashga ko'nika boshlaydi, Bolaning turmush tajribasi tobora ortadi, ko'p narsalarning nomini va ulardan qanday foydalanishni biladi. Xotirasi va tasavvurlari o'sib, ko'pgina she'r va xikoyalarni yoddan bilib oladi. Bolaning nutqi malum darajada o'sgan bo'ladi, u o'z o'rtoqlari va kattalar bilan erkin suxbat qila oladi.

Yetti yoshli bolalarning xis-tuyg'ulari ancha o'sadi. Xayrioxlik, raxmdillik, o'rtoqlik kabi xis-tuyg'ular mustaxkamlana boshlaydi.

Bu davrda bolada turli harakatlar mustaxkamlanadi, u qaychi, igna, qalam kabi qurollardan foydalanish malakasini egallay boshlaydi, Biroq bu davrda ham bolada hali beixtiyor aktivlik ancha ustun turadi. Shu sababli bolani qiziqtiradigan yoki unga kuchli tasir qiladigan narsalar uning diqqatini jalb qiladi. Bu yoshda ham o'yin juda katta rol o'ynaydi. O'yin jarayonida bola o'zini idora qilishga, o'z xarakatlarini o'yin qoidalariga bo'ysundirishga, javobgarlikka, jamoa manfaati ustun qo'yishga odatlanadi. Bu xislatlar keyinchalik o'qish mexnatiga o'tish uchun zarur bo'lган xislatdir. O'yin jarayonida bolaning aql-idroki, zexn va boshqa psixik xususiyatlari o'sadi. Bular o'z navbatida, bolaning mакtabda o'qishi uchun psixologik zamin tayyorlaydi. Bunday zamanni tayyorlash va mustaxkamlashda, albatta oilada hamda bolalar bog'chasida olib oriladigan talim-tarbiya ishlari hal qiluvchi axamiyatga egadir.

Yetti yoshga to'lib, maktabga chiqqan bolalarning psixik jixatdan bundan keyingi o'sishi mакtabda oilada olib boriladigan talim-tarbiya ishi jarayonida amalga oshiriladi.

Talimga psixologik tayyorlik deganda bolaningobektiv va subektiv jixatdan mакtab talabiga munosibligi nazarda tutiladi. U mакtab talimiga avval psixologik jixatdan tayyorlanadi. Binobarin, uning psixikasi bilim olishga yetarli darajada rivojlanadi. Shu yoshdagи bola idrokining o'tkirligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi, o'zini qiziquchanligi, dilkashligi, xayrioxligi, ishonuvchanligi, tafakkurning yaqqolligi bilan boshka yoshdagи bolalardan ajralib turadi. Makteb talimiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo'ladi. Bola diqqatining xususiyatlari roli va syujetli o'yinlarda, rasm chizish va qurish-yasash mashg'ulotlarida, loy hamda plastindan o'yinchoqlar tayyorlashda, o'zgalar nutqini idrok qilish va tushunishda, matematik amallarni yechishda, xikoya tinglash

va tuzishda ko'rindi. Bola o'z diqqatini muayyan obektga to'plashga intiladi. Uning xotirasi qiziqarli, ajoyib-g'aroyib, kishini taajubga soladigan malumot va xodisalarni puxta esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu davrgacha bevosita kattalar raxbarligida u yoki bu axborotlarni o'zlashtirib kelgan bo'lsa, endi o'z xoxish-irodasi bilan zarur matlumotlar to'plashga, o'z oldiga aniq maqsad va vazifa quyishga xarakat qiladi. Bolaning anna shu faolligi xotirasining muayyan darajada rivojlanganligini bildiradi. U she'r, xikoya va ertaklarni esda qoldirish uchun ko'p takrorlashi, yod olishning eng qulay yo'l va usullaridan foydalanish talim jarayonida unga juda qo'l keladi. Birinchi sinf o'quvchisi ko'pincha obrazli xotiraga suyanib bilish faoliyatini tashkil etsa ham, bu ish xotiraning boshqa turlarini inkor qilmaydi. Aksincha, talim so'z-mantiq xotirasini taqozo etadi. So'z-mantiq xotirasining mavjudligi manosini tushunib esda olib qolish jarayonining samaradorligi ortishiga keng imkoniyat yaratadi. Tajribadan malumki, bola manosiz so'zlardan ko'ra manodor tushunchalarni birmuncha tez va mustaxkam eslab qolish xususiyatiga ega. Uning nutqi mакtab talimiga tayyorgarlik bosqichida kattalar bilan muloqotga kirishish, kishilarining fikrini o'qib olish va to'g'ri idrok qilish darajasida, nutqning tuzilishi esa grammatika qoidalariga mos, mantiqan izchil, ifodali, miqdor va klam jixatdan fikr almashishga yetarli bo'ladi. U eshitgan va ko'rganlari to'g'risidagi malumotlarni tushuna oladi. O'zidagi axborotlarni muayyan tartibda bayon qila biladi, aqliy faoliyat operatsiyalaridan o'rinli foydalanadi (ularni taqqoslaydi, oydinlashtiradi. Umumlashtiradi, xukm va xulosa chiqarishga xarakat qiladi).

Olti yoshli bolaning psixik tayyorligi haqida gapirilganda ko'pincha muayyan reja asosida, tartibli, ko'p qirrali maqsadga yo'naltirilgan, o'zaro mantiqiy bog'liq, izchil boshlang'ich talimga zamin vazifasini o'tovchi psixik o'sish darajasidan tashqari, bola turmushi va faoliyatining tafovutlari, sharoitlari, o'ziga xosligi uning sixat-salomatligi, usuliy jaxtdan tayyorgarligi, oddiy ko'nikmalarni o'zlashtirgani kabi omilarni xisobga olish maqsadga muvofiqdir. Yuqorida aytilganlarning hammasi bolaning mакtab talimiga psixologik jixatdan tayyorligining obektiv tomonlarini ifodalaydi.

Bola mакtab talimiga psixologik tayyorlanishining subektiv tomoni ham mavjuddir. Uning mакtabda o'qish xohishi, intilish, katta yoshdagи odamlar bilan muloqotga kirishish istagi mazkur tayyorgarlik bilan uzviy bog'liqdir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. David G. Myers Psychology, USA , 2010.
2. James W. Kalat Introduction to Psychology, USA, 2013
3. G'oziyev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2010
4. G'oziyev E.G. Ontogenez psixologiyasi. Toshkent, 2010

**AMALIY
MASHG‘ULOTLAR
MAZMUNI**

1-AMALIY MASHG'ULOT

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh davrlari klassifikasiyasi, o'ziga xosligi Reja:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlari fanining predmeti, maqsadi, vazifalari.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlari – bola psixik taraqqiyoti qonuniyatlarini o'r ganuvchi fandir.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlari fanining metodlari.
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlari fanining boshqa fanlar bilan aloqasi

Psixologiya-lotincha «psyux» - ruh, jon, «logos» - fan, ta'limot degan so'zlardan olingan bo'lib, ruh, jon haqidagi fan degan ma'noni anglatadi. Psixologiya faniga beriladigan ta'riflar ham juda xilma-xil bo'lib, shulardan ayrimlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak faktlar, ularning qonuniyatlarini va psixika mexanizmlari haqidagi fandir. Ko'rinish turiptiki, barcha ta'riflarda ham psixika haqida so'z bormoqda. Xo'sh, psixika nima?

Psixika lotincha psyux so'zidan kelib chiqqan bo'lib, ruh, jon degan ma'noni bildiradi. Psixika sezgi, idrok, tafakkur, hissiyot, iroda, xotira va boshqa shu kabi tushunchalar bilan guruhlarga ajratilib, hammasi birgalikda kishining psixikasi, kishining ichki dunyosi, uning ruhiy hayoti va hokazolar deb ham ataladigan tushunchalarini hosil qiladi. Bundan tashqari biz amaliyotda psixik hodisalar, ruhiy hodisalar degan iboralarga ham juda ko'p duch kelamiz.

Shaxs psixik jarayonlari:

Bilish sohasi: diqqat, nutq, faoliyat;

Bilish jarayonlari: sezgi, idrok, xotira, tasavvur, tafakkur;

Emosional – irodaviy sohasi: emosiya, iroda;

Individual-psixologik xususiyatlari: temperament, xarakter, qobilyat.

Bilish sohasi

Diqqat — idrokning u yoki bu obyektga ixtiyoriy yo'naltirilishi.

Nutq — bu muayan qoidalar asosida yaratilgan til organi orqali insoniy muloqotni tarixiy shakllangan formasi. Nutq jarayoni bir tomondan fikrlarni lingvistik vositalar bilan shakllantirilishi, ikkinchi tomondan esa tilshunoslik konstruksiyalari va ularning tushunchalarini idrok etishni nazarda tutadi.

Faoliyat — bu subyektning (tirik mavjudotning) obyekt bilan (atrofdagi borliq) faol hamkorlik jarayonidir. Voqyelikka nisbatan faol munosabat bildirishning shunday bir shaqlidirki, u orqali kishi bilan uni qurshab turgan olam o'rtasida real bog'lanish hosil qilinadi.

Bilish jarayonlari:

Sezgi — odamning real yoki abstrakt obyektlarga subyektiv munosabatini ifodalovchi hissiy jarayoni. Sezgi deb sezgi a'zolarimizga bevosita ta'sir etib turgan narsa yoki hodisalarning ayrim sifat va xossalaring ongimizda aks ettirilishiga aytamiz.

Idrok - Sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etib turgan narsa va hodisalarning kishi ongida butunligicha aks ettirilishi idrok deyiladi.

Idrokning sezgidan farqi, narsalarni umumlashgan holda, uning hamma xususiyatlari bilan birgalikda aks ettirilishidir.

Xotira — Individning o'z tajribasini esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi xotira deb ataladi.

Tasavvur (grek. φαντασία — «tasavvur») — individ yoki guruh jamoasi tomonidan realikka to'g'ri kelmaydigan, lekin ularning orzu istaklarini bildiradigan jarayon.

Tafakkur — Tafakkur voqyelikni umumlashtirilgan holda, qonuniy bog'lanishlarni so'z va tajriba vositasida aks ettirishdir. Narsa va hodisalar rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash bilan odam, tabiat va kishilik jamiyati taraqqiyotini boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shaxsning hissiy irodaviy sohasi:

Hissiyot (lot. emoveo — hayajonlantiraman) —obyektiv dunyodagi mavjud yoki noma'lum bo'lgan vaziyatlarga subyektiv baholovchi munosabatni ifoda etadi .

Iroda —insonning fikrlash jarayonlari orqali qaror qabul qilishi, hamda qabul qilingan qaror asosida o'z xarakatlarini yo'naltirish.

Shaxsning individual xususiyatlari deganda shaxsning bir biridan farq qilishiga imkon beradigan quyidagi xususiyatlari tushuniladi: temperament, xarakter, qobiliyat.

Temperament lotincha temperamentum - narsalarning tegishli nisbati degan so'zdan olingan. Temperament haqida dastlab eramizdan oldingi V asrda yashagan vrach Gippokrat, eramizdan oldingi II asrda yashagan Galen, X asrda yashagan Ibn Sino va boshqalar o'z qarashlarini bildirganlar. Galen birinchi bo'lib temperamentning kengaytirilgan tasnifini berib, uning turini sanab o'tgan. Keyinroq vatandoshimiz Ibn Sino temperamentni mizoj deb atab, uning issiq va sovuq turini, bu odamning rangi, qonining miqdori, quyuq yoki suyuqligiga bog'liqligini aytgan. Hozirgi kunda temperament oliv nerv tizimi va uning xillari bilan bog'liqligi asos qilib olinib, 4 tipi borligi qabul qilingan. Bu holda temperamentning antik davr klassifikasiyasiga nomi bilan o'xshash bo'lishi qabul qilingan.

Sangvinik - qon so'zi bilan bog'liq bo'lib, serharakat, kuchli ta'sirlanish, muvozanatsiz bo'lish nazarda tutiladi. harakatchan, muvozanatli tip. Yangi shart sharoitga tez moslashadi, tez ishga kirishib tez soviydi, o'z o'mini, rolini tez almashtiradi,beg'araz, kek saqlamaydigan tip. («Bir qop yong'oq»).

Xolerik - sariq o't organizmda ustun miqdorda bo'lishi asos qilib olinib, ta'surotni tez qabul qilib olish, kuchli qo'zg'olish, terisiga sig'maydigan shoshkaloy odam xususiyati hisoblanadi. «Jangovar, jo'shqin, oson va tez ta'sirlanadigan tip». (I. P. Pavlov). Chaqqon, tez harakat qiladi, qattiq va tez gapiradi, o'zini tutib turishi qiyin, bazan xato javob qaytaradi.

Flegmatik - organizmda shilimshiq modda flegma miqdori ko'pligi bilan ifodalananadi. Bu tipdagisi odam ta'surotni bir muncha sekin qabul qiladi, ishga shoshilmay kirishadi, lekin ishni puxta, oxiriga yetkazib bajarishga layoqatli tip.

Hissiyotlari sekin paydo bo'ladi, ammo barqaror va davomli bo'ladi. U vazmin va yuvosh, uning jahlini chiqarish qiyin, lekin jahli chiqsa to'xtatish ham qiyin, qasoskor, ginachi.

Melanxolik - qora o't miqdori bilan bog'liq deb hisoblanadi. Bu tipdagi odam «og'ir karvon», «tepsa tebranmas», atrofida sodir bo'layotgan hodisalarga va odamlarga loqayd, «dunyoni suv bossa, tupig'iga chiqmaydigan» tip. Antik davr psixologiyasidagi bu turlar keyin yana ko'p marta tadbiq qilinib, yana shu to'rt tip nomi saqlanib qolgan. Reaksiyalari ko'pincha qo'zg'ovchining kuchiga to'g'ri kelmaydi, loqayd, lanj, o'zini tez yo'qotib qo'yadi, biror ishda tashabbuskorlik ko'rsatmaydi. Hissiyotlari juda sekin paydo bo'ladi.

Xarakter va uning xillari. Xarakter - zARB qilish, belgi, tamg'a ma'nolarini anglatadi. Shaxsning individualligi psixik jarayonning o'tish xususiyatlarida (yaxshi xotira, xayol, zehni o'tkirlik va h.k.) va temperament xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Xarakter – shaxsning muomalada tarkib topadigan va namoyon bo'ladiqan barqaror individual xususiyatlari bo'lib, individ uchun tipik xulq-atvor usullarini yuzaga keltiradi.

Xarakter xususiyatlari – e'tiqod, hayotga qarash va shaxs yo'nalishi bilan bir emas. Xarakter tarkib topishida tevarak atrof - muhitga, o'ziga, boshqalarga munosabatda bo'lishi katta ahamiyatga ega. Kishining xarakteri, birinchidan, u boshqa odamlarga qanday munosabat bildirayotganida namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, kishining o'ziga munosabatida - obro'talablik va o'z qadrini xis qilish yoki kamtarlik.Uchinchidan - xarakter kishining ishga munosabatida namoyon bo'ladi (vijdonlilik, ma'suliyat, ishchanlik, jiddiylik). To'rtinchidan - xarakter kishining narsalarga munosabatida namoyon bo'ladi. (Narsalariga, kiyimiga va hokazo).

Xarakter xislatlari ichida eng ustun ko'zga tashlanadigan xususiyatlar majmui xarakter aksentuasiyasi deyiladi. (Surbetlik, molparastlik, vijdonsizlik rostgo'ylik, yolg'onchilik, saxiylik, ochko'zlik, dilkashlik va hokazolar).

Xarakter aksentuasiyasiga qarab odamlarni quyidagicha farqlash mumkin:

introvert tip - odamovi, ichimdagini top, boshqalar bilan til topishga qiynaladigan tip, ekstrovert tip - his xayajonga berilganlik, ko'p gapiradigan, maqtanchoq, ko'p narsaga beqaror qiziqadigan tip. Boshqarib bo'lmaydigan tip – oraliq tip (ambovert), gayritabiyy, sun'iy qiliklar, e'tirozlarga murosasizlik, ba'zan o'rinsiz shubhalanish bilan qarash. o'z salbiy qiliklarini bila turib davom ettirish - xudbinlikning oliy shaqli.

Xarakterning ekstrovert va introvert tiplarini fanda Karl Gustav Yung ajratgan.

Qobiliyat va uning xillari. Qobiliyatlar kishining shunday psixologik xususiyatlaridirki, bilim, ko'nikma, malakalar orttirish shu xususiyatlarga bog'liq bo'ladi. Shu xususiyatlar mazkur bilim, ko'nikma va malakalarga taalluqli bo'ladi. Malakalar, ko'nikma va bilimlarga nisbatan qobiliyatları qandaydir imkoniyat sifatida namoyon bo'ladi. Qobiliyatlar bilim, malaka va ko'nikmalarning o'zida ko'rinxaydi, balki ularni egallash dinamikasida namoyon bo'ldi. Qobiliyat strukturasi konkret faoliyat turi bilan belgilanadi. Bir faoliyatga bir necha qobiliyat kirishi mumkin. Masalan, pedagogik faoliyatga pedagog odobi, kuzatuvchanlik, bolani sevish, talabchanlik va hokazolar kiradi. Shulardan biri

yetakchi, qolganlari yordamchi fazilatlar bo'lishi mumkin. Kishi qobiliyati uning yordamchi, qo'shimcha fazilatlariga bog'liq yoki shunday deb qaralishi mumkin. Masalan, bir odam o'z ishini puxta, mazmunli uddalaydi, lekin artistlik, notiqlik, san'atini yaxshi egallamagani (ya'ni, yordamchi fazilatga ega emasligi) uchun o'zini ko'rsata olmaydi, ikkinchi bir odam ishni shunchaki uddalasa ham uni ko'z-ko'z qila oladi, o'zini iste'dod egasi qilib ko'rsata oladi.

Odamlarni qobiliyatiga qarab tiplarga ajratish muammozi juda murakkab. Birida maxsus, birida umumiy sifat ustunlik qilishi mumkin. I. P. Pavlov qobiliyatga qarab odamlarni 3 tipga bo'ladi: «Fikrlovchi tip», «Badiiy tip», «O'rtacha tip». Bunda odamdagи ikki signal tizimi nisbatini hisobga oladi. Badiiy tip uchun bevosita ta'surot, jonli tasavvur, emosiya ta'sirida paydo bo'ladigan obrazlar yorqinligi xosdir. Fikrlovchi tip uchun mavhumlik, mantiqiy tuzilmalar, nazariy mulohazalar ustunligi xosdir. Qobiliyatlar taraqqiyotining yuksak bosqichi iste'dod deb ataladi. Iste'dod bu kishiga qandaydir murakkab mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli, mustaqil va original tarzda bajarish imkonini beradigan qobiliyatlar majmuasidir. Iste'dodlarning uyg'onishi ijtimoiy shart-sharoitlarga bog'liqdir. Masalan, bozor iqtisodiyoti «hammani tijoratchi qilib yubormoqda».

Alovida olingan, yakka qobiliyatni garchi u taraqqiyotning juda yuksak darajasiga erishgan va yorqin ifodalangan bo'lsa ham iste'dod bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Xotira, aqlning epchilligi, qo'llash ko'laming kengligi iste'dodga yo'l ochadi. Bu singari sifatlarni mashhur odamlar faoliyati misolida ko'ramiz.

Nazorat uchun savollar

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlari fanining predmeti, maqsadi, vazifalari haqida tushuncha bering.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlari fanining ilmiy tadqiqot metodlarini sanab bering.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlari fani qaysi fanlar bilan aloqasi bor?

Adabiyotlar ro'yxati

1. David G. Myers Psychology, USA , 2010.
2. James W. Kalat Introduction to Psychology, USA, 2013
3. G'oziyev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2010
4. G'oziyev E.G. Ontogenez psixologiyasi. Toshkent, 2010

2-AMALIY MASHG‘ULOT **Bolaning rivojlanish xususiyatlari**

Reja:

1. Maktabgacha yoshdagi bola taraqqiyotining umumiy xususiyatlari.
 2. Maktabgacha yoshda mehnat va o‘yin faoliyatlarining o‘ziga xosligi.
 3. Bolalarning shaxsiy va ijtimoiy tayyorgarligi.
 4. Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonlari va rivojlanishi.
- Maktabgacha yoshdagi bolalar inqirozi.

Yosh davrlari klassifikasiyasi va yosh inqirozlari

Yosh davrlari muammosini o’rganish ko’pgina oimlarni qiziqtirib kelgan muammolardandir. L.S.Vigotskiy birinchilardan bo’lib shaxs ontogenetikrivojlanishini davrlashtirishda tarixiylik tamoyiliga amal qilishlozimligini ta’kidlagan. Uning fikricha, bolalik – bu murakkab ijtimoiy madaniy hodisa bo’lib, tabiatan tarixiy kelib chiqish xarakteriga ega.

L.S.Vigotskiy inson umrini davrlashtirishda yosh inqirozlarini asos qilib olgan va quyidagi bosqichlarga bo’lgan:

- tug’ilgandagi inqiroz
- bir yosh inqirozi
- uch yosh inqirozi
- 7 yosh inqirozi
- 13 yosh inqirozi
- 17 yosh inqirozi.

E.Eriksonning psixosotsial davrlashtirish bosqichlarida ma’lum bir xislarga asoslanilgan va ular quyidagilar:

1. Go’daklik davri (tug’ilgandan 1 yoshgacha): ishonch/ishonchsizlik. Bu xislar ona mehri va g’amxo’rligining qay darajadaligi bilan bog’liq. Agar oilada emosional diskommfort kuzatilsa bolada ishonchsizlik hissi ustunlik qila boshlaydi.

2. Ilk bolalik (1-3 yosh): avtonomiya/uyat va shubha. Bola jamiyatda qabul qilingan normalarga duch kela boshlashi natijasida unda “Men qila olaman”, “Men o’zim” yoki uning aksi bo’lgan kechinmalar yuzaga kela boshlaydi.

3.O’yin davri (3-6 yosh): tashabbuskorlik/aybdorlik. Bola rolli o’yinlar orqali ijtimoiy tajribani o’zlashtira boshlaydilar. O’yin jarayonini tashkil etishda bolaning tashabbusini kattalar tomonidan qo’llab-quvvatlanishi yoxud qattiq tanqid qilinishi mazkur xislarni shakllanishiga olib keladi.

4. Maktab yoshi (7-12 yosh): mehnatsevarlik/noto’liqlik. Ta’lim va o’z ustida ishslash yetakchilik qiladi. Tengdoshlari orasidagi mavqyei va shaxslararo munosabatlari uning shaklanishiga o’z ta’sirini o’tkazadi.

5. O’spirinlik (12-13 yoshdan 19-20 yoshgacha): ego-identifikasiya / rollar almashinushi. Bu davr “Men kimman?”, “Men qayerga ketyapman?”, “Kim bo’lishni istayman?” kabi savollarga birin-ketin javob izlashni boshlaydi va qadriyatlar tizimi shakllanadi.

6. Yoshlik (20-25 yosh): yaqinlikka intilish / izolyasiya. Bu davr kasbiyfaoliyat va oilaviy hayotning boshlanishi bilan xarakterlanadi.

7. Yetuklik (26-64 yosh): samaradorlik / inertlik. Ijtimoiy hayot tarzi, kattalarga g'amxo'rlik, oilaviy turmush, kasbiy muvaffaqiyat kabilar bilan belgilanadi.

8. Keksalik (65 yoshdan yuqori): yaxlit ego / ko'ngil qolishi. Nafaqaga chiqish inqirozi va yaqin kishisini yo'qotish kabilar bilan belgilanadi.

Chaqaloqning yangi sharoitda yashashini ta'minlovchi asosiy omil tug'ilishda unda vujudga kelgan tabiiy mexanizmlardir. U tashqi sharoit va muhitga moslashish imkonini beradigan, nisbatan yetilgan nerv sistemasi bilan tug'iladi. Tug'ilganidan boshlab mazkur reflekslar organizmda qon aylanishi, nafas olish hamda nafas chiqarishni ta'minlaydi.

Birinchi kundanoq kuchli qo'zg'atuvchilarga nisbatan ko'zni qisish, pirpiratish, uning qorachig'ini kengaytirish yoki toraytirish mexanizmlari ishlay boshlaydi. Bu reflekslarni himoya reflekslari deyiladi.

Chaqaloqda himoya reflekslaridan tashqari, qo'zg'atuvchilar bilan aloqa o'rnatishga xizmat qiladigan reflekslar ham bo'ladi. Bularni oriyentir reflekslari deb ataladi. Chaqaloqlarni kuzatishlarda ikki uch kunlik bola xonaga quyosh nuri tushishi bilan boshin yorug'lik tomonga burishi, chaqaloq xonaga asta kirib kelayotgan nur manbaini ham sezishi yaqqol ko'rindi.

Yuqorida aytilgan reflekslardan tashqari, bolada bolada bir necha tug'ma tabiiy reflekslar ham uchraydi; emish refleksi og'ziga tushgan narsani so'rishga o'z ifodasini topsa qo'l kaftiga biror narsaning tegishi ushslash, chang solish reaktsiyasini vujudga keltiradi. o'zidan narsani itarish, uzoqlashtirish refleksi mavjudligini kursatadi va bu hol tovonga qandaydir jism tegishi bilan uni o'zidan uzoqlashtirishda namoyon bo'ladi.

Psixolog V.S.Muxinaning fikricha, chaqaloqda tug'ilshiga qadar ham shartsiz reflekslar bo'lishi, unga homilalik paytidayoq o'z qo'lini so'rish imkonini yaratadi.

Tug'ilgan chaqaloqning vazni tez kamaya boradi. Buning sababi undan suyuqlik moddasining chiqib ketishi, vaznsizlik holatian atmosfera bosimiga, quyosh nuriga, turli xususiyatli moddalar ta'siriga, o'zgaruvchan havo haroratiga moslashish davrida ko'p kuch-quvvat sarflanishidir. Bu davrning kechishida chaqaloqlarning ham individual, sham jismoniy tafovutlari ko'zga tashlanadi. Oradan ko'p vaqt o'tmay chaqaloq vaznnining kamayishi tabiiy ravishda to'xtaydi va uning yangi muhitga moslashishi boshlanadi. Kindik tushish davri organizmda keskin o'zgarishlar yuz berish pallasi hisoblanib, murg'ak organning mustaqil yashayotganidan dalolat beradi. Chaqaloqning oldingi vazniga yetish davri hayotining birinchi o'n kunligiga to'g'ri keladi.

Chaqaloq organizmining anatomik- fiziologik, morfologik tuzilish bo'yicha, boshqa yoshdagi odamlarnikidan farqi ham rivojlangani, zaifligi, ish qobiliyatining kuchsizligidir. Uning suyak sistemasiYE, pay-muskullari va tog'ay to'qimalarining o'sishi katta yoshdagi kishilarnikidan ham sur'at, ham sifat jihatidan farqlanadi. Chaqaloqdagi muskullarning takomillashishi harakat negizini vujudga keltiradi; shu birga har bir biologik organning mutaqil harakati va faoliyatini ta'minlashga xizmat qiladi. Bolada bo'yin muskullarining o'sishi bo'ynini tutishga olib kelsa, tana muskullarining rivojlanishi kattalar yordamida ag'anash imkonini, qo'l va oyoq

muskullarining yetilishi esa jismoniy harakat qilish, jismlarga qo'l cho'zish uchun sharoit yaratadi.

Chaqaloqning anotamik-fiziologik tuzilishini tahlil qilsak, uning suyak sisitemasida ohak moddasi va har xil tuzlar yetishmasligining guvohi bo'lamiz. Shu sababli suyak funktsiyasini ko'proq tog'ay to'qimalari bajaradi. Bosh suyaklari bolalarning ikki oyligida o'zaro qo'shib ketadi. Bosh suyakning peshona va tepe qismlari o'rtasida liqildoq deb ataladigan qalin parda va teri bilan qoplangan oraliq mavjud bo'ladi. U bola bir yoshdan oshganidan keyin suyak bilan qoplanib boradi, lekin u haqiqiy suyak bo'lmaydi.

Chaqaloq nerv sistemasining yuksak darajada rivojlangan qismi, ya'ni bosh miya katta yarim sharlari tashqi ko'rinishi bilan katta odamnikiga aynan o'xshasa ham, aslida undan ko'p farq qiladi. Odamlarni o'zaro qiyoslasak, ajoyib manzarani ko'ramiz: miyaning og'irligi chaqaloq tanasining sakkmazdan bir va katta odamlarda esa qirqdan bir qismini tashkil etadi. Chaqaloqlarda bosh gavdaga nisbatan kattaroq ko'rinsada, u hali juda bo'sh, mukammallashmagan bo'ladi. Ularning organizmi jadal sur'at bilan o'sish davridan o'tadi. Bu davrda chaqaloqning og'irligi 3-5 kg bo'lishiga qaramay, miyasining og'irligi 300-350 grammni tashkil qiladi, xolos. Chaqaloqning miyasi xujayralarining miqdori, "ariq" chalarining yaqqol ko'zga tashlanmasligi, nerv xujayralri tarmog'i jihatidan katta odamlarning miyasidan farq qiladi.

Yuqoridagi fikrlarni isbotlashda harakat qilgan psixolog Ye.A.Arkinning ta'kidlashicha, -bola tug'ilishga harakat qilayotgan paytida uning miyasini bir xil kulrang massa tashkil etadi, uning nerv tolalarida mislin qobig'i bo'lmaydi.

Chaqaloq boshqa yosh davridagi odamlarga qaraganda kuchsiz, zaif, ojiz ko'rinsa-da, ba'zi jihatlari bilan kattalardan ustunlik qiladi. Ye.A.Arkinning fikricha, chaqaloqlik davrining kuchli jihatlari ko'pincha uning o'sish quvvatida o'z ifodasini topadi. U har oyda ikki sm dan o'sadi, uning og'irlig har kuni 1,6-2 grammdan ortib boradi. Uning shiddatli sur'at bilan o'sishi ko'proq individning vegetativ nerv sistemasi, ichki sekretsiya (buqoq, qalqon osti va usti) bezlarining faoliyatiga bevosita bog'liqdir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ichki sekretsiya bezlari ishlab chiqargan maxsus gormonlar qonga so'rilib, organizmning jismoniy o'sishini belgilaydi. Chaqaloqning g'oyat jadal sur'atlar bilan o'sishi shu davrning o'ziga xos xususiyati bo'lib, uning o'ishiga ta'sir etuvchi omillar ovqat, sof havo, quyosh nuri, nafas olish, parvarish va hokazolar.

Odatda chaqaloqning nerv faoliyati shartsiz va shartli reflekslar ta'sirida vujudga keladi. Shartsiz tug'ma reflekslar bolaning tug'ilishi arafasida yetarli darajada yetilishi sababli unda qon aylanish, nafas olish, ovqat hazm qilish, siydiq chiqarish singari eng muhim vegetativ funktsiyalar amalga oshadi. Masalan qorni och chaqaloqlar labiga biror narsa tegishi bilan unda emish harakati vujudga kelib, so'laklari oqa boshlaydi. Bu ovqatlanishning shartsiz refleksi deyiladi.

Bolada taassurot olish ehtiqli paydo bo'lishi bilanoq, oriyentir refleksi bilan aloqa o'rnatadi, hissiy ilish organlarining tayyorlik darajasiga muvofiq mavjud ma'lumotlarni qabul qiladi va shu jarayonda o'zini ham rivojlantiradi. Chaqaloqning ko'rvuva eshituv apparati dastlabki kundanoq ishga tushsa ham, ular hali yetilmagan bo'ladi. Shu sababli ko'rish sezgisini yorug'lik, eshitish sezgisini esa qattiq tovush vujudga keltiradi. Bola harakatdagi jismlarni kuzatishga intilsa ham, aslida

qimirlamay turgan narsalarga ko'proq diqqatini to'playdi. Uning ruhiy dunyosida ko'rav va eshituv apparatlariga mos ravishda diqqatning muayyan obyektga to'planishi jarayoni asta-sekin vujudga keladi.

Chaqaloqning sezgi organlari uning harakatiga qaraganda durustroq rivojlangan bo'ladi. Masalan, chaqaloq achchiqni shirindan, issiqni sovuqdan, ho'lni quruqdan farqlay oladi. Uning hid bilish organlari juda zaif bo'lishiga qaramay, burniga yoqimsiz hidli modda yaqinlashtirilsa, bezovtalanadi. Bola teri tuyush, haroratni his qilish, sezish, og'irlikni faxmlash, ta'm bilish sezgilarini ham yetarli darajada rivojlangan bo'ladi.

Chaqaloqda jismlarni, odamlarni, atrof-muhitni kattalar kabi yaxlit va aniq idrok qilish imkoniyati bo'lmaydi. Chunki idrok qilish insonning boshqa psixik jarayonlari (xotira, tasavvur, tafakkur), ruhiy holatlari (his-tuyg'u, o'ng'aysizlanish) va o'ziga xos tipologik xususiyatlari bilan uzviy bog'liqlikda amalga oshadi. Shuning uchun chaqaloqda mazkur imkoniyat o'ta cheklangan bo'lib, sezgi organlari oddiy aks ettirish imkoniyatiga ega.

Yangi tug'ilgan bolada kuchli yorug'likni aks ettirish imkonini bo'ladi va u yorug'likdan turli darajada va shaklda ta'sirlanadi, hatto, ko'zlarini yumib oladi. Ko'rish mexanizmlari hali o'sib ulgurmagan sababli tinch holatdagi yoki harakatdagi jismni idrok qila olmaydi. Goho o'n kunlik chaqaloq harakatdagi jismga nigoh tashlagandek ko'rinsa-da, aslida unga bir necha sekund termilishdan nari o'tmaydi.

Chaqaloqda eshitish sezgisi zaif rivojlangan bo'lsa ham, u hali o'zi eshitishga moslashmagan kuchli qo'zg'atuvchilarni (tovush, qichqiriqni) aks ettira oladi, biroq tovush kelayotgan obyektni aniq topa olmaydi.

Ko'rish va eshitish organlarining muayyan obyektga yo'nalishi oyoq-qo'l va boshning harakatida, bolaning yig'lashdan to'xtashiga ko'rindi.

N.L.Figurin va M.P.Denisovning ia'kidlashicha, bolaning bir oylikkacha davridagi tetiklik holati (uyg'oqligi) ko'rish va eshitishga yo'nalgan shartsiz reflekslar tufayli faollashib boradi; tovush ta'siriga berilish 2-3 haftalikda vujudga keladi. Shuning uchun bola surnay sadosiga quloq soladi va yig'idan yoki harakatdan to'xtaydi. Bir oylik bo'lgach unda oriyentir refleksi namoyon bo'ladi. (I.P.Pavlov). Shu sababdan chaqaloq gaplashayotgan odamga tikiladi va ixtiyorsiz hatti harakatdan o'zini tiyib turadi.

Bola obyektni ko'rish va tovushni eshitish uchun diqqatini to'playdigan bo'lgach harakatining faollashuvida ancha o'zgarishlar ro'y beradi. Odatda uning harakati ixtiyorsiz va tartibsiz ravishda amalga oshib, jismlarga ko'z yugurtirish, boshini burish bilan tugasa ham, harakat hodisasi vazifasini bajaradi: o'zida hulqining sodda ko'rinishini ifodalab, bolani voqyelik, tashqi olam bilan uzviy bog'laydi.

D.B.Elkomin fikricha, chaqaloq hayotininng uchinchi haftasida onaning emizishdagi holatiga moslashish bilan bog'liq birinchi tabiiy shartli refleks vujudga keladi va keyinchalik esa ba'zi qo'zg'atuvchilarga javob tariqasida alohida shartli reflekslar ham paydo bo'ladi.

Tadqiqotchi N.X.Shvachikin mulohazasiga ko'ra, bolada avval unli harflarni, keyin undosh harflarni farqlash ko'nikmasi vujudga keladi. Go'daklik davrida bola qarashi, eshitishni (quloq solishni) va o'z qul xarakatlarini boshqarishni o'rganadi. U juda aktiv xarakatga kattalar bilan muloqotga kirishish va boshqalar eng katta

yutuG'i. Emaklash endi bolaning 1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan (ilk bolalik) davri boshlanadi. Bu yoshdagi xarakatdagi eng katta yutug'i to'gri va tik yura boshlashi psixikasining rivojlanishini taminlovchi predmetli faoliyatning yo'lga qo'yishi va gaplarni tushunib nutq rivojlanishidir. Yurish vaqtida to'G'ri yurish ularni qoniqtirmaydi. Orqaga ko'zlarini yumib baland pastqam joylardan yurib o'zlar o'zlariga qiyinchilik tuG'diradi va uni yengishga xarakat qiladi. Uyqu vaqt kamaya boradi. 1,5 yoshdan 13,5 soat kechasi va 2 maxal, kunduzi 3 yoshga yetganda 12 soat kechasi va 1 maxal kunduzi uxlaydi. Jismoniy jihatda o'sishi quyidagi ko'rsatkichlar atrofida bo'ladi.

- 1 yashar bo'yi 75 (yiliga 25) vazni 9 (yiliga 6)
- 2 yashar bo'yi 85 (yiliga 10) vazni 12,5 (yiliga 3,5)
- 3 yashar bo'yi 92 (yiliga 7) vazni 14 (yiliga 1,5)

Suyaklar qotishi va o'sishi protsessi davom etadi. 3 yoshga yetganda sut tishlari chiqib bo'ladi. Umurtqasi rivojlanib bola gavdasini ko'taradigan bo'ladi. Ichki organlarda xam o'sadi. O'pka va yurak xarakatlarining aktivligi xisobiga vazn ortib faolligi ortadi. Leykotsit kam bo'lganligi uchun yuqumli kasalliklarga tez beriluvchan bo'ladi.

Nerv sistemasi xam tez taraqqiy etadi. Bu davrda bolalarda qo'zG'alish tormozlanishda ustunlik qiladi. Bolada shartsiz reflektor faoliyatiga endi bosh miya po'sti nazorati ostida yuzaga keladigan xilma-xil xarakatlar bo'ladi. Masalan, issiq choynak. Bu 1 signal sistemasini faoliyati bo'lib, endi 2 signal sistemasi yani nutq so'z orqali xatti xarakatlarni boshqarishda katta rol o'ynaydi. Bu davrda sezgi organlari yaxshi takomillashadi. (yeshitish, tuyg'u, og'riqni sezish) bular psixik taraqqiyot uchun zamin yaratadi.

Idrok va tasavvurni o'sishi. Bolada shartsiz orenterovka refleksi asosida xar narsaga qiziqish va dunyoni bilish ishtiyobi uchun ularda idrok va tasavvur xisobiga bo'ladi. Bu analizator (sezgi organlari) takomilashishi sababli go'dak tevarak atrof haqidagi tarqoq tasavvurlar butun-butun obrazlardan idrokka aylanadi. Yana xarakat ko'paygan sari uning bilish imkoniyati kengayadi. Faqat emaklab yurib qolmasdan zinalardan tushish to'siqlarni aylanib o'tish, stulga chiqish, o'ynichoqlarni mustaqil o'ynash va boshqalar. Tortmalarni sumkalarni titkilab, qiziqib, tekshirib yangiliklarni bilib oladi. Bu bola idroki rivojlanishini ko'rsatadi.

Differentsiallashish (rang katta kich.) idrokda nusxa ko'chirish shakllangan. (rasmda kuchuk kallasi) Soyasini kuzatadi. Bola narsalarning katta kichikligini idrok etishda qiynaladi. Fazani tusmallab idrok qiladi. Vaqtini idrok qilishga juda ko'p tirishadi. Erta-bugun kecha tushunchalarini ishlatalishda qiynaladi. Maktab yoshida xam qiynaladi. (ba'zida). Nutq idrok uchun boy materiallari bo'lib, u yordamida tasavur xam shakllana boradi.

Diqqat Bu yoshda bolalarga ixtiyorsiz diqqat xosdir. Rang-barang narsalarga ko'proq e'tibor beradi. Beqaror diqqat (bir o'ynichoqdan ikkinchi o'ynichoqga o'tib ketishi) fiziologik asosi bosh miyada qo'zG'alish tormozlanishiga nisbatan kuchli. Shuning uchun miyada muvozanatga kelish qiyin bo'ladi. BoG'chagacha davr oxirlarida diqqatni barqarorligi 2barobar o'sadi. Bu davrda ixtiyoriy diqqat xali bo'lmaydi.

Xotira. Bu davrda ixtiyorsiz xotira bo'ladi. Bola materiallarni ongli ravishda esda saqlab qololmaydi. Lekin tanish protsesslar esga tushirishga sabab bo'ladi. 2 yoshga yakin uylarni, o'z buyumlarini tanib oladi. Rasmlardan ismlarini aytib beradi. Dastlabki xotiralar paydo bo'ladi. Bolada kuchli kechinma va juda yorqin obraz tug'dirgan narsa uzoq vaqt esda qolishi va esga tushishi mumkin. Bola idrok qilgan narsasini konkret obraz tasavvurlar shaklida esda saqlab qoladi.

Taqlid qilish. Kattalardan nusxa ko'chirish orqali ularning imo ishoralarini o'rganib, shu xarakatlarni takrorlashga intiladi. (Telefonda, chaqaloqqa qarash, kir yuvish supurish sigaret chakish) Ularda mexanik xotira yaxshi o'sgan bo'ladi. 3 yoshga yaqin bolada ertak mazmunlarini xam 4 satrlik she'rlarni xam ordan bir oy vaqt o'tkazib ayttilganda yaxshi eslagan. Savol berib uning manosini xam bilishga xarakat qiladi.

Nutq va tafakkur. Sekin so'zlarni tushuna boshlaydi. 1 davr. 1-1,5 yosh 20-30ta so'zni biladi. "oyi" so'zini imo ishoralar bilan aytadi. Bu "situativ nutq vaziyat nutqi" deyiladi. Birga bo'lgan kishisi tushunadi. Bolada lug'atpassiv ravishda rivojlanadi, yani 1 tomonlama faqat tushunib, o'ziga singdirib beradi.

2 davr. Aktiv lug'at rivojlanadi. Nutq egallash protsessi sifati o'zgaradi. Yangi so'zlarni osonlikcha o'rgana boshlaydi.

- 1 yoshda o'rgangan so'z 3ta
- 1,3 yoshda o'rgangan so'z 19-20
- 1,6 yoshda o'rgangan so'z 25-30
- 1,9 yoshda o'rgangan so'z 120
- 2 yoshda o'rgangan so'z 280
- 2,6 yoshda o'rgangan so'z 450
- 3 yoshda o'rgangan so'z 800-900

Bu ko'rsatkichlar turlicha bo'lishi xam mumkin. Ko'proq muloqotda bo'lishning xam tasiri ko'p. Faoliyatni so'raydi. Avval faqat nutqda extiyojlari ifodalangan bo'lsa, endi nutqning kam berish funktsiyasi oshadi. Mano kira boshlaydi. Bu nima? Nima qiladi?. Nutqning rivojlanishi tevarak atrofni bilish uchun vosita bo'lib ifodalanganadi. Imo ishora qilib

Tafakkur bolada idrok va ish xarakatlar bilan bevosita boG'langan bo'ladi. Fikarlarni so'zlar bilan tushuntira olmaydilar. Yaqqol konkret tafakkur bo'ladi. 3 yoshga qarab ketganda nutq orqali tafakkurni shakllana boshlaydi. Asosiy fikrlash operatsiyalari oddiy ko'rinishda paydo bo'ladi. Analiz taqqoslash sintez umumlashtirish, sodir bo'la boshlaydi. Tom manoda fikrlash operatsiyalari emas, grammatika rivojlangan sari fikrlarni aniq ayta boshlaydi. Kattalar nutqidagi noto'g'rilikni anglab tez takrorlashga xarakat qiladilar. Bolada tafakkur rivojlanishi undagi qiziquvchanlik va sinchkovlik xususiyatidan kelib chiqadi. Titkilash, bu nima? Savollar berish kattalar ishiga tiqilish va x.k. bola atrofdagi informatsiyalarni kattalarning tushuntiriglari bilan o'zlashtirig yaxshiroq tushunadi. Yuqorida aytilgan operatsiyalarni miyalari ayniqsa solishtirish analiz sintez rivojlanadi. Bolada "qo'l tafakkuri" davri 2 yoshda bo'ladi. Masalan vazani ichidan biror buyumni olish. Endi savollar bu nima? Shaklidan buni nima qiladi? Ko'rinishga yani predmetning funktsiyasini bilishga qaratilgan. Nutq o'sishi tafakkur o'sishi uchun zamin deyilgan edi. Tafakkur rivojlanishi ham o'z navbatida so'z zapaslarini oshishiga olib keladi.

Shunday qilib, yuqoridagi mulohazalar asosida umumiy bir xulosaga kelish maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, ikki yoshga to'lgan bola tilninig barcha tovushlarini fonetik jihatdan idrok qilish asosida nutqni tushinish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ilk bolalik davrida harakatlarning shakllanishi oriyentirovka faoliyati xususiyati o'zgarishi bilan uzviy bog'liqdir. Bola u yoki bu harkatni amalgalashirish uchun avval predmet bilan tanishadi: unga ko'z yugurtiradi, qo'liga oladi va hokazo. Bolaning predmetlarning shakli, rangi, vazni bilan tanishtirshda kattalar amalgalashirish mo'ljallangan harakatning mohiyatini tushuntiradilar va harakatni qay yo'sinda bajarishni o'rgatadilar: Bolani "Olib kel", "Joyiga qo'y", "Rasm chiz", "Ushlab tur" kabi so'z birikmalaridan iborat topshiriqning mohiyati bilan tanishtirib, keyin unga harakatni bajarish yo'llari ("Qalamni mana bunday ushla", "Avval qo'lingga ol", "Oldin o'ng qo'ling bilan tut", "Qoshiqni bunday ushlab og'zinga olib bor" deb) ko'rsatiladi. Shuning uchun ham bolada predmetli harakatni o'stirish murakkab jarayondir.

Ilk bolalik amaliy harakat tafakkuri vujudga keladigan davr hisoblanib, qo'l qo'l operatsiyalari turli narsalar va qurilmalar bilan almashinadi. Bola ijtimoiy qurollardan foydalanish usullarini o'zlashtirish natijasida unda predmetli harakat ko'nikmasi shakllanadi. Jismlar bilan turli harakatlarni o'zlashtirishda ulardagi muhim va o'zgarmas alomatlarni ajratish ko'nikmasi hosil bo'ladi, natijada umumlashtirish va umumiy tushunchalarni o'zlashtirish jarayoni ro'y beradi. Yangi sharoitda predmetli harakatdan foydalanish bolaning aqliy o'sishiga ijobiy ta'sir qiladi. o'z xatti-harakatini kattalarning harakati bilan solishtirish va uning o'xshash jihatlarini topish bolaning aqliy o'sishi uchun muhim ahamiyatga ega. Aqliy o'sishi to'g'ri yo'naltirish uchun bola bilan maxsus reja asosida mashg'ulotlar o'tkazish zarur.

Bu davrda bolada "Men o'zim" kontseptsiyasining vujudga kelishi shaxsiy fazilatlar shakllanishiga olib keladi va xuddi paytlarda bola shaxs sifatida tarkib topa boshlaydi. Bolada shaxsiy harakatlar paydo bo'lishi o'sishning yangi davri boshlanganini bildiradi.

Nazrat uchun savollar

1. Maktabgacha yoshdagи bola taraqqiyotining umumiy xususiyatlari nimadan iborat?
2. Maktabgacha yoshda mehnat va o'zin faoliyatlarining o'ziga xosligi nimadan iborat?
3. Bolalarning shaxsiy va ijtimoiy tayyorgarligi haqida nimalar ayta olasiz?
4. Maktabgacha yoshdagи bolalarning bilish jarayonlari va rivojlanishi hamda yosh inqirozi haqida so'zlab bering.

Adabiyotlar ro'yxati

1. David G. Myers Psychology, USA , 2010.
2. James W. Kalat Introduction to Psychology, USA, 2013
3. G'oziyev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2010
4. G'oziyev E.G. Ontogenez psixologiyasi. Toshkent, 2010

3-AMALIY MASHG‘ULOT

Maktabgacha yoshdagi bolalarni individual tipologik va psixologik hususiyatlari

Reja:

1. Bolalarni ta’lim jarayoniga aqliy va ijtimoiy-psixologik tayyorlashning psixologik tomonlari.
2. Bolalarni mактабдаги yangi munosabat shakllariga va yangicha bilish faoliyatiga tayyorlash vazifalari. O‘qish ehtiyoji va motivlarining o‘zgarishi.
3. Bolalarning maktabga tayyorgarligini tekshirishda psixodiagnostika metodlaridan foydalanish.
4. Maktabgacha yoshdagi bola rivojlanishi, psixik taraqqiyoti, bilish jarayonlari, psixologik treninglarni tashkil etish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda psixik jarayonlarni rivojlantirish.

Inqiroz davrida bolaning kattalarga qarshilik ko’rsatishi ham turli ko’rinishlarga ega bo’lib, ular o’tkinchi psixologik holat va hodisaga o’xshaydi. Lekin oila va bog’chada qىynchiliklarni yengish jarayonida bolaning shaxsiga uning o’ziga xos xususiyatlarin hisobga olgan holda to’g’ri va oqilona yondashish uni inqirozdan ruhan mutlaqo sog’lom olib chiqish imkonini yaratadi. Quyida ana shu qarshiliklarning ayrim ko’rinishlari haqida qisqacha to’xtalamiz.

Ko’pchilik psixologlarning taqiqotlaridan va o’zimizning kuzatishlarimizdan ma’lumki, bolalar mazkur inqiroz davrida bir necha ko’rinishdagi qaysarlik yoshini bosib o’tadilar.

Ana shu ko’rinishlarning bittasi biz nazarda tutgan davrga, ya’ni bolaning 3 yoshiga to’g’ri keladi. Ayni shu 3 yoshda bolada o’z irodasiga ishonch xissi tug’iladi, u o’zligini anglay boshlaydi. o’zligini anglash qarama-qarshiliklarni, ziddiyatlarni yengish bilan amalga oshadi.

Mazkur yoshdagi bola ba’zan o’ziga aytilgan so’zlarning mohiyatini tushunmasligi, anglab yetmasligi, goho o’yinga haddan tashqari berilib ketib, kattalarning ovozini eshitmay qolishi mumkin. Bunday paytda bolada tashqi ta’sirga yoki qo’zg’atuvchiga e’tibor berish qobiliyati yetishmasligi, bunda uning ko’tarinki yoki qoyat tushkin kayfiyati halaqit berishi mumkin. Ba’zan bola o’z o’ylari va ichki kechinmalari bilan bandligi sababli uning tashqi ta’siriga javob qaytarishi biroz kechishi ham mumkin.

Ana shu jarayonnga o’zgalarning psixologiu qonuniyatga rioya qilmay qo’pollik bilan aralashuvi yoqimtoy, odobli bolalarni ham darrov jahli qo’zg’aydigan, gap ko’tara olmaydigan, nozik tabiatli shaxslarga aylantirib qo’yishi mumkin. Bunda kattalarning muloqotdagi qo’polligi bolada qaysarlikning belgilarni yaqqol namoyon eta boshlaydi. U har qanday taklifni, buyruqni, hatto, iltimosni ham rad qiladi, o’ziga berilgan barcha savollarga bir maromda “yo’q”, “kerakmas”, “bermayman”, “bilmayman” deb javob qaytaveradi. Kattalar bilan bola o’rtasidagi munosabatning buzilishi tufayli uning xatti-harakatida o’jarlik illati payd bo’ladi. Buning asosiy sababi bolada o’zining ichki kechinmalari, his-tuyg’ulariga bog’liq harakatlarni mustaqil bajarish istagi tug’ilishi, “men” bilan bog’liq butunlay yangi nuqtai nazarning vujudga kelishidir.

Mazkur davrni inson shaxsini shakllantirishda eng murakkab davr desak, xato qilmagan bo'lamiz. Shunga ko'ra katta yoshdagi odamlar, ota-onalar, bog'cha tarbiyachilari shu davrda bolaga undagi o'zgarishlarni, murakkab ichki kechinmalarlarning mohiyatini psixologik inqirozini inobatga olagn holda munosabatda bo'lsalar, nur ustiga nur bo'ladi. Yuqorida aytganimizdek, bu davrda bolaning irodasi, irodaviy sifati takomillasha bolaydi, shaxsning murakkab fazilatlari, xarakter xislatlari barkamollashadi. Bola o'zligini anglashining tashqi va ichki belgilari yaqqol ko'zga tashlanadi. "o'zim" bilan bog'liq ezgu niyat mutaqillikka intilish tuyg'usini vujudga keltiradi, binobarin, ularning ta'siri tufayli unda o'z xulqatvori, "yurish-turishi" bilan kattalarning maqtovi va olqishini eshitish ishtiyoqi tug'iladi. Shaxsning xulqini baholash keyinchalik o'zini o'zi baholash darajasiga yetadi.

Rolli o'yin – maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati. Rolli o'yin mazkur yosh davridagi bolalarning eng muhim faoliyati bo'lib, ular bunday o'yinda go'yo katta yoshdagi odamlarning barcha vazifalari va ishlarini amalga bevosita "bajaradilar". Shu boisdan o'yin faoliyati uchun maxsus yaratiladigan sharoitlarda ijtimoiy muhit voqyealari, oilaviy turmush hodisalari, shaxslararo munosabatlarni umumlashtirgan holda aks ettirishga harakat qiladilar. Bolalar kattalarning turmush tarzi, his-tuyg'usi. o'zaro muomala va muloqtlarning xususiyatlarini, o'ziga va o'zgalarga, atrof-muhit munosabatini yaqqol voqyelik tarzida ijro etish uchun turli o'yinchoqlardan shuningdek, ularning vazifasini o'tovchi narsalardan ham, foydalanadilar. Amma shuni alohida ta'kidlash lozimki, ijtimoiy va maishiy voqyelikning barcha jabhalarini qamrab oladigan rolli o'yin ularda birdaniga emas, balki turmush tajribasining ortishi, tasavvur obrozlarining kengayishi natijasida vujudgakeladi va mohisti va mazmuni jihatdan oddiydan murakkabga qarab takomillashib boradi.

Yirik psixologlar A.Vallon, J.Piaje, L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, B.G.Ananев, D.B.Elkonin va boshqalarning fikricha, go'daklik davrida bolaning predmetli faoliyati negizida rolli vyin uchun eng zarur sharoitlar asta-sekin vujudga kela boshlaydi. Mazkur olimlar va ularning shogirdlari to'plagan ma'lumotlarga asoslanib rolli o'yinni vujudga keltiruvchi muhim omillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: 1) go'daklik davridagi predmet bilan uni harakatlantirish orasidagi bog'liqlik o'z ahamiyatini yo'qota boradi, natijada predmet bilan harakat alohida hukm surish imkoniyati tug'iladi va bola ularni alohida umumlashgan tarzda aks ettira boshlaydi; 2) bola haqiqiy o'yinchoqlar o'rniga ularning asl mohiyatini to'la aks ettirolmaydigan yasama va beo'xshov nussxalaridan keng foydalanadi (fabrikada tayyorlangan qo'g'irchoq yoki avtomobil o'rniga uyda yasab berilgan shunday narsalar bilan qanoatlantirish); 3) bolaning o'z xatti-harakatlari kattalarning ishlaridan farqlanishiga intilishi, unda o'ziga xos shaxsiy harakat ko'nikmasining paydo bo'lishi; 4) bolada o'z xatti-harakatini kattalar faoliyati bilan qiyoslash, harakatlarining mohiyatini muvofiqlashtirish va aynan tuzilishi jihatidan bir-biriga yaqinlashtirish istagini tug'ilishi; 5) bola kattalarning hayoti va faoliyatida uchrab turadigan, odatdagи turmush muammolarini o'zida aks ettiruvchi, ma'naviy va maishiy ko'rinishga ega bo'lgan hayot jabhasini o'z xatti-harakatida izchil ravishda tiklashga (ularning rolini bajarishga) urinishadi

o'yin faoliyatini takomillashtiradigan sharoitlarni tadqiq qilgan N.M.aksarinaning ta'kidlashicha, o'yin o'zidan-o'zi vujudga kelmaydi, buning uchun kamida uchta sharoit mavjud bo'lishi kerak a) bolaning ongida uni qurshab turgan voqyelik to'g'risidagi xilma-xil taasurotlar tarkib topishi; b) har xil ko'rinishdagi o'yinchoqlar va tarbiyaviy ta'sir vositalarining muxayyoligi; v) bolaning kattalar bilan tez-tez muomala va muloqotga kirishuvi. Bunda kattalarning bolaga bevosita ta'sir ko'rsatish uslubi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Shunday qilib, psixolog adabiyotlar tahliliga tayanib maktabgacha yoshdag'i bolalarning o'ziga xos xususiyatlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: 1) bola odamlarning faoliyati, ularning predmetlarga munosabati va o'zaro muomalasiga qiziqadi; 2) bolalar rolli o'yinda atrofdagi voqyelikning eng tashqi ifodali, jo'shqin xis-tuyg'uli jihatlarini aks ettiradilar; 3) rolli o'yinda bola kattalar bilan bir xil sharoitda, yagona zaminda yashayotganini his etgan holda o'z istagini amaliyotga tadbiq qiladi; 4) kattalar hayoti va faoliyatiga kirish bolaning tasavvuri timsollari tariqasida namoyon bo'lsa ham, umuman uning chinakam shaxsiy hayotida o'chmas iz qoldiradi.

Maktabgacha yosh davrida o'yinning takomillashuvi. Psixologiya qabul qilinganidek, rolli o'yin faoliyati syujet va mazmundan tashkil topadi. Odatta syujet deganda, o'yin faoliyatida bolalar aks ettiradigan voqyelikning doirasi tushuniladi. o'yin syujeti turli davrga, sinfiy xususiyatga, oilaviy turmush tarziga, geografik va ishlab chiqarish sharoitlariga bog'liq holda yaratiladi. Bola munosabatga kirishadigan voqyelik doirasi qanchalik tor, cheklangan bo'lsa, o'yinnig syujeti shunchalik xira va bir xil ekanligini aks ettiradi.

o'yinlarning syujeti xilma-xilligiga qaramay, ularin maxsus guruhlarga biriktirish imkoniyati mavjuddir. Masalan, yirik psixolog Ye.A.Arkin o'yinlarning quyidagi tasnifini tavsiya qiladi: 1) ishlab chiqarishga (texnikaga); sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, kasb-hunarga oid o'yinlar; 2) maishiy va ijtimoiy siyosatga ro'zg'or: bog'chaga, maktabga, kundalik turmushga oid o'yinlar; 3) harbiy : urush-urush o'yinlari; 4) drammalashtirilgan: kino, spektakl va boshqalarga oid o'yinlar. Biz shu tasnif haqida L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, D.B.Elkonin singari psixologlarning tanqidiy mulohazalariga to'la qo'shilamiz, chunki harbiy va drammalashtirilgan o'yinlarni ham ijtimoiy-siyosiy guruhga kiritish mumkin. Bizningcha, D.B.Elkoninning tasnifi ma'quldir. U maktabgacha yoshdag'i bolalarga xos rolli o'yinlarning syujetiga ko'ra uchta guruhga ajratishni tavsiya qiladi: 1) maishiy mavzu syujetiga oid o'yinlar; 2) ishlab chiqarish syujetiga maaluqli o'yinlar; 3) ijtimoiy-siyosiy syujetli o'yinlar. Muallif ayrim o'yin turlari maktabgacha yoshdag'i bolalarning barcha bo'g'inlariga mosligini, syujetlar maishiydan ishlab chiqarishag qarab va undan ijtimoiy-siyosiy voqyealarni aks ettirishga qarab rivojlanishini alohida uqtiradi. Uning fikricha, o'yin syujetidagi bunday izchillik bolaning bilim saviyasi, turmush tajribasi kengayishi, uning katta yoshdag'i odamlar turmushiga chuqurroq kirib borishi bilan bog'liqdir. Darxaqiqat, o'yin syujetining o'sishi turmushning tobora yangi qirralarini aks ettirish bilan cheklanib qolmay, muayyan syujetning o'ziga xos boshqa ko'rinishlari bilan boyishi sababli ham amalga oshadi.

Katta yoshdagi bolalarda o'yin faoliyati mutlaqo boshqacha o'tadi, chunonchi bir harakat ikkinchi harakat bilan uzluksiz bog'lanib ketadi, ba'zi bir harakatlar esa so'z yordamida qisqartiriladi ("keling, xush ko'rdik" harakat bilan emas, balki so'z orqali ifodalanadi) va umumlashtiriladi. Rolli o'yin bolalarning hamkorlikdagi faoliyati mahsuli tariqasida vujudga keladi. Bu yoshda rol tanlashda ishtrokkilar o'rtasidagi nizolar, tortishuvlarkamayadi, rolga o'zini loyiq deb bilish o'zidagi mavjud buyumlardan kelib chiqmaydi (masalan, qalam-o'qituvchi, qaychi-tikuvchi rolini olish uchun asos bo'la olmaydi), balki o'yining mazmunidan, hamkorlikdagi faoliyat nuqtai nazaridan kelib chiqadi. Natijada ular kichik maktabgacha yoshdagilarga o'xshab rolni almashtirish, bir buyumdan boshqaiga bir obrozdan ikkinchisiga o'tishdek beqaror harakatlar qilmaydilar.

D.B.Elkonin harakatli o'yining qoidalari mazmuni o'zaro bog'liqligidan kelib chiqib ularni besh guruhga ajratadi: 1) harakatga taqlid qilish; 2) muayyan syujetni drammalashtirilgan o'yinlar; 3) syujeti oddiy o'yinlar; 4) syujetsiz qoidalari o'yinlar; 5) aniq maqsadga qaratilgan mashqlardan iborat sport o'yinlari.

Bolani o'yinga undamagan omil uning katta yoshdagi odamlarning borliq to'g'risidagi va shaxslararo munosabati haqidagi tasavvuri va ularni o'z shaxsiy faoliyatida sinab ko'rish istagidir, shuningdek, jamoa bo'lib o'ynayotgan tengqurlari bilan bevosita muloqotga kirishish ishtiyoyqidir. Bolalar psixologiyasi fanida to'plangan ma'lumotlar tahliliga asoslanib, mazkur yosh davri bo'yicha quyidagi xulosani chiqarish mumkin: 1) o'yin faoliyatida bola turli harakatlarni to'laligicha namoyish etishga, ularni bajarish usullarini ko'rsatishga ishtiyoyqmand bo'ladi; 2) keyinchalik esa barcha xatti-harakatlarni umumlashtirib aks ettirishga urinadi.

Bola o'sib borgan sayin narsalar va o'yinchoqlarning nomini o'zgartirish, yangi nom bilan atash yengillashadi. Shuningdek faqat yangi vaziyatda jismlar nomini o'zgartirish bilan kifoyalanib qolmay, ularni yangi nomga muvofiq qo'llash imkoniyati ham vujudga keladi. o'yin faoliyatida foydalilaniladigan narsalarni yangicha nomlash qator muammoli vaziyatlarni vujudga keltiradi.

o'yin faoliyatida narsalar nomini o'zgartirish o'zining psixologik mlhiyati bilan murakkab holat hisoblanadi. Ayniqsa, so'z bilan predmetning o'zaro munosabatida ularga uzviy bog'liq harakatlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi mulohazalar asosida aytish mumkinki, katta kishilar hayoti va faoliyatining o'mini bosuvchi ashyolar ularning harakatini umumlashgan holda ifodalashning moddiy tayanchi hisoblanadi. Shunday ekan, o'yin faoliyatida bola harakatining rivojlanishi o'yin mazmuniga ko'proq bog'liqdir. Chunki bolaning xatti-harkati qanchalik ihcham va umumlashgan bo'lsa, u kattalarning faoliyati mazmunini aks ettirishdan shunchalik yiroqlashadi. Binobarin, u odamlarning narsalarga va bir-biriga munosabatini amalda bajarishga o'tadi va shuning uchun narsalar bilan harakat qilishda kattalarning ijtimoiy munosabatlarini to'g'ri ifodalashga intiladi.

Har qanday o'yinning va o'yin faoliyatining markazida bola katta kishilarning faoliyati va o'zaro munosabatini, muomalasini o'ziga xos tarzda aks ettirishi, takrorlashi imkoniyati turadi. Shunga ko'ra o'yin ijtimoiy ahamiyat kasb etib, bola insoniyat tomonidan asrlar davomida yarailgan qimmatli bilimlar, amaliy ko'nikmalar, malakalar va odatlarni o'rganishga imkon yaratadi, oqibatda uni shaxslararo muloqotning mohiyatiga olib kiradi.

Makabgacha yoshdagি bolalarda bilish jarayonlarini rivojlanishi.

Maktabgacha davrdagi bolalarda sezgi. Sezgi bu borliqdagi (real) narsa va hodisalarining ayrim xususiyatlarini bizga tasiri natijasida ongimizda aks etishidir. Uning fiziologik asosini Segenov I.M. va Pavlov N.P. lar o'rganishgan va ularni analizatorlar deb atab, 3 ta qismini ko'rsatishgan: 1. Rikatorlar. 2. Afferent, efferent, nerv tolalari. 3.Bosh miyadagi yoki orqa miyadagi markaziy qism.

Ko'rish sezgilari. Ranglarni ajrata olish, masofalarni chamalashi va boshqalar tasavurlari va tafakkurning rivojlanishi uchun zamin hisoblanadi. eshitish uchun tovushlar va qo'llarni his qilishi orqali informatsiyalarni olishadi. Agar eshitish zaif bo'lsa, nutq ham yaxshi rivojlanmaydi va tafakkur orqada bo'ladi.

Tam va hid bilish teri sezgisi go'daklik davridanoq rivojlanadi. Bu analizatorlar, axborotlarni o'zlashtirishda muhim axamiyat kasb etadi.

Maktabgacha davrdagi bolalarda idrok. Idrok qilishda narsa va hodisalar yaxshi tarzda aks ettiriladi. Idrok qilish turmush tajribasiga bog'liq. Shuning uchun bolalarga narsaning nomini va yana uning belgilarini xususiyatlarini ham aytib berish axamiyatlidir. Ekskursiyalar, xayvonot va o'simliklar dunyosi Bilan tanishtirishda bolalar idrokida -- sistemasining rolini oshirish kerak. Bu ularda tasavvurni shakllantiradi. Shakllarni idrok qilish rivojlanadi. Makon va zamonni idrok etish qiyinchilik bilan kechadi. Ularga narsa qanchalik uzoqlashsa u shuncha kichik tuyuladi. Maktabga chiqkanda makon o'lchovlari metr, santimetr, kilometr kabi tushunchalarni o'zlashtiradi. Kecha, bugun, ertaga, indinga, avval, keyin oy, yil, ertalab, kun, tun, kechasi peshin kabi tushunchalarni idrok qilishda, tushunishda va aytishda qiynalishadi. Turmush tajribalari ortishi bilan, bog'chada mashg'ulotlar o'tishi orqali makon va zamonni idrok qilish shakllanadi.

Maktabgacha davrdagi bolalarda diqqat. Inson ongingin butun kuchini bir yerga to'plab, muayyan bir narsa yoki hodisaga aktiv yo'naltirilishi tushuniladi. Bog'cha davrida bolalarda ixtiyoriy turli rivojlanish boshlanadi. Tartiblarga bo'y sunish, vazifalarni bajarish, hikoyalarni tinglash va b.q. O'yin faoliyatida tashabbus bilan malum maqsad ilgari suriladi va buning natijasida diqkat bir joyga to'planadi. Ixtiyoriy diqqat irodaviy protsess bilan bog'liq bo'lagni uchun bu turni o'zları mustaqtil ravishda tashkil eta olmaydilar. Tarbiyachi yoki kata odam yordam beradi va bu diqqat juda uzoq vaqt davom etmaydi. Diqqat xususiyatlari: barqarorligi, ayniqsa kata gruppera tarbiyalanuvchilarida ko'rindi. Mashg'ulotlarda soatlab o'ynashadi. Xajmi nisbatan kichik bo'ladi. Kattalarda 5-6 narsani o'z ko'oamiga sig'dirsa bolalarda 1-2 narsani t.q. bo'linuvchanlik ham rivojlanmagan, xar ikkalasi bir biriga bog'liq.

Maktabgacha davrdagi bolalarda xotira. Idrok qilingan narsa va hodisalarni, kechirilish tuyg'u, o'ylagan fikr, qilingan xarakatlarni esda qoldirish, esda saqlash va keyin esga tushirishda iborat bo'lgan psixik protsessdir. Xotira jarayoni O.N.F. bilan bog'liq. Nerv sistemalari juda egiluvchan va tassurotlaoga beriluvchandir. Shuning uchun bolalarda vaqtli bog'linishlar xosil bo'ladi. Ashula ritmli she'r, qiziqarli xolatlar chuqur tasir etadigan narsalar beixtiyor esda qolaveradi. Nerv sistemasini yangi qo'zg'aluvchan bo'lgani uchun vaqtli bog'lanishlar beqaror bo'ladi, yani mustaxkam bo'lmaydi. Shuning uchun tez unutadilar. Bolalar katta bo'lishgan sari,

nutqlari rivojlangan sari ular o'zlariga kerakli narsalarnigina esda olib qoladigan bo'ladi.

Ularda mexanik esda saqlab qolish, manitqiy esda saqlab qolish maktab davri yakinlashgan sari ko'rindi.

Maktabgacha davrdagi bolalarda obrazli xotira. Yani eshitganlaridan ko'ra ko'rganlarini yaxshi eslab qoladi. Emotsional xotira ham rivojiana boshlaydi.

Maktabgacha davrdagi bolalarda tafakkur. Tashqi muxitdagi narsa va hodisalar o'rtasida ko'z bilan ko'rib qulqoq. Bilan eshitib bo'lmaydigan ichki munosabatlar hamda qonuniyatlar bor. Anna shularni biz tafakkur yani fikr yuritish orqali aks ettiramiz. Bog'cha yoshida tafakkur tez rivojlanadi. Birinchidan, turmush tajribalari oshadi, ikkinchidan nutq rivojlanadi, uchinchidan, mustaqil, erkin xarakatlarqila olish imkoniyatlari va x.k. Tafakkur realligi nutqda ko'rindi. Bu nima? Qanaqa? savollarga javob oladi.

Konkret obrazli tafakkur, yani ular ko'rgan va idrok qilgan real narsalarni ustida fikr yurgizadilar. Abstraklashtirish jarayoni ham kerak bo'lishi shunga bog'liq. Taqqoslash, analiz va sintez qilish yaxshi kechadi. Ekskursiyalar roli g'oyat kata. Didaktik va ijodiy o'yinlarda turli topshiriqlar berish orqali tafakkur rivojlanadi.

Bolani maktabga psixologik tayyorgarligi.

Maktabga borish bolalarning hayotida juda katta voqeadir. Maktab hayoti bolalarga yangi bir dunyoni ochib beradi, maktab davrida bolalarning asosiy faoliyatları o'zgaradi. Endi bolalarning asosiy faoliyatları, asosiy vazifasi va ijtimoiy burchi o'qish bo'lib qoladi.

6-7 yoshli bolalar uchun yangi faoliyat bo'lgan o'qish ulardan yangi sifat, Yangi xususiyatlarga ega bo'lishlarini talab etadi. O'qish faoliyati uchun bolalarda barqaror diqqat, o'tkir zehn, mustaqillik, ishchanlik va batartiblik xislatlari bo'lishi kerak. Bog'chadan maktabga o'tishlari natijasida kattalar bilan bo'lgan munosabatlarida ham birmuncha o'zgarishlar yuz beradi. Bolalarning maktabga o'tishlari, ularning yaslidan bog'chaga o'tishlariga qaragnada murakkab bosqichdir. Shuni ham nazarda tutish kerakki, bola maktabga o'tishi bilan uning ijtimoiy holatida ham o'zgarish ro'y beradi. chunonchi maktab yoshiga yaqinlashgan bolalar bog'chada «katta» deb hisoblanar edilar. Maktabga o'tgach, ular yana «yeng kichkinlar» qatoriga tushib qoladilar.

Bolalarning maktaga o'tishlari bilan yuzaga keladigan anna shunday jiddiy o'zgarishlarni nazarda tutib, ularni maktabdagi yangi xar tomonlama tayyorlash kerak.

Bolalar bog'chasing asosiy vazifalaridan biri bolalarga xar tomonlama tarbiya berib, ularning taraqqiyot darajalarini maktabda o'qiy oladigan qilishdan iboratdir. Bu esa, o'z navbatida maktabdagi o'qitish ishlari bilan bog'chadagi talim-tarbiya ishlari o'rtasida malum izchillik bo'lishini talab qiladi.

Bog'chadagi bolalarning jismoniy jihatdan o'sishlariga qanchalik e'tibor berilsa, ularning aqliy va axloqiy o'sishlariga ham shunchalik e'tibor beriladi. Ularning maktabga chiqishlari doimo nazarda tutilib, o'tkaziladigan turli didaktik mashg'ulotlarda bolalarning idroklari, tasavvur va xotiralari, hayol hamda tafakkurlari, irodalari sistemali tarzda taraqqiy ettirib boriladi.

Bolalarni maktabdagi o'qish protsessiga tayyorlashda ularning nutqini o'stirish, juda zarur shartlardan biridir. Shuning uchun katta gurux bolalarini maktabdagi o'qishga tayyorlashda o'z ona tillarini yaxshi o'rganishlariga, yani so'z boyligini orttirishga, to'g'ri talaffuz va to'la hamda to'g'ri jumla tuza olishlariga axamiyat berish kerak. Bolalarning tashqi olam haqida tasavvurlarni kengaytirish, boyitish ishlari ular nutqini o'stirish asosida olib borilishi kerak.

Shu yoshda bolalarga birmuncha makon tushunchalari (uzoq, yaqin, o'ng, chap, katta, kichik), dumaloq va doira haqidagi tushunchalar, vaqt haqida tasavvur va shuningek axloq tushunchalari (yaxshi, yomon, rost, yolg'on, uyalish) paydo bo'ladi. Bundan tashqari, bola jismoniy jihatdan ham o'sadi. Uning nerv sistemasi, miyasi, muskullari, qo'lari yanada yetiladi. Bu davrda bolaning xarakteriga va o'ziga xos individual xususiyatlari ko'zga tashlana boshlaydi.

Shu narsa diqqatga sazovorki, hamma og'chalardagi mакtab yoshiga to'lgan bolalar maktabdagi o'qishga bab-baravar tayyor bo'lavermaydilar. Ayrim bolalar maktabga kelgach, yangi sharoitga tez kirishib keta olmaydilar. Ularda o'qish uchun qandaydir bir xususiyat yetishmayotgandek ko'rindi. Bu o'rinda shunday bir savol tug'iladi. Bolalarni qay paytda psixologik jihatdan mакtabdagi o'qishga tayyor deb hisoblash mumkin. Ayrim psixologlarning fikricha, bola mакtabda o'qishi uchun atrofdagi narsa va hodisalarga doir anchagina tasavvurlarga ega bo'lishi hamda malum darajada aqliy jihatdan o'sgan bo'lishi lozim. Biroq hayotda shunday voqyealar uchraydiki, anchadagina tasavvur boyligiga ega bo'lgan va xattoki yozish xamda o'qishni biladigan bolalar ham maktabdagi o'qishga tayyor bo'lmaydilar. Ular mакtab va o'qituvchining talablarini bajara olmaydilar. Aksincha, ayrim bolalar yetarli tasavvur boyligiga ega bo'lmasalar ham, mакtabda o'qib keta oladilar. Lekin, bundan maktabdagi o'qish protsessi uchun malum darajada aqliy jixatdan o'sgan bo'lishi mакtabda dastlab o'qib ketish uchun eng zarur shartlardan biridir. Lekin bu bolaning o'qishga tayyor ekanligini aniqlashdagi xal qiluvchi faktor emas, chunki bu yerda yosh masalasi ham bor. Boshqa bir olimlar, bolaning o'qishga tayyor ekanini aniqlashdagi asosiy narsa iroda sifatlarining yetilganligidir, deydilar. Bu fikr bir yoqlamalikka yo'l quyishdan boshqa narsa emas.

Yetti yoshga to'lish davri go'daklikning tugalishi davriga to'g'ri keladi. Xuddi anna shu davrdan boshlab bolalarda o'z-o'zini anglash tarikb topa boshlaydi. Shuning uchun bolalarning yetti yoshga to'lgan davridan boshlab sistemali suratda o'qishga o'tish maqsadga muvofiqdir. K.D.Ushinskiyning fikricha, bolaning maktabdagi o'qish faoliyatiga tayyorligi ayrim psixik protsesslarning taraqqiyot darajasi bilan emas, balki bola shaxsining umumiylaraqkiyot darajasi bilan aniqlanadi.

Bolalarda 5-6 yoshdan boshlab shaxsiy ong tarkib topa boshlaydi. Bu shunday hollarda ko'rindik, bolalar o'zlarini yashab turgan ijtimoiy muxitdan o'z o'rinalarini belgilashga, kattalar bilan yanada yaqinroq, yanada to'laroq munosabatlar sistemasini o'rgatishga intiladilar. Katta gurux bolalari maktabga o'tishdan ancha ilgariyoq mакtab xaqida orzu ila boshlaydilar. Maktabning qanday ekanini kattalardan tez-tez surishtirib turadilar. Maktabga borish vaqtlarini aniq bilishga harakat qiladilar. Agar biror o'rtoqlari maktabga o'tib ketsa, juda xavaslari kelib, o'zlarini bog'chada qolganlaridan o'ksinib ketadilar. Katta yoshdagagi bog'cha bolalarining maktabga

intilishlari ijtimoiy munosabatlar sistemasidan yangini egallahga bo'lgan intilishlarining konkret ifodasidir.

Shunday qilib, bolaning mактабдаги о'qishга тайyorligi shaxsning ijtimoiy yetuklik bosqichlaridan biridir. Lekin ijtimoiy taraqqiyotning bunday yetuklik bosqichiga bola o'z-o'zidan ko'tarilmaydi. uni bu bosqichga bog'chadagi va oiladagi butun talim-tarbiya ishi ko'taradi.

Bola yetti yoshga to'lganda jismoniy jixatdan ancha o'sadi, o'zini idora qilishga, nojo'ya xatti-xarakatlardan o'zini tiyishga, xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirishga harakat qiladi. U o'zini eplay boshlaydi, o'z kuchiga yarasha mehnat qila oladi, masalan, bolalar bog'chasida navbatchilik vazifasini bemalol uddalaydi, jamoada yashashga ko'nika boshlaydi, Bolaning turmush tajribasi tobora ortadi, ko'p narsalarning nomini va ulardan qanday foydalanishni biladi. Xotirasi va tasavvurlari o'sib, ko'pgina she'r va xikoyalarni yoddan bilib oladi. Bolaning nutqi malum darajada o'sgan bo'ladi, u o'z o'rtoqlari va kattalar bilan erkin suxbat qila oladi.

Yetti yoshli bolalarning xis-tuyg'ulari ancha o'sadi. Xayrioxlik, raxmdillik, o'rtoqlik kabi xis-tuyg'ular mustaxkamlana boshlaydi.

Bu davrda bolada turli harakatlar mustaxkamlanadi, u qaychi, igna, qalam kabi qurollardan foydalanish malakasini egallay boshlaydi, Biroq bu davrda ham bolada hali beixtiyor aktivlik ancha ustun turadi. Shu sababli bolani qiziqtiradigan yoki unga kuchli tasir qiladigan narsalar uning diqqatini jalb qiladi. Bu yoshda ham o'yin juda katta rol o'ynaydi. O'yin jarayonida bola o'zini idora qilishga, o'z xarakatlarini o'yin qoidalariga bo'ysundirishga, javobgarlikka, jamoa manfaati ustun qo'yishga odatlanadi. Bu xislatlar keyinchalik o'qish mexnatiga o'tish uchun zarur bo'lgan xislatdir. O'yin jarayonida bolaning aql-idroki, zexn va boshqa psixik xususiyatlari o'sadi. Bular o'z navbatida, bolaning mактабда o'qishi uchun psixologik zamin tayyorlaydi. Bunday zamanni tayyorlash va mustaxkamlashda, albatta oilada hamda bolalar bog'chasida olib oriladigan talim-tarbiya ishlari hal qiluvchi axamiyatga egadir.

Yetti yoshga to'lib, mактабга chiqqan bolalarning psixik jixatdan bundan keyingi o'sishi mактабда oilada olib boriladigan talim-tarbiya ishi jarayonida amalga oshiriladi.

Talimga psixologik tayyorlik deganda bolaningobektiv va subektiv jixatdan mактаб talabiga munosibligi nazarda tutiladi. U mактаб talimiga avval psixologik jixatdan tayyorlanadi. Binobarin, uning psixikasi bilim olishga yetarli darajada rivojlanadi. Shu yoshdagи bola idrokining o'tkirligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi, o'zini qiziqchanligi, dilkashligi, xayrioxligi, ishonuvchanligi, tafakkurning yaqqolligi bilan boshka yoshdagи bolalardan ajralib turadi. Mактаб talimiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo'ladi. Bola diqqatining xususiyatlari roli va syujethi o'yinlarda, rasm chizish va qurish-yasash mashg'ulotlarida, loy hamda plastindan o'yinchoqlar tayyorlashda, o'zgalar nutqini idrok qilish va tushunishda, matematik amallarni yechishda, xikoya tinglash va tuzishda ko'rindi. Bola o'z diqqatini muayyan obektga to'plashga intiladi. Uning xotirasi qiziqarli, ajoyib-g'aroyib, kishini taajubga soladigan malumot va xodisalarni puxta esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu davrgacha bevosita kattalar raxbarligida u yoki bu axborotlarni o'zlashtirib kelgan

bo'lsa, endi o'z xoxish-irodasi bilan zarur matlumotlar to'plashga, o'z oldiga aniq maqsad va vazifa quyishga xarakat qiladi. Bolaning anna shu faolligi xotirasining muayyan darajada rivojlanganligini bildiradi. U she'r, xikoya va ertaklarni esda qoldirish uchun ko'p takrorlashi, yod olishning eng qulay yo'l va usullaridan foydalanish talim jarayonida unga juda qo'l keladi. Birinchi sinf o'quvchisi ko'pincha obrazli xotiraga suyanib bilish faoliyatini tashkil etsa ham, bu ish xotiraning boshqa turlarini inkor qilmaydi. Aksincha, talim so'z-mantiq xotirasini taqozo etadi. So'z-mantiq xotirasining mavjudligi manosini tushunib esda olib qolish jarayonining samaradorligi ortishiga keng imkoniyat yaratadi. Tajribadan malumki, bola manosiz so'zlardan ko'ra manodor tushunchalarni birmuncha tez va mustaxkam eslab qolish xususiyatiga ega. Uning nutqi mакtab talimiga tayyorgarlik bosqichida kattalar bilan muloqotga kirishish, kishilarning fikrini o'qib olish va to'g'ri idrok qilish darajasida, nutqning tuzilishi esa grammatika qoidalariga mos, mantiqan izchil, ifodali, miqdor va clam jixatdan fikr almashishga yetarli bo'ladi. U eshitgan va ko'rganlari to'g'risidagi malumotlarni tushuna oladi. O'zidagi axborotlarni muayyan tartibda bayon qila biladi, aqliy faoliyat operatsiyalaridan o'rинli foydalanadi (ularni taqqoslaydi, oydinlashtiradi. Umumlashtiradi, xukm va xulosa chiqarishga xarakat qiladi).

Olti yoshli bolaning psixik tayyorligi haqida gapirliganda ko'pincha muayyan reja asosida, tartibli, ko'p qirrali maqsadga yo'naltirilgan, o'zaro mantiqiy bog'liq, izchil boshlang'ich talimga zamin vazifasini o'tovchi psixik o'sish darajasidan tashqari, bola turmushi va faoliyatining tafovutlari, sharoitlari, o'ziga xosligi uning sixat-salomatligi, usuliy jixatdan tayyorgarligi, oddiy ko'nikmalarni o'zlashtirgani kabi omilarni xisobga olish maqsadga muvofiqdir. Yuqorida aytilganlarning hammasi bolaning mакtab talimiga psixologik jixatdan tayyorligining obektiv tomonlarini ifodalaydi.

Bola mакtab talimiga psixologik tayyorlanishining subektiv tomoni ham mavjuddir. Uning mакtabda o'qish xohishi, intilish, katta yoshdagi odamlar bilan muloqotga kirishish istagi mazkur tayyorgarlik bilan uzviy bog'liqdir.

Nazorat uchun savollar

1. Bolalarni ta'lim jarayoniga aqliy va ijtimoiy-psixologik tayyorlashning psixologik tomonlari nimadan iborat?
2. Bolalarni mакtabdagи yangi munosabat shakllariga va yangicha bilish faoliyatiga tayyorlash vazifalari haqida so'zlab bering.
3. Bolalarning mакtabga tayyorgarligini tekshirishda qanday psixodiagnostik metodlaridan foydalanish mumkin?
4. Maktabgacha yoshdagi bola rivojlanishi, psixik taraqqiyoti, bilish jarayonlari, psixologik treninglarni tashkil etish haqida nimalarni bilasiz?

Adabiyotlar ro'yxati

1. David G. Myers Psychology, USA , 2010.
2. James W. Kalat Introduction to Psychology, USA, 2013
3. G'oziyev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2010
4. G'oziyev E.G. Ontogenez psixologiyasi. Toshkent, 2010

GLOSSARIY

ABSTRAKTSIYA - (lot, abstractio- maxxumlashtirish) - narsalarning o‘ziga xos belgi va xususiyatlarini, ular o‘rtasidagi bog‘lanishlarni, narsalarning muhim belgi va xususiyatlarini ajiratib olishga qaratilgan fikrlash operatsiyasi.

ABULIYA - (yunon, abule - irodani inkor etmoq) - eng oddiy, osongina masalalar bo‘yicha ham ma'lum qarorga kelish qobiliyati yo‘qligida namoyon bo‘ladigan o‘ta irodasizlik.

AVTOMATIZM - (yunon, aufmafs - o‘z-o‘zidan sodir bo‘ladigan)-ixtiyorisiz yoki anglanmagan holda amalga oshiriladigan harakatdir.

AVIATSIYA PSIXOLOGIYASI - (lot. avis - qush - yunon rsyche - ruh logos -tushuncha, ta'limot)-psixologiya tarmog‘i bo‘lib, uchuvchilar shaxsi va turli uchish faoliyatining psixik xususiyatlarini o‘rganadi.

AVTOMATLASHTIRISH - (yunon. Aufmafs - o‘z-o‘zidan sodir bo‘ladigan) -mashq qilish orqali turli malakalarni shakllantirish jarayoni.

AGGLYUTINATSIYA - (lot. agglutinare - yopishtirmoq elimlamoq) - mavjud obraz va tasavvur qismlarning bir-biriga «yopishtirib» qo‘sish asosida yangi obrazlarni yaratishdan iborat xayol faoliyati. Mas, suv parisi obrazi.

AGRAFIYA -(yunon. A - inkor yuklamasi, grah' -yozman) - nutqdagi turli buzilishlar natijasida yozuvning izdan chiqishi. A. da odam yozish qobiliyatini butunlay yo‘qotadi yoki so‘zlarda xarflarni tushurib qoldiradi, xarflarni qo‘sha olmaydi. A. katta odamlarda bosh miya po‘sti faoliyatining buzulishi natijasida ro‘y bersa, bolalarda u duduqlik natijasida kelib chiqadi.

AGROZIYA - idrokning buzulishi A.mianing ma'lum bir jarohatlanishida sodir bo‘ladi. (ko‘rish A. si, eshitish A.si tuyush A. si.).

ADAPTATSIYA - (lot. adatare - moslashirmoq) - sezgi a'zolarining qo‘zg‘ovchi kuchiga moslashuvi natijasida muayyan sezgirlikning o‘zgarishi A. hodisalarida sezgirlik ortirishi hamda kamayishi mumkin; kuchli ta'sirotdan kuchsiz ta'sirotga o‘tganda sezgirlik asta-sekin ortib boradi; ta'sirot kuchayganda esa, sezgirlik aksincha kamayib boradi. A. qonuniyati barcha sezgilarga xosdir. (ko‘rvu A.si, eshitish A.si, teri A.si)

ADYEKVATLIK - (lot. adecvatus - tenglashtirilgan) - teng, o‘xhash, muvofiq kelmoq. Mas., javoblarning adekvatlik va h.k.

AKKOMADATSIYA - (yunon. akk'm'dati' - moslashish) - ko‘zning turli masofadagi narsalarni ko‘rishga moslashuvi. Ko‘z gavharining o‘zgarishi natijasida sodir bo‘ladi.

AKMYEOLOGIYA - (yunon. akme - yuksak pog‘ona, ziyraklik, yuqori, l'g’s -tushuncha, tahlimot) - tibbiyot, ishtimoiy va tabiiy fanlarning tutashuvida maydonga kelib, fenomenologiyani, inson taraqqiyotining qonuniyat va mexanizmlarini, insonning kamolotga erishish pog‘onasida uning bu taraqqiyoti ancha yuqori darajaga erishuvini o‘rganidigan fan.

AMNYEZITSIYA - (lot. a-inkor etish, mnesus - xotira) - miyaning turli qismilari jarohatlanishi natijasida xotirining yo‘qolish holati.

AMALIY TAFAKKUR - ko‘pincha vaqt tanqisligi sharoitida yuzaga keladigan va xatti-harakatlarni maqsadini aniqlash; reja, loyihalarini ishlab chiqish bilan bog‘liq.

ANALITIK PSIXOLOGIYA - psixologiyadagi oqim, unga 1913 yili K.G. Yung asos solgan u psixikani idealistik talqin etib, ong bilan g‘ayrishuuriylikning o‘zaro kompensatsiyasiga asolangan o‘z-o‘zini boshqaruvchi sistema deb qaraydi; shunga ko‘ra ong va g‘ayrishuuriylik integratsiyasi shaxsning bir butunlikka erishishi individuallashish yo‘lidir. A.p. psixopatologiya va psixoterapiya, shuningdek, falsafa, antropologiya, madaniyat tarixi, etnologiya, mifologiya va b. fanlar bilan bog‘liq va ularga tahsir ko‘rsatgan.

ANIMIZM - (lot. anima - jon) - odam, hayvonot, o‘simlik, predmetlarga mustaqil jon borligi haqidagi tasavvur tizimi. A. ibridoiy din va hozirgi barcha dirlarning asosiy elementidir.

ANTITSIPATSIYA - (lot. anticiati' - oldindan bilish, payqash) - odamning hodisalar rivoji, xatti-harakat natijalarini oldindan ko‘ra olish qobiliyati.

ANTROPOGYENYEZ - (lot. anthr"s - odam, genesis - tug‘ilish) - odamning kelib chiqish jarayoni.

APATIYA - (yunon. aatheia - xissiyotsizlik) - kishining tevarak-atrofidagi olamga nisbatan hech qanday qiziqishsiz befarq holati. A. og'ir kechinmalar yoki kasallikklardan toliqish natijasida kelib chiqadi.

APPYERTSYEPTSIYA - (lot. ar-ga, qarashli, erceti' - idrok) - shaxs idrokining avvalgi bilim va tajribalariga hamda uning umumiy qiziqish, havaslariga bog'liqligi.

ASSOTSIATIV PSIXOLOGIYA - XVII-XIX asrlarda maydonga kelgan psixologiya fanining yo'nalishi. U tushuntirishning asosiy yo'llari tariqasida assotsiatsiyadan foydalanadi. Psixik hodisalarning mohiyati sifatida talqin etiladi. U ko'proq Angliyada tarqalgan.

AUTOGYEN MASHQ - (yunon. aufs - o'zim, denos - kelib chiqaman) - o'z-o'zini ishontirish va o'z-o'zini idora qilish asoslangan psixoterapevtik usul.

BASHORATGO'YLIK - sezgi a'zolari va aqliy tafakkurgaacoslanmagan holda tashqi olamning ob'ektiv hodisalari haqida bilimga ega bo'lish. Belgi - sezgi a'zolarimiz orqali idrok qilinadigan narsa va hodisalar yoki ma'lum muloqot jarayonidagi xatti-harakatlarning vakili-belgisi vazifasini o'tovchi narsa yoki hodisa.

BELGI TIZIMI - umumiy qoidalari bilan o'zaro bog'liq va amalda qo'llanadigan belgilarni birlashtiruvchi belgilar to'plami.

BILINGVIZM - (lot. bi - ikki, lingua - til) - ikki tillilik. Ikki tilni mukammal bilish.

BILISH - psixik aks ettirish jarayoni, bilimlarni egallash va uni o'zlashtirishni ta'minlaydi.

BILISHGA QIZIQISH - aqliy intellektual hislar mahsuli, bu odamning tevarak-atrofdagi olamni bilish ehtiyoji tariqasida namoyon bo'ladi.

BINYE - SIMON TESTI - bolalar aqliy rivojlanish usuli. Frantsuz psixologlari Bine va Simon tomonidan ishlab chiqilgan (1904). Ular ilk bor eksperimental psixologiyaga asos solishgan.

BINOKULYAR KO'RISH - (lot. bini - juft, okuliys - ko'z) - bitta ob'ektning o'zini har ikkala ko'z bilan barobar ko'rish. Narsalarning teranligi, uzoqligi va hajmini idrok qilishni ta'minlaydi.

BIOGENETIK QONUN - (yunon, bios - hayot, genesis - kelib chiqmoq, -psixologiyada E.Gekkel tomonidan ochilgan biologik qonun bo'lib, ynra ko'ra ontogenet filogenezni takrorlaydi deb hisoblanadi. Odam psixikasining ontogenetda birinchi signallar tizimiga tayangan holda amaliy faoliyat asosida avval oddiy ehtiyojlarni qondirishdan boshlanib, keyii emotsiya va bilim rivojlanadi, so'ngra ikkinchi signallar tizimi asosida ong shakllanadi, deb hisoblaydi.

BIRINCHI SIGNAL - narsa va hodisalarning sezgi a'zolariga besita ta'sir etishi natijasida bosh miya yarim sharlari qobig'ida hosil bo'ladigan shartli muvaqqat nerv bog'lanishlari. U sezgi va idrok turlarida namoyon bo'ladi.

BIXEVORIZM - (ing. behavi'ur xulq) - XX asr boshlarida AQShda maydonga kelgan yo'nalish bo'lib, bunda psixologiyaning o'rganish predmeti qilib faqat odamning xulq-atvori olingan. Bu yo'nalish faqat odamning tashqi ta'sirlar natijasida paydo bo'lgan xatti-harakatlari bilan xulq-atvorini tanish mumkin, deb hisoblaydi. Bunda ong ahamiyati inkor qilinadi. Bu yo'nalishning asoschilari -D.Uotson, E.Torndayklar.

BORLIQ - ob'ektiv olamning ongdan holi bo'lgan holda mavjudligini bildiruvchi falsafiy tushuncha.

BOSHQARISH - tabiatning turlicha bo'lgan (biologik, ijtimoiy va texnik, tizimlari funktsiyalarini, ularning ishini tashkil qilish) maqsad va dasturlarini amalga oshirishga qaratilgan jarayon.

BOSHQARISH PSIXOLOGIYASI - psixologiya fanining boshqarish faoliyatini psixologik qonunlarini o'rganuvchi sohasi.

BOSH MIYA - markaziy nerv tizimining old (yuqori,oliy) qismi bo'lib, u bosh miya qobig'ida joylashgan oliy nerv tizimining moddiy asosi. B.m.ning o'rtacha og'irligi (odamniki) 1470 g.

BOSH MIYA KATTA YARIM SHARI - bosh miyaning ikki pallasi. Uning ustki qismi uchun bo'limgan o'nqir - cho'nqirlardan iborat. B.m.k.ya.sh. orqa old, yon, orolcha, orqa umurtqalarga bo'linadi. Miya nerv kataklari neyronlardan iborat bo'lib, ikkita katta yarim sharlar po'stlog'ini tashkil etadi. Miyadagi oq suyuqlik neyron o'simtalaridan tarkib topib, miya yo'llarini ko'rsatib turadi..

VENER FAXNER QONUNI - qo‘zg‘ovchi kuchning o‘zgarishi bilan hosil bo‘lgan muayyan sezgi kuchining o‘zgarishi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni ifodalashdan iborat psixofiziologik qonun.

VEGETATIV NERV TIZIMI (lot. vegetati' - o‘simlik) - nerv tizi- mining organizm ichki a’zolari faoliyatini va modda almashinuvini boshqarib turadigan bir qismi. V.n.t. markaziy nerv tizimi bilan uзви bog‘liq bo‘lib, bu bosh miya qobig‘i tomonidan boshqariladi. V.n.t. simpatik va parasimpatik nervlar deb ataluvchi ikki qismga bo‘linadi.

VERBAL - (lot. verbaliz- og‘zaki)- atama. Verbal nutq - og‘zaki ifodalanadigan nutq.

VIJDON - axloqiy ong tushunchasi. U yaxshilik va yomonlikni ajrata olish o‘z xatti-harakatlariga axloqan javob bera olishga qaratilgan ichki e’tiqoddan iborat. V. bu o‘z-o‘zini boshqara olish, nazorat qilish, axloqiy talablarni bajarish, qilingan ishlarga javob bera olish.

VIJDON AZOBI - kishining o‘z xulq-atvoriga, axloq talablarining buzilishiga nisbatan bildiriladigan axloqiy emotsiyal holat.

VOLYUNTARIZM - (lot. voluntas- iroda) - psixik va borliq asosini g‘ayritabiyy kuch tashkil deb ta’kidlovchi oqim. V. oqimi irodani voqelikni aks ettirishning alohida formasi emas, balki ong taraqqiyoti munosabati bilan yuzaga keladigan maxsus kechinmalar deb biladi.

GALLYUTSINATSIYA - (lot. hallu-cinati' - alahlash) - real vogelikdagi narsa va hodisalarning analizatorlarga bevosita ta’sirisiz ongimizda turli obrazlarning hayoliy ravishda paydo bo‘lishidan iborat psixopatologik hodisa. G. real hodisadek idrok etiladi, shu bilan birga bunday hodisalarga nisbatan salbiy munosabat yuzaga kelishi mumkin.

GENEZIS - (yunon. genesis - tug‘ilmoq, vujudga kelmoq, rivojlanmoq) -biror bir hodisa yoki narsa rivojlanishi jarayonining qonuniyatlarini aks ettiruvchi tushuncha.

GENIALLIK - (lot. genius - aql, zakovat; buyuk iste'dod) - shaxsning eng yuksak darajadagi ijodiyoti bilan o‘zini namoyon qilish hodasisi.

GENLAR - (yunon. gen's - kelib chiqish) - irsiy materialning birligi, u irsiy belgining shakllanishini ta'minlaydi. G.ning yig‘indisi genotipni tashkil etadi.

GENLAR MUHANDISLIGI - molekulyar biologiyaning bir bo‘limi bo‘lib, genetik va biologik metodlar orqali yangi genlarning birikmasini paydo qildirishga qaratilgan.

GENOTIP - (yunon. genos - kelib chiqish, tyros - namuna) - ota-onadan farzandga o‘tadigan genlar majmui, irsiy asosi.

GERONTOPSIXOLOGIYA - (yunon. gerontio - qari odam) - psixologiya tarmog‘i, qarilik davri psixologiyasini o‘rganadi.

GESHTALT - (nem. Gestalt - obraz, shakl) - «Geshtalg‘t psixologiya-si»ning asosiy atamasi bo‘lib, psixik hodisalarni yaqqol idrok etishda foydalanilgan.

GESHTALT PSIXOLOGIYA - (nem. Gestalt - obraz, shakl) - hozirgi zamon chet el psixologiya maktablaridan biri bo‘lib, XX asrning 30-yillarda Olmoniyada bunyodga kelgan. Bular murakkab psixik hodisalarni tushuntirish uchun hodisalarning bir butunligini asos qilib oladilar. Asoschilar - M. Vertxeymer, V. Kyoler, N. Koffka.

GIPERBOLIZATSIYA - (yunon. hyerbole - kattalashtirmoq) - kat- talashtirish bilan bog‘liq, hayol faoliyatining bir usuli.

GIPERSENITIVLIK - (yunon. hyrer - o‘rtal baland, lot. sensus- sezgi) - o‘ta sezuvchanlik.

GIPNOZ - (on.hyn's - uyqu) - bosh miyaning ba’zi markazlarini tormozlash natijasida kishilarda va hayvonlarda maxsus ravishda hosil qilinadigan sun‘iy uyqu. G. davolash maqsadlarida ham foydalanishi mumkin.

GIPNOPEDIYA - (yunon, hyn's - uyqu, raideia - ta‘lim) - uyqu vaqtida ta‘lim-tarbiya berish.

GNOSTIK - (yunon. gnosis - bilim, ta‘lim) - butun borliqni bilishga yo‘naltirilgan faoliyat.

GRADIYENT - (lot. gradientis - qadam tashlovchi, boruvchi) - biron-bir xususiyat yoki ko‘rsatkichning yo‘qolishi yoki ko‘payishini aks ettiruvchi qonuniy miqdor o‘zgarishi (mas., qo‘zg‘ovchi gradienti).

GUMORAL - (lot. humos - suyuqlik) - organizmning o‘zidagi suyuqliklar bilan bog‘liqligi. Mas., qon, limfalar.

GURUH - odamlarning birgalikdagi faoliyat mazmuni yoki muloqotda bo‘lish xarakteri kabi qator belgilariga asoslangan ijtimoiy jamoa. G. lar real va shartli bo‘lishi mumkin.

DAKTILOLOGIYA - (yunon. dactylos - barmoq, logos - ta'lomit) - harflar va so‘zlarni qo‘1 barmoqlarining turli holatlari yordamida ifodalashdan iborat maxsus nutq shakli. D. kar-soqovlarga ta’lim-tarbiya berishda va ularning o‘zaro fikr almashuvlarida asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

DALTONIZM - (ingliz kimyogari va fizigi Dalg‘ton nomidan) - ko‘z pardasidagi hujayralar funktsiyasining buzilishi natijasida qizil rangni ajrata olmaslikdan iborat ko‘ruv sezgisining nuqsoni.

DANGALLIK - psixik xususiyat bo‘lib, u uchta turda namoyon bo‘ladi. Irodaviy zo‘r berishni talab qiluvchi, faoliyatni bajarishni istamaslik, ana shu faoliyatsizlikdan zavq qilish.

DAHSAT - affekt holati bo‘lib, unda qisqa muddatli qo‘rquv boshdan kechiriladi.

PSIXIK HOLATLAR - psixik hayot shakllari - diqqat, hissiyot, iroda jarayonlari psixik holatlar deb ataladi. P.x., (xushchaqchaqlik, ruhlanish, siqilish, ziyraklik, qafiylik, tirishqoqlik va x.k.) shaxslarda ma'lum darajada barqaror bo‘lib, ularning muayyan xususiyatiga ham aylanib qoladi.

PSIXOKORREKSIYA - (ing. korreccio - to‘g‘rilamoq) - shaxsning psixik rivojlanishidagi kamchiliklarni tuzatish usullarini qo‘llash jarayoni.

PSIXOLINGVISTIKA - (lot. lingua- til) - psixologiyada ilmiy yo‘nalish, nutq jarayolari va uning idrok qilinishi mazkur tilning tizimi bilan taqozolanganligini o‘rganadi.

PSIXOLOGIK SALOMATLIK - insonning ruhiy osoyishtaligi, o‘z-o‘zini boshqara bilish, mustahkam kayfiyat murakkab vaziyatlarga tez moslashib, undan chiqa bilish, qisqa vaqt ichida ruhiy osoyishtalikni tiklay olish qobiliyatiga ega bo‘lishi.

PSIXOLOGIK XIZMAT - psixologiyani amaliyotda qo‘llash tizimi. U ishlab chiqarish, maorif, sog‘liqni saqlash, sport, yuridik va x.k. tashkilotlarda psixologik ekspertiza, diagnostika va konsultattsiya vazifalarini bajaradi.

PSIXOLOGIK QIYOPA - shaxsning alohida xususiyatlari bilangina emas, balki umumiy sifatlari, xarakteri va qobiliyatları bilan yo‘nalgan maslagi ta’siri ostida bo‘lgan psixik jarayonlar va holatlarning o‘ziga xosligini belgilovchi tug‘ma zehn va tajribalari.

PSIXOLOGIYA TARIXI - psixologiya tarmog‘i, psixologik tushuncha va faktlarni, ularnnng qonuniyatları kelib chiqishining qadimgi davrdan to hozirgi davrgacha bo‘lgan holatini o‘rganadi.

PSIXIK SUR'AT - psixik faoliyatning yoki muayyan psixik jarayonning sodir bo‘lish tezligi. P.s. shaxsning umumiyy va maxsus kamolotiga bog‘lik bo‘lib, u o‘zgaruvchan va tarbiyalanuvchandir.

PSIXOLOGIK TO‘SIQ - ma'lum faoliyat yoki ish-harakatlarni amalga oshirishga, jumladan, biron ta odam yoki kishilar guruhi 6ilan munosabatda bo‘lishga to‘sinqilik qiladigan sabab.

«PSIXOLOGICHESKIY JURNAL» - rossiya Fanlar Akademiyasining nashri. 1980 yildan boshlab yiliga 6 marta nashr etiladi.

PSIXOLOGIYADA MATEMATIK STATISTIKA USULI - Ilmiy va amaliy xulosalarning aniqligi, to‘g‘riligi, hayotiyligini ta‘minlovchi matematik metod.

P.m.s.u. olingan natijalarini ehtimollik nazariyasiga asosan to‘g‘ri va ishonchlilagini aniqlab beradi.

PSIXOFARMAKOLOGIYA - (yunon; farmak'n - dori-darmon. l‘g‘s tahlimot) -psixologiya tarmog‘i. Odam psixikasiga dori-darmon vositalarining ta’sirini o‘rganadi.

PSIXOFIZIKA - (yunon rhusic tabiat) - psixologiya bilimlardan, psixik xususiyat va qonunlarining fiziologik asoslarini o‘rganadi.

PSIXOFIZIK O‘ZARO TA’SIR - psixofizik muammoni hal qilishda fiziologik hodisalar psixik hodisalarini, psixik hodisalar esa o‘z navbatida fiziologik hodisalarini keltirib chiqaradi deb, psixikaning ob‘ktiv borliqning aksi miyaning funktsiyasi ekanligini inkor qiluvchi dualistik qarash. Bu kontseptsiya odamning yaxlit jonzot sifatida o‘z xulq-atvorini psixik boshqarishini ilmiy nuqtai nazardan tushuntirilishi bilan sig‘ishmaydi.

PSIXOFIZIK PARALLELIZM - (yunon. riaralleios - yonma-yon boruvchi) -psixofizik muammo talqini, bunga ko‘ra psixik va fiziologik jarayonlar bir-biriga bog‘lanmagan holda sodir bo‘ladi va bir-biriga ta’sir etmagan holda parallel hosil bo‘ladi.

PSIXOFIZIOLOGIYA - psixologiya va neyrofiziologiyaning psixikani, uni neyrofiziologik asoslari bilan birga o‘rganishga hamkorlikdagi sohasi.

PUBERTAT DAVR - (lot. rubertas- jinsiy etuklik) - jinsiy etuklik davri bo‘lib, unda jinsiy a’zolar va jinsiy bezlarning to‘la shakllanishi kuzatiladi. Ushbu davrda o’smirlarda qator jismoniy va psixik o‘zgarishlar sodir bo‘ladi.

**FOYDALANISH
TAVSIYA
ETILADIGAN
O‘QUV-USLUBIY
ADABIYOTLAR
RO‘YXATI**

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olижаноб xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: “O‘zbekiston”, 2016. – 56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagagi ma’ruzasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017– 48 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston”. – 2017.– 102b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olижаноб xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.“O‘zbekiston”, 2018- 80 b.
6. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch –T.: “Ma’naviyat”2008.–176 b.
7. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida T.: “O‘zbekiston”, 2011.–440 b.
8. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxti iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. –T.: “O‘zbekiston”, 2015. – 302 b.

I. Maxsus adabiyotlar

- 1.Nishanova Z.T., Alimova G.K.. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi T.: TDPU 2017.
2. G‘oziev E. Ontogenet psixologiyasi. Nazariy- eksperimental tahlil T.: Noshir 2010.
- 3..Do‘stmuhamedova Sh.A.,Nishanova Z.T va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya T.: Fan va texnologiyalar 2013.
- 4..Shapovalenko I.V. Vozrastnaya psixologiya (Psixologiya razvitiya i vozrastnaya psixologiya): uchebnik dlya studentov vuzov. – M.: Gardariki, 2007.
5. Asadov Yu., Musurmanov R. —O‘smirlar deviant xatti-harakatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (diagnostika, profilaktika, korreksiya)||- T.,2011
6. Sodiqov B. —Tarbiyasi qiyin o‘smirlar psixologiyasi||, Termiz 2003 yil
7. Sodiqov B —Deviant xulq bolalar psixologiyasi||, Termiz 2010 yil
8. To‘laganova G.K —Tarbiyasi qiyin o‘smirlar||. T, —Universitet||, 2005 yil.
9. Hasanboeva O. —Oilada ma’naviy-ahloqiy tarbiya||. T, —Aloqachi||, 1998 yil .
10. Xudoyqulov X.J —Odob-ahloq va tarbiya durdonalari|| T. 2008 yil
11. Yadgarova G.T —Tarbiyasi qiyin guruhga mansub bolalar bilan ishslash||, uslubiy qo‘llanma, Toshkent, 2007 yil.

II. Elektron ta’lim resurslari

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi: www.edu.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi: www.uzedu.uz
3. Xalq ta’limi sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi:www.multimedia.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markaz: www.bimm.uz
5. Ijtimoiy axborot ta’lim portalı: www.ziyonet.uz